

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

GEOGRAFIYA KAFEDRASI

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI
GEOGRAFIYASI
(ma'ruzalar matni)



Termiz

Ma'ruzalar matnida Markaziy Osiyo davlatlarining chegaralari, geografik o'rni, xududiga umumiy ta'rif berilgan. Markaziy Osiyo xududining geologik tuzilishi, rel'yefi atroflicha yoritilgan hamda tabiiy boyliklari, ularning tarqalish geografiyasi haqida batafsil so'z yuritilgan. Shuningdek, iqlimi va unga ta'sir qiluvchi omillar, ichki suvlariga ham ta'rif berilgan. Markaziy Osiyo hududining tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ham atroflicha mulohazalar yuritilgan.

Ma'ruza matnida Markaziy Osiyo mamlakatlarining "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi"ga xam 8 soatlik ma'ruzalar tayyorlangan va bunda aholisi, transporti, xalq ho'jaligining yetakchi majmualari atroflicha yoritilgan. Markaziy Osiyodagi har bir mamlakatga iqtisodiy-geografik nuqtai nazardan ta'rif berilgan.

Ma'ruza matnining oxirgi qismida O'zbekiston Respublikasiga tabiiy va iqtisodiy geografik ta'rif berilgan, unda geografik o'rni, iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, ma'muriy hududiy bo'linishi va iqtisodiy rayonlariga ta'rif berilgan.

Mualliflar: g.f.n., dos. Allanov Q.,.

Mas'ul muharrir: k.o'q., g.f.n. Abdunazarov X.

Taqrizchilar: o'qit. Choriyev A., k.o'qit. Umarova M.

1-mavzu.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING TARKIB TOPISHI, HUDUDI, CHEGARALARI VA GEOGRAFIK O'RNI

REJA:

1. MOD ning tarkib topishi.
2. Hududi va chegaralari.
3. Geografik o'rni.

1. Markaziy Osiyo davlatlarining tarkib topishi.

1990 yillarning boshidan xorijiy mamlakatlarning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy hayotida tub o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, NSSRning parchalanib ketishi va uning o'rnida mustaqil davlatlarning vujudga kelishi kishilarning xorijiy mamlakatlar haqidagi tasavvurini yana ham kengaytirdi va ayni paytda o'zgartirib ham yubordi. Eski imperiya - Sovet Ittifoqining yemirilishi bilan Markaziy Osiyo zaminida Tojikiston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Turkmaniston davlatlari tarkib topdi. Ularni mustaqil davlat sifatida jahondagi ko'plab mamlakatlar tan olishdi va mazkur davlatlarning barchasi bilan diplomatik munosabatlar o'rnatishdi. Markaziy Osiyo davlatlarining barchasi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo qilib olindi.

Markaziy Osiyo Yevroosiyo materigining o'ziga xos yirik geografik rayoni. Bu regiondagi mustaqil davlatlar uzoq va yaqin o'tmishda yaxlit bo'lgan, bir bo'lgan. Amir Temur ta'kidlaganidek, ularning " mulki turon, millati turk" bo'lgan

Zamini bir bo'lgan turkiy xalqlarning tili, dini bir, urf-odati, madaniyati, maorifi, mash'uloti bir bo'lgan.

O'z davrida Markaziy Osiyo xalqlari jahon fani va madaniyatining rivojlanishiga beqiyos katta xissa qo'shgan. Turkistonlik allomalar, tabiyot va diniy ilmning siymolari, jaxongashta sarkardalar, o'z davrining atoqli arboblari butun dunyoga ma'lum va mashxur bo'lgan. "Sovet Ittifoqi" deb atalmish eski tuzum hukm surgan (1917-1991) yillarda Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlar taxqirlandi, ularning madaniy boyliklari toptaldi, yaxlit hududlari parcha-parcha qilib tashlandi. Shu davrgacha kishilar parchalangan Markaziy Osiyo davlatlarini "O'rta Osiyo" (yoki "O'rta Osiyo Res. Va Qozog'iston) timsolida o'qib o'rganishdi. "O'rta Osiyo" degani Osiyoning geografik markazi, o'rta qismi degani emasmi?! Holbuki Osiyoning geografik markazi bizning hududimizdan ancha yiroqda - Sharqiy Sibirdagi Tuva Respublikasining poytaxti - Qizil shahridir.

Endilikda vaziyat o'zgardi. Markaziy Osiyoning siyosiy kartasida yuqorida zikr qilingan mustaqil davlatlar tashkil topdi. Bu davlatlar kelajakda o'zaro birlashish, bir-biriga yaqinlashishni parchalanishga qarshi qo'yadilar. Ular bir-birlari bilan hududiy yaxliolik, yaqinlik (bog'langanlik)ni, xalqlarning etnik kelib chiqishi va qon-qardoshlikka tayangan tarixiy birligini inobatga olib yaqin kelajakda tenglik asosiga qurilgan iqtisodiy, texnikaviy, madaniy aloqalarini qayta tiklashlari, rivojlantirishlari shak-shubhasizdir.

2. Hududi va chegaralari.

Markaziy Osiyo (Turkiston) davlatlari asosan Osiyo qit'asining Markaziy qismida joylashgan. Shuningdek, uning hududi Yevropa qit'asiga ham daxldor. Chunki Markaziy Osiyo hududining bir qismi Ural daryosidan toki Qozog'iston davlatining ħarbiy chegaralarigacha Yevropa qit'asidadir.

Markaziy Osiyo davlatlarining maydoni 3.994,4 kvG'km yoki uning maydoni Yevropa qit'asi maydonining 44%ga teng. Bu hududga 7 ta, G'ransiya, 10,5, Yaponiya yoki Buyuk Britaniyaday davlatdan 16 tasini joylashtirish mumkin.

MOD shimol, shimoli-sharq va shimoli-larbdan Rossiya, g'arbdan Kaspiy dengizi orqali Shimoliy Kavkaz va Kavkaz orti davlatlar bilan, janubdan Eron va Afg'oniston hamda janub va janubi-sharqdan Xitoy bilan chegaradosh. MODning shimoliy chegaralari nisbatan tekislikdan, janubiy chegaralari esa baland toI sistemalari Tyan-Shan, Pomir, Oloy, KopetdOI orqali o'tadi.

MODning joylashgan o'rni uning ichki taraqqiyotida muhim omil bo'lib maydonga chiqadi.

1-misol. Uning Rossiya bilan chegarasini olaylik, Markaziy Osiyo Rossiyaning iqtisodiy jihatdan ancha rivojlangan Volgabo'yi, Ural, Shimoliy Kavkaz va ħarbiy Sibir yirik iqtisodiy rayonlari bilan katta masofada chegaralangan. Bu iqtisodiy rayonlar hududiga MODning ko'pgina temir yo'l va avtomobil magistrallari o'tkazilgan hamda chegaradosh davlatlararo iqtisodiy va texnikaviy aloqalar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Mazkur chegara ayniqsa, MODning yirik davlati -Qozog'istonning iqtisodiy taraqqiyotida muhim omildir.

2-misol. MOD, G'arbda Kaspiy dengizi orqali o'tgan chegaraga ega. Bu chegara orqali MOD birinchidan dengiz baliqchiligining va suv transportini rivojlantirish, ikkinchidan Kaspiy dengizi orqali Rossiya va Ukrainaning ichki daryo va dengizlari (binobarin ichki iqtisodiy rayonlari)ga chiqish imkoniyatiga ega.

3-misol. Janubda Eron, Afg'oniston va Xitoy bilan o'tgan chegara Markaziy Osiyoning mazkur davlatlar va Osiyoning boshqa janubiy mamlakatlari bilan savdo-sotiq aloqalarini olib borish imkoniyatlarini beradi. Bir yarim asr mobaynida uning Osiyo davlatlariga nisbatan qulay bo'lgan geografik o'rni o'lka taraqqiyotidagi muhim omil sifatida foydalanilmadi. Markaziy Osiyo davlatlari qo'shni davlatlar bilan har tomonlama diplomatik munosabatlar o'rnatish bilan o'zaro transport aloqalarini rivojlantirishga ham kirishdi. Qozog'iston va Qirg'iziston, Xitoy bilan, O'zbekiston, Tojikiston va Turkmaniston Afg'oniston va Eron hamda Turkiya bilan avtomobil, temir yo'l va suv yo'li orqali ko'p tomonlama hamkorlik (borish-kelish) qiladigan, savdo-sotiq ishlarini amalga oshiradigan bo'ldi. Shubhasiz, qo'shnichilikka tayangan Osiyo mamlakatlari bilan boshlangan bu xil munosabatlar samarali natijalarga olib keldi.

3. Geografik o'rni.

Markaziy Osiyo Yevroosiyoning markazidagi juda katta ichki o'lkadir. Markaziy Osiyo joylashgan geografik kengliklarda Yevropadagi O'rta yer dengizi mamlakatlari - Ispaniya, Portugaliya, Italiya, Gresiya, Bolgariya, Albaniya hamda qisman Afrikadagi Marokash, Tunis kabi mamlakatlar ham xuddi shu kenliklar orasida joylashgan. Ularning hammasi tipik subtropik mamlakatlar hisoblanadi. Biroq Markaziy Osiyo ma'lum geografik omillar ta'sirida vujudga kelgan o'ziga xos kompleks tabiiy sharoiti tufayli O'rta yer dengizi subtropik mamlakatlaridan farq qiladi. Chunki Markaziy Osiyo iliq okean va dengizlardan juda uzoqda, buning ustiga

u Hind okeanidan baland to'llar bilan to'silib qolgan materik ichidagi berk havzadir. Aksincha, Markaziy Osiyo hududining shimol tomoni ochiq bo'lganidan unga Shimoliy muz okean tomonidan sovuq havo massalari bemalol kirib kela oladi. Shu sababli Markaziy Osiyoga (Turkistonga) iliq okeanlardan nam va iliq havo massalari kamdan-kam yetib keladi. Shuning uchun uning ko'p yerlari quruq cho'llardan iboratdi.

Demak, O'rta yer dengizi mamlakatlari tipik subtropik o'lkalar bo'lsa, Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalaridagina (janubiy qismlari) subtropik xususiyatlar, shakllangan va bu o'lka asosan quruq cho'l zonasiga kiradi, unda chala cho'l va to'l landshaftlari mavjud.

Markaziy Osiyo o'lkasining asosiy tabiiy-geografik xususiyatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Okeanlardan uzoqda va berk havzada joylashgan.
2. Iqlimi keskin kontinental.
3. Sharq va janub tomonlari to'llar bilan o'ralgan bo'lsa, shimoli vag'arbi ochiqdir.
4. Tekisliklarida kenglik, to'llarida balandlik mintaqalari xosdir.

Tayanch so'zlar.

“Mulki turon, millati turk”. Turkiy xalqlar. Parchalangan Turkiston. Jahon siyosiy xaritasi. Xalqlarning ytnik kelib chiqishi. Yevroosiyo qit'asi. Rossiya G'ederasiyasi. Eron va Afg'oniston Islom Respublikalari. Xitoy xalq respublikasi. Magistral yo'llar. Keskin kontinental. Iqlim. Subtropik o'lka. O'rta yer dengezi mamlakatlari. Berk havza. Iliq okeanlar. Shimoliy muz okeani.

2-MAVZU. MARKAZIY OSIYO HUDUDINING GEOGRAFIK TUZILISHI, REL`YEFI VA FOYDALI QAZILMALARI

REJA:

1. Geologik tuzilishi.
2. Markaziy Osiyo hududining rel'yefi.
3. Foydali qazilmalari.

1. Geologik tuzilishi.

Tog` jinslari qatlamlaridan topiladigan qadimgi hayvon va o'simliklarning qoldiqlarini o'rganish Yer taraqqiyotining geologik bosqichlarini aniqlashga imkon beradi. Ana shunday uzoq davom etgan bosqichlar eralar deyiladi. Yer po'sti taraqqiyotidagi geologik davr besh eraga: Arxey, Proterozoy (eng qadimgi hayot), Paleozoy (qadimgi hayot), Mezozoy (o'rta hayot), kaynozey (yangi hayot) eralariga bo'linadi. Bu eralarning har biri o'n va yuzlarcha million yil davom etgan. Eralar o'z navbatida davrlarga bo'linadi. Har bir davr bir necha o'n million yil davom etgan. Inson paydo bo'lgan eng oxirgi - antropogen davri 2 million yilni o'z ichiga oladi. Paleozoy, Mezozoy, kaynozoy eralarida 12 ta davr mavjud.

Tog` jinslarining mutlaq yoshi uranning parchalanishiga qarab aniqlanadi. 100 gr. uran 74 mln. yil davomida parchalanib 1 gr. qo'rloshinni hosil qilar ekan. Shu usulga asoslanib Tog` jinslarining yoshi 3,5-4 mlrd. yil ekanligi isbotlangan.

Markaziy Osiyo hududidagi tekisliklar, qirlar, Tog`lar birdaniga hozirgi ko`rinishiga ega bo`lmagan. Markaziy Osiyoning juda katta qismi Paleozoy erasidan to kaynazoygacha (neogen davri) iliq Tetis dengizi bilan qoplangan. Okean suvi goh quruqlikka bostirib kelgan, goh chekinib turgan. Hozirgi Oloy, Pomir, Kopetdolg` Tog`larining o`rni uzoq vaqt dengiz ostida bo`lgan.

Tetis dengizi O`rta Yer dengizi va Shimoliy muz okeani bilan tutashib turgan. Mezozoy erasida dengiz biroz chekinib, Pomir, Kopetdog`, Mang`ishloq va Qizilqumning ichki qismlarida orollar paydo bo`lgan. Turon pasttekisligi Gertsen tektonik zonasida yotgan plitadir. U Mezozoy-kaynazoy yotqiziqlari bilan qoplangan.

Turkiston shimolidagi Qozog`iston past tog`larining g`arbiy qismi Kaledon, sharqiy qismi esa Gertsen burmash strukturalariga ega bo`lgan va juda peneplenlashgan o`lkadir.

Paleozoy boshida ro`y bergan kaledon burmalanishida Talas Olatovi, Qorator, Chotqol, Piskom, Ugom, Qirg`iziston, Suvsamir, Kungay olatovi, Orqaiee, Iee, Markaziy Tyanshan tizmalari ko`tarilgan. Paleozoy erasining ikkinchi yarmida, ya`ni yuqori Paleozoyda Gertsen burmalanishi davrida Farg`ona, Oloy, Turkiston, Zarafshon, Hisor tizmalari ko`tarilgan. Qizilqumdagi Nurota, Bo`kanTog`, QuljuqTog`, TomdidoI, Sulton Uvays kabi yemirilib qolgan Tog`lar Gertsen burmalanishida paydo bo`lgan. Gertsen burmalanishida shuningdek, Issiqko`l, Farg`ona, Ketmontepa, Norin, Zarafshonbotiqlari ham vujudga kelgan.

Markaziy Osiyo hududida Mezozoy burmalanishi kuchsiz bo`lib, Kaspiy dengizi bo`yidagi Tog` va qirlar, Mang`ishloq yarim orolidagi Tog`lar aynan shu burmalanish davrida paydo bo`lgan.

Mezozoy erasida Gertsen burmalanishida paydo bo`lgan Tog`lar yemirilgan, pasaygan, ularning ko`pchiligi baland tekislik, plato va tepaliklarga aylangan.

MOD hududida kaynazoy erasida (neogen davrida)g`oyat kuchli alp burmalanishi sodir bo`lgan. Alp tektonik jarayonlari tufayli Kapetdolg`, Xuroson, Hindiqush, Pomir, Tibet Tog`larining paydo bo`lishi Turkiston o`lkasining o`rnidagi dengiz havzasini janubdagi Hind okeani havzasidan ajratib qo`ysa, shimolda To`r`lay supasimon o`lkasining ko`tarilishi esa uni Shimoliy muz okeanidan ajratib qo`ydi.

Markaziy Osiyoning barcha Tog` burmalari hozirgi qiyofalariga alp burmalanishida ega bo`lgan. To`rtlamchi davrda Tog` hosil bo`lish jarayoni davom etgan, muz bosishlar bo`lib turgan. Tog`larda to`plangan ana shu muz va qorlardan juda ko`p daryolar hosil bo`lgan. Sirdaryo, Amudaryo, Chu, Iee, Sarisuv, Talas, Zarafshon, Murg`ob, Tajan daryolari shu davrda vujudga kelgan va to`rtlamchi davr allyuvial yotqiziqlarini olib kelib yotqizgan. Daryolar olib kelgan yotqiziqlar va shamol faoliyati tufayli Qoraqum, Qizilqum, Mo`yinqum kabi ko`plab qumlar paydo bo`lgan.

Turkiston hududi rel`yefi shakillanishi hozir ham davom etmoqda, chunki Amudaryo, Sirdaryo va boshqa o`nlab daryolar o`z havzalarini cho`kindi jinslar bilan to`ldirishda davom etmoqda. Turkiston hududi rel`yefining hozirgi qiyofasi asosan neogen va to`rtlamchi davrda vujudga kelgan.

Markaziy Osiyoda tez-tez zilzila bo`lib turishi bu o`lkada Tog` paydo bo`lish va o`sish jarayonlari hozir ham davom etayotganligini bildiradi. Masalan, kuchli zilzilalar: 1716 yilda Oqsuvda (Chu vodiysida), 1803 yilda Urgutda, 1822 y. Samarqandda, 1902 y. Andijonda, 1911 y. Sarezda (Pomir), 1946 y. Chotqolda, 1948

y. 6 oktabrda Ashgabad, 1911 y. Olma-Ota yaqinida, 1966 y. 26 aprelda Toshkentda, 1992 y. Garmda va h.k.

2. Markaziy Osiyo hududining rel'yefi.

Markaziy Osiyo relyefida tekislik va pasttekisliklar, qiralar va platolar, adirlar va baland Tog'lar mavjud. Markaziy Osiyo hududining markaziy va janubiy qismini Turon pasttekisligi shimoliy-janubiy qismini Ustyurt platosi, chekka shimoliy qismlarini qir va platolar, janubiy va sharqiy qismlarini esa Tog'lar egallagan. Markaziy Osiyo hududining 2/3 qismini tekislik va pasttekisliklar, 1/3 qismini esa Tog'lar ishgol etgan. Markaziy Osiyoda quyidagi yirik tekislik va pasttekisliklar mavjud: Kaspiy bo'yining sohili (pasttekisligi), Qoraqum, Qizilqum, Mo'yinqum, Farg'ona, Zarafshon, Surxon-Sherobod, Qashqadaryo, Murg'ob, Tajan vodiylari, Ustyurt, Orqaunguz va Betpaqdala platosi. Markaziy Osiyodagi eng past nuqta (dengiz sathidan 132 metr past) Mang'ishloq yarim orolidagi Qorag'iy (Botir) botigidir. Tekisliklarda o'rtacha balandlik dengiz sathidan 55 metrdan 350 metrgacha boradi.

Markaziy Osiyoning janubiy, janubiy-sharqiy va sharqiy qismlarini Tog' oldi qiyaliklari va adirlar egallagan bo'lib, ular dengiz sathidan 400-1000 metr balandlikda joylashgan. Shimolda joylashgan Qozog'iston past Tog'lari dengiz sathidan 800-12000 metr balandlikda joylashgan.

Markaziy Osiyoning sharqiy va janubiy qismlarini Tyan-Shan, Oloy, Pomir, Oltoy, Kopetdagi Tog' tizimlari (sistemalari) egallagan. Tyan-Shan Tog' tizimi Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston, Oloy va Pomir Tog' tizimlari Tojikiston, Qirg'iziston va O'zbekiston, Kopetdagi Tog' tizimi esa Turkmaniston va Eron davlatlari hududida joylashgan.

Tyan-Shan Tog' tizimi tarkibiga Farg'ona, Ko'kshagaltov, Markaziy Tyan-Shan, Qirg'iziston, Talas, Chotqol, Piskom, Ugom, Qurama, Ketmon, Kungay olatovi, Jungoriya, Orqaili, va boshqa ko'pgina Tog' tizimlari kiradi. Tyan-Shanning eng baland cho'qqilari galaba (7439 m) va Xontangri (6995 m)dir. Tyan-Shanda sirtlar ko'p. Sirtlar Tog' oraligidagi baland tekis yerlar, platolar yoki baland va keng yassi Tog'liklardir. Tyan-Shanda bir qancha vodiylar ham bor, bularga Chu, Talas, Ugom, Piskom, Ko'ksuv, Chotqol, Chirchiq, Ohangaron kabi vodiylarni misol qilish mumkin. Vodiy va Tog' oralig'ida botiqlarida aholi zich yashaydi, shahar va qishloqlar ko'p. Tyan-Shan Tog'lari Paleozoyda hosil bo'lgan.

Markaziy Osiyoning ikkinchi Tog' tizimi Oloy Tog' tizimlaridir. Bu Tog' tizimiga Oloy, Turkiston, Zarafshon, Hisor, Morguzar, Nurota, Boysun, Ko'hitang Tog'lari tegishli. Oloy tizimidagi Tog'lar Gertsen burmalanishida paydo bo'lgan va xuddi Tyan-Shan kabi Alp burmalanishida qayta ko'tarilgan. Shuningdek, Oloy Tog' tizimiga Qizilqumdagi past qoldiq Tog'lar Quljuq Tog', Ovminza Tog', Bo'kan Tog', Sulton-Uvays, Tomdi Tog' va boshqalar kiradi.

Pomir Tog' tizimi Markaziy Osiyodagi eng murakkab Tog' tizimlaridandir. Bu Tog' tizimiga Oloy orti, Pyotr-1, Darvoz, Vanch, Yazilom, Shu'lon, Shohdara, Shimoliy Alichur, Janubiy Alichur, Muzko'l, Qorategin, Bobo Tog', Zulmat, Sariko'l, fanlar Akademiyasi kabi Tog' burmalari kiradi. Pomirning eng baland cho'qqisi - 7495 m. Pomir Markaziy Osiyoda eng baland Tog' tuguni hisoblanadi va

baland Tog'lardan iborat bo'lgani uchun uni "Dunyoning tomi" ham deydilar. Pomir Alp Tog' burmalanishida hosil bo'lgan eng yosh Tog' tizimlaridan hisoblanadi. Bu yerda kuchli zilzilalar bo'lib turadi, sababi hali ham Tog' hosil bo'lish jarayoni davom etmoqda.

Markaziy Osiyoning janubi-garbida Turkmaniston va Eron davlatlari o'rtasida Turkman-Xuroson Tog' tizimi joylashgan. Uning asosiy qismi Eronda bo'lib, faqat Kopetdol tizmasi Markaziy Osiyo o'lkasida joylashgan. Kopetdogning o'rtacha balandligi 1000-2000 m.bo'lib, eng baland nuqtasi Rizo cho'qqisi (2942m.) Kopetdogda nurash va eroziya jarayonlari natijasida paydo bo'lgan rel'yef shakllari ko'p uchraydi. Turkman-Xuroson Tog' tizimida asosan Kopetdol, Nishopur, Bandi-Turkiston, Safedko'h va Paropamiz Tog'lari mavjud.

3. Foydali qazilmalari.

Umuman olganda foydali qazilmalarni kelib chiqishiga ko'ra 3 ta guruhga bo'linadi: magmatik; matamorfik; cho'kindi. Magmatik foydali qazilmalar bevosita magma faoliyati tufayli paydo bo'lib, asosan vulqon oblastlarida ko'p uchraydi. Bu guruhga rudali va shunga o'xshash foydali qazilmalar mansub.

Matamorfik foydali qazilmalarda kuchli bosim va harorat ta'sirida Yer qobilining turli xil chuqurliklarida Tog' jinslarining fizik va kimyoviy tarkibi murakkab o'zgarishga uchraydi va rudali, noruda metomorfik qazilmalar paydo bo'ladi. M: temir kvarsitlar, slaneslar, marmar va hokazolar.

Cho'kindi foydali qazilmalar Yer po'stining ustki qismida dengiz, ko'l, botqoqliklarni cho'kindi jinslar qoplashi tufayli vujudga keladi. Bu guruhga noruda foydali qazilmalar (neft, gaz, ko'mir, slanes, torf) kiradi.

Markaziy Osiyo hududi foydali qazilmalarga juda boy. Ular asosan rudali va noruda konlardan iborat.

Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar u yoki bu turdagi foydali qazilmalarga boy. Xususan,Qozog'istonda Mendeleyev davriy tizimidagi elementlarning barcha turi uchraydi.Qozog'iston qora rangli metallarga boy.Qozog'iston past Tog'larida oltin, mis, polimetall ruda konlariningg'oyat katta zahirolari aniqlangan. Toshko'mirning yirik konlariQaraganda, Ekibastuz va Ubagan ko'mir havzalarida mavjud.

Neftning yirik konlari ħarbiyQozog'istondagi Tengiz konida (Emba rayoni). Mang'ishloq yarim orolida nihoyatda ko'p. Ayniqsa, Tengiz neft havzasining zahirolari bir necha milliard tonna deb baholanmoqda. Bu jahondagi eng yirik neftga boy rayonlardan biri hisoblanadi. Gazning Mang'ishloq yarim orolida kattagina zahirolari mavjud. SharqiyQozog'iston ayniqsa rangli va nodir metallarga boy. Yirik temir ruda konlariQozog'istonda ochilgan va ishga tushirilgan. Ulardan eng yirigi To'rlay supasimon o'lkasida joylashgan Sokolov-Sarbay konidir. (Qozoq magnitkasi). O'zbekiston va Qirg'izistonda ham temir ruda konlari bor, ammo ular hali ishga tushirilganicha yo'q.

O'zbekistonning Farg'ona vodiysida neft, tabiiy gaz, oltingugurt, har xil tuzlar juda ko'p. Surxondaryo vodiysida ham talaygina neft konlari mavjud. (Tolli, Lalmikor, Kakaydi va boshqalar).

Gazning yirik konlari O'zbekistonningQashqadaryo, Buxoro viloyatlari hududida, shuningdek Turkmanistonda, Ustyurtda aniqlangan. Ayniqsa, Gazachakdan, Turkmanistonning Amudaryo sohili qismlaridan yirik gaz konlari

topilgan. Qoraqum markazidagi Gugurtdosh, Sho'rsuv oltingugurt konlari bilan mashhur. Markaziy Osiyo bitmas-tuganmas tuz konlariga boy, bu yerda faqat osh tuzining 300 dan ortiq konlari mavjud. Bu konlar Turon pasttekisligidagi sayoz ko'llarda, Orol ko'li, Kaspiy dengizi sohillarida, Turkmanboshi (Krasnovodsk), Farg'ona, Balxash ko'li rayonlarida ayniqsa ko'p joylashgan.

Qorabo'gozgulda glauber (mirabilit) tuzining juda katta zahiralarini to'plagan. Cheleken yarim orolida tuz bilan birga ozokert ham qazib chiqariladi. Mang'ishloq yarim orolida Qoratovda, Amudaryoning quyi qismida Qoraqalpogiston hududida fosforit konlari bor.

Qizilqum hududi va Surxondaryoda ham fosforit konlari topilgan. Markaziy Osiyo hududi binokorlik xom-ashyolariga ham boy. Bu yerda ohaktosh, granit, mergel, marmar, dolomit, gips, bo'r, asbest, kaolin, kvarts, shafal, qum va boshqalarning yirik konlari mavjud. Ular Markaziy Osiyodagi barcha davlatlarda uchraydi.

Gazgon, Bo'stonliq, Omonqo'ton, Dushanbe rayonlarida va Qirg'izistonda chiqadigan marmar o'zining nafisligi bilan ajralib turadi.

Markaziy Osiyo shifobaxsh mineral suvlarga ham boy. Tojikistondagi Obigarm, Qirg'izistondagi Oqsuv, Arashon, Jalolobod, O'zbekistondagi Toshkent, Chortoq, Farg'ona, Uchqizil mineral suvlari va issiq buloqlari shular jumlasidandir. Bular turli kasalliklarni davolashda, kurort xo'jaligini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Tayanch so'zlar.

Geologik eralar. Tog' jinslarining yoshi. Arxey, Proterozoy, Paleozoy, Mezozoy, Kaynazoy. Tetis dengizi. Plita. Geosinklinal. Gertsen burmalanishi. Kimmeriy burmalanishi. Alp burmalanishi. Kuchli zilzilalar. Tekislik va pasttekisliklar. Qirlar va platilar. Adirlar va baland Tog'lar. Tyan-Shan. Oloy. Pomir. Tyan-Shandagi sirtlar. Eng baland cho'qqilar va eng past botiqlar. Turkman-Xuroson Tog' tizimi. Magmatik, metamorfik va cho'kindi Tog' jinslari. Neft va tabiiy gaz. Ko'mir. Temir ruda konlari. Rangli va nodir metallar. Mineral tuzlar. Shifobaxsh minarel suvlar. Qurilish materiallari.

3-MAVZU. MARKAZIY OSIYO HUDUDINING IQLIMI VA ICHKI SUVLARI

REJA:

1. Markaziy Osiyo hududining iqlimi.
2. Markaziy Osiyo hududining ichki suvlari.

1. Markaziy Osiyo hududining iqlimi.

Markaziy Osiyo Yevroosiyo materigining markazida, okeanlardan ancha uzoqda joylashgan o'lka. Markaziy Osiyo hududi to'liq mo'tadil va subtropik mintaqalarga to'liq keladi. Uning geografik o'rni o'ziga xos iqlimning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Quyidagilar Turkiston iqlimini hosil qiluvchi omillar hisoblanadi: geografik o'rni, atmosfera tsirkulyasiyasi, rel'yefida tekislik va Tog'li o'lkalarni ham mavjudligi.

Markaziy Osiyo iqlimga Arktika havo massalari va tropik havo massalari ta'sir etadi.

Yuqoridagi omillar ta'sirida Turkiston o'lkasida kontinental va quruq iqlim vujudga kelgan. Bu iqlimga quyosh nurlarining ko'pligi, havoning quruqligi xos. Iqlimning kontinentalligi sutkalik va yillik haroratlar o'rtasida katta farq bo'lishiga sabab bo'ladi.

Markaziy Osiyoning shimoli va g'arbida tabiiy to'siqlarning yo'qligi shimoldan, shimoli-jarbdan va g'arbdan keladigan havo massalarining bemalol kirib kelishiga imkon yaratadi. Markaziy Osiyoga qish faslida shimoli-sharqdan Sibir (Osiyo) antisikloni bilan sovuq havo va Shimoliy muz okeanidan Arktika havo massalari kirib keladi. Bu havo massalari Markaziy Osiyoning janubiy qismlarigacha yetib boradi va u yerlarda qattiq sovuqlarning bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yozda cho'llarda havo nihoyatda qizib, past bosim vujudga keladi. Markaziy Osiyoga qo'shni bo'lgan Eron va Afg'oniston cho'llarida ham xuddi shunday ahvol ro'y beradi. Bu Markaziy Osiyo tekisliklarida issiq va quruq tropik havoning, ya'ni termik depressiyaning hosil bo'lishiga olib keladi. Tropik havo quruq, chang-to'zonli va harorati yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi.

Markaziy Osiyo tekisliklari iqlimi o'z xususiyatlariga ko'ra bir-biridan birmuncha farq qiladi. Shimoliy qismlarida chalacho'l iqlimi ustun bo'lsa, qolgan qismlarida esa cho'l iqlimi ustundir.

Markaziy Osiyo cho'llari materik ichidagi berk o'lka bo'lganligi sababli keskin kontinental iqlimga ega. Bu iqlimga ham yozning juda issiq, qishningg'oyatda sovuqligi, haroratning sutkalik, yillik amplitudalari farqi juda yuqori, fasllar bo'yicha yo'lnlarning notekis taqsimlanishi, havoning quruq va ochiq bo'lishi xosdir. Markaziy Osiyo cho'llari iqlimini Yer sharidagi eng issiq joylar - Shimoliy Afrika va Mesopotamiya shimoliga qiyoslash mumkin.

Qizilqum va Qoraqumda qishda eng past harorat – 25C dan 33C gacha boradi. Qishda Amudaryo va Sirdaryoning quyi qismi muzlaydi. Janubda esa qish birmuncha iliq keladi.

Markaziy Osiyoning Tog'li o'lkalarida iqlim tekisliklaridagidan birmuncha farq qiladi, bulutli kunlarning ko'pligi, qorning uzoq yotishi, yo'lnlarning ko'pligi, haroratning past bo'lishidir. 1500-2000 metrdan baland Tog'lar Atlantika okeani va O'rta Yer dengizidan keladigan nam shamollarni to'sib, yo'lnlar yolishiga sabab bo'ladi.

Tyan-Shan Tog'larida dengiz sathidan 3500-4000 metr balandlikda yanvar oyida o'rtacha harorat 170-180, eng past harorat esa -480 gacha boradi. Pomirda, Qorako'l sohilida eng past harorat -500 gacha boradi.

Markaziy Osiyoda "fyon" (Tog'larda), tekislik va ayrim Tog' yonbalirlarida "garmsel" shamollari ko'p bo'ladi. Shuningdek, Tog'larda "Tog' vodiylar shamollari" ham mavjuddir. Bulardan tashqari mahalliy shamollar ham mavjud. Masalan, "afion" shamoli, "Bekobod" shamoli, "Qo'qon" shamoli va boshqalar.

2. Ichki suvlari.

Markaziy Osiyo daryo va ko'llarini suv bilan ta'minlab turuvchi manba Tog'lardagi muzliklar, yer osti, yomlir va qor suvlaridir.

Markaziy Osiyo Tog'larida 4000 ga yaqin muzlik bor. Ularning maydoni 17573 kv.km. muzliklar bitmas-tuganmas suv manbaidir. Markaziy Osiyoda 12

mingdan ortiq daryo va 1000 dan ziyod ko'l bor. Ular o'lka hududida notekis taqsimlangan. Shu narsa diqqatga sazovorki, Markaziy Osiyo hududining 70 foizini tashkil qilgan chalacho'l va cho'llarda hamda dashtda ko'llar juda oz. 30 foiz Tog'li qismlarida 10 mingdan ortiq daryo mavjud. Tog'lar Markaziy Osiyo hududining suv resurslarini to'playdigan asosiy manbai bo'lsa, tekisliklar uni sarflaydigan asosiy qismidir. Bu Markaziy Osiyo uchun xos bo'lgan eng muhim xususiyat. Markaziy Osiyoning barcha daryolari (Irtish va uning irmoqlaridan tashqari) berk havzaga mansubdir. Markaziy Osiyo daryolari turli manbalardan suv oladi. V.L.Shuls ularni to'yinishiga ko'ra quyidagi 4 guruhga bo'ladi:

1. *Muzlik-qor suvidan to'yinadigan daryolar.*

2. *Qor-muzlik suvidan to'yinadigan daryolar.*

3. *Qor suvidan to'yinadigan daryolar.*

4. *Qor-yomgir suvidan to'yinadigan daryolar.*

Birinchi guruhdagi daryolarga: Amudaryo, Zarafshon, Isfayramsoy, So'x, Isfara, Iee, Lepsa va boshqalar, bularning suvi yozda ko'payadi.

Ikkinchi guruhga: Norin, Chu, Sirdaryo va uning irmoqlari, Chirchiq, Qoradaryo, Talas, Surxondaryo va boshqalar, bularning suvi iyun va iyulda toshadi, dekabr va fevral oylarida suvi juda kamayadi.

Uchinchi va to'rtinchi guruh daryolariga Murg'ob, Tajan, Atrek, Qashqadaryo, yuzordaryo, Sheroboddaryo, Ohangaron, Sarisuv, To'r'lay va boshqalar kiradi.

Tog'lardagi daryolar oqimi tezligi uchun ham muzlamaydi. Tekisliklardagi quyi qismi esa 1-2 oy muzlaydi.

Markaziy Osiyo daryolari juda katta gidroenergiyaga ham ega. Daryolarga yirik suv omborlari ham qurilgan.

Ko'llari. Markaziy Osiyoda 1000 dan ortiq ko'l bor. Ular ichida eng yirigi Orol ko'lidir. Ko'lning maydoni qurimasdan oldin 65458 kv.km.edi. Hozir 38 ming kv.km. Ko'l egallagan botiq tektonik yo'l bilan hosil bo'lgan, ammo Orolning o'zi qoldiq ko'ldir. Ko'l sathiga 100 mm. yo'l tushsa, bo'lanish esa 1000 mm.ga teng. Amudaryo va Sirdaryo suvining deyarli hammasining suvorishiga sarflanishi, hamma suvdan tejab-tergab foydalanmaslik, ko'plab suv omborlarining va kanallarning qurilishi oxir-oqibatda uning qurib borishiga sabab bo'lmoqda.

Balxash ko'li dengiz sathidan 340 metr balandda joylashgan. Maydoni 17760 kv. km. Ko'lning o'rtacha chuqurligi 6 metr Balxashga; Ili, Qoratol, Oqsuv, Lepsa, Ayaguz va boshqa kichik daryolar o'z suvini quyadi, lekin bironta ham daryo oqib chiqmaydi.

Issiqko'l dengiz sathidan 1609 metr balandda joylashgan tektonik ko'l, maydoni 6200 kv. km, eng chuqur joyi 702 metr. Ko'l atrofini Kungay, Terskay Olatovlari o'rab turadi.

Issiqko'lga 80 dan ortiq daryo va soylar quyiladi, lekin bironta ham daryo oqib chiqmaydi. Issiqo'l suvi sho'r bo'lib ichishga yaramaydi. Baliqchilik mahalliy ahamiyatga ega.

Sarez ko'li 1911 yid fevralda Pomirning Usoy degan joyida Murg'ob daryosi vodiysiga Tog'ning qulashi natijasida vujudga kelgan. Hozir uning uzunligi 100 km.ga yaqin, eni 55 km., chuqurligi 500-600 m. Ko'l dengiz sathidan 3200 metr balandda joylashgan.

Hisor Tog' tizmalarining shimoliy yonbagrida morena to'sishdan hosil bo'lgan, go'zal tabiatli Iskandarko'l mavjud. Uning maydoni 4 kv.km., chuqurligi 76 metr.

Markaziy Tyan-Shan g'arbida Sonko'l joylashgan, maydoni 250 kv.km.

Markaziy Osiyo Tog'lari va hududning shimoliy qismlarida ko'llar nihoyatda ko'pdir.

Suv omborlari. O'simliklarni issiq, namga eng chanqoq davrdarida suv bilan muntazam ta'minlash maqsadida Markaziy Osiyoning bir qancha daryolarida sun'iy ko'llar - suv omborlari bunyod etilgan. Bu asosiy suv omborlari quyidagilar: Ili daryosida -Qopchi'lay, Norin daryosida - To'otaaul, Chirchiq daryosida - Chorvoq, Ohangaron daryosida - Toshkent,Qi'adaryoda - Andijon, Sirdaryoda - Qayroqqum,Chordara, Zarafshon daryosida - Kattaqo'rlon vaQo'yimozor,Qashqadaryoda - Chimqo'rlon,Qarshi kanalida - Talimarjon, Surxondaryoda - Janubiy Surxin, To'polang daryosida - To'polang, Amudaryoda - To'yamo'yin, Vaxshda - Norak,Qoraqum kanalida -Havuzxon suv omborlari qurilgan. Suv omborlari ichida eng yiriklari:Qopchi'lay, To'xtalul, Tuyamo'yin, Chordara,Qayraqum, Chorvoq va boshqalar.

Bu suv omborlari faqatgina yerlarni su'lorish uchungina ishlatilmasdan, ulardan GESlar qurish, daryo suv oqimini tartibga solish, rekreaksiya maqsadlarida ham foydalaniladi.

Yer osti suvlari. Markaziy Osiyo hududi juda katta yer osti suv boyliklariga ham ega. Iqlimning juda quruq bo'lganligi sababli oqar suvlar bilan bir qatorda yer osti suvlaridan ham aholini ichimlik suvi bilan ta'minlashda, ekinlarni su'lorishda, chorva mollarini su'lorishda keng ko'lamda foydalaniladi.

Markaziy Osiyo hududi tabiiy-geografik va geologik xususiyatiga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladigan 2 ta gidrogeologik kichik o'lka—janubi-sharqiy va sharqiy burmali Tog'lar va tekisliklardagi platformali artezian suvlari kichik o'lkalari mavjud.

Tayanch so'zlar.

Mo'tadil va subtropik iqlim mintaqalari. Keskin kontinental. Arktika havo massalari. Cho'l va chalacho'l. Absolyut maksimum va absolyut minimum. Yo'lin-sochin miqdori. Issiqlik. Mahalliy shamollar. Daryolarning to'yinishi va to'yinishiga qarab bo'linishi. Ko'llar. Asosiy ko'llar. Suv omborlari. Eng yirik suv omborlari. Yer osti suvlari. Gidrogeologik jihatdan bo'linishi.

4-MAVZU. MARKAZIY OSIYO HUDUDINING TUPROQLARI, O'SIMLIK VA HAYVONOT DUNYOSI

REJA:

1. Markaziy Osiyo tuproqlari.
2. Markaziy Osiyo o'simliklari.
3. Markaziy Osiyo o'lkasining hayvonot dunyosi.

1. Markaziy Osiyo tuproqlari.

Tuproq juda murakkab tabiiy hosiladir. Bu geografik komponentning hosil bo'lishi Tog' jinslari yuzasining yemirilishidan boshlanadi.Harorat, namlik va tirik

organizmlar ta'sirida yemirilgan Tog` jinslarida o'simlik paydo bo'ladi. O'simliklar nobud bo'lar ekan, tuproqda organik modda qoldiradi. Tuproq hosil bo'lishida iqlimning roli, rel'yefning roli, mikroorganizmlarning roli, o'simliklarning roli, hayvonlarning roli, inson faoliyatining roli va shuningdek o'lka yoshi ham muhim ahamiyatga ega.

Tuproqlar mexanik tarkibiga ko'ra gilli tuproqlar, loyqa tuproqlar, qumoq va qumloq tuproqlarga bo'linadi.

Strukturaga ega bo'lgan tuproq strukturali tuproq deb ataladi. Strukturali tuproq unumdor bo'ladi.

Changsimon tuproq strukturasiz tuproq hisoblanadi va kam unumdor bo'ladi.

Markaziy Osiyo tabiati va rel'yefining xilma-xilligi, o'simlik va hayvonot dunyosining rang-barangligi bu o'lkada xilma-xil tuproqlarning hosil bo'lishiga sabab bo'lgan.

Markaziy Osiyoning tekislik qismida tuproqlar kenglik bo'ylab zona-zona bo'lib joylashgan. Chala cho'l va cho'llarning asosiy zonal tuproqlariga kashtan, qo'nir, nur, qo'nir, taqir, qumli, bo'z, sho'rlangan tuproqlar kiradi. Chala cho'l va cho'l zonasi tuproqlarida chirindi oz.

Markaziy Osiyoning sharqiy va janubiy Tog'li qismida balandlik mintaqalari mavjudligi tufayli tuproq hosil qiluvchi omillar mutlaqo boshqacha. Markaziy Osiyoning Tog'li qismida quyidagi balandlik tuproq mintaqalari ajratiladi:

1. Bo'z tuproq mintaqasi (Tog` oldi qiyaliklari va Tog` etagidagi tekisliklar);
2. Jigarrang va qo'nir o'rmon tuproqlar mintaqasi (o'rtacha balandlikdagi Tog'lar);
3. Qora va och tusli qo'nir tuproqlar mintaqasi (baland Tog` o'rmon-o'tloq dashtlar);
4. Tog`-o'tloq tuproqlar mintaqasi (subali va alp o'tloqlar).

Rel'yef, iqlim, gidrogeologik va shu kabi faktorlarning o'zgarishi bilan zonal tuproqlar orasida azonal tuproqlar - o'tloq, allyuvial-o'tloq, o'tloq-botqoq, botqoq, sho'rxok va turli darajada sho'rlangan kashtan va bo'z tuproqlar ham uchraydi.

Markaziy Osiyoning (Qozog'istonning) shimoliy qismi dasht zonasiga to'liq keladi va bu yerlarda qora tuproqlar tarqalgan. Janubroqda, ya'ni Qozog'iston past Tog'larining markaziy qismlari, Muhojar Tog'lari chalacho'l zonasida joylashgan shu sababli bu yerlarda, och tusli kashtan va qo'nir tuproq ko'p uchraydi.

Chalacho'l zonasining janubida qo'nir tuproqlar uchraydi, chalacho'l zonasining daryo bo'ylarida, sizot suvlari yaqin bo'lgan joylarda o'tloq, o'tloq-botqoq, botqoq-allyuvial, sho'rxok tuproqlar uchraydi. Turkiston shimolidagi cho'llarda Katta Bo'rsiq, Kichik Bo'rsiq qumlari, Orol bo'yi Qoraqumi, Mo'yinqum, Balxash bo'yi qumli cho'llarida ishqori ko'proq bo'lgan och tusli qo'nir tuproqlar tarqalgan.

Joraqum, Orqaungiz Qoraqumi, Qizilqum, Qarshi, Karnob cho'llari, Kaspiy bo'yi sohili cho'llari janubiy cho'llar tipiga mansub va shu tufayli sur-qo'nir, qum-taqir, o'tloq-botqoq tipli tuproqlardan, sho'rxoklardan iborat.

Jumli cho'llarda tuproq hosil bo'lish jarayoni juda sust davom etadi, shu sababli uchib yurmaydigan qumlarda cho'l-qum tuproqlari hosil bo'lgan.

Jadimgi allyuvial tekisliklarda taqirlar va taqir tipli tuproqlar paydo bo'lgan. Taqir tipli tuproqlar daryo vodiylarining qadimgi terrasalarida, Tog` etaklaridagi qiya tekisliklarda ham uchraydi.

Turkiston Tog` etaklaridagi eng quyi mintaqada bo'z tuproqlar keng tarqalgan. Bu mintaqacha och tusli, to'q tusli bo'z tuproqlar bilan boshlanib yuqoriga ko'tarilgan sari ularning turlari o'zgarib boradi. Bo'z tuproqlarni atroflicha o'rganishda mashhur rus geografi I.P.Gerasimovning xizmatlari katta. Bo'z tuproqli yerlar 300-500 metrdan 1200-1400 m. balandlikkacha uchraydi.

2. Markaziy Osiyo o'simliklari.

Markaziy Osiyo rel'yefi va iqlimining xilma-xilligi bu o'lkada o'simliklar olamining rang-barang bo'lishiga sabab bo'lgan. Bu o'lkada Kavkaz, Eron, Sibir, O'rta Yer dengizi bo'ylariga xos bo'lgan o'simlik va hayvonlar uchraydi.

Markaziy Osiyoda 9000 dan ortiq o'simlik turi uchraydi. Mavjud o'simliklarning atigi 10 foizi chalacho'l va cho'l zonasida, qolgan 90 foizi esa Tog'li rayonlarda tarqalgan. Markaziy Osiyo o'simliklarini tarqalish xususiyatiga ko'ra 4 ta geografik o'lkaga: dasht; chalacho'l; cho'l; Tog'lar o'lkasiga ajratish mumkin.

Dashtda qalin har xil o'tlar o'suvchi o'tloqlar mavjud bo'lsa, chalacho'lida dasht va cho'lga xos o'simliklar o'sadi. Dashtda asosan boshqoqli o't o'simliklari, bir yillik va ko'p yillik efemer o'tlar keng tarqalgan. Daryo vodiylari va pastqam yerlarda past bo'yli daraxtlarni uchratish mumkin. Chalacho'l shimolida boshqoqli o'simliklar, janubida esashuvoq va sho'ra ko'plab o'sadi. Chalacho'lida o'simliklar siyrak bo'lib, ularning bo'yi past, barglari tikanli, ildizlari chuqur ketgan. Chalacho'l shimolining asosiy o'simliklari betaga, qiltanoq, chalov, oq shuvoq, qora shuvoq, izon (supurgi) va boshqalardan iborat. Bahorda ko'plab efemer va efemeroidlar; lola, chuchmoma, gulsafar, ravoch, ayiqtovon va boshqalar.

Chalacho'lning pastqam suvli joylarida tol, Tog'terak, zarang, qayin, qaralay kabi daraxtlar o'sadi. Chalacho'l shimolidagi Tog'lar yonbalirlarida qayin, Tog'terak, qaralay daraxtlari ko'plab o'sadi. Chalacho'l zonasi eng avvalo yaylov sifatida keng foydalaniladi, vohalarida obikor dehqonchilik yaxshi rivojlangan.

Markaziy Osiyo cho'llari ham shimoliy va janubiy deb ataluvchi tabiiy komplekslarga bo'linadi. Shim cho'llarda yo'l-in-sochin fasllar bo'yicha ancha teng taqsimlangan. Janubiy cho'llarda esa yo'llarning asosiy qismi bahor va qish fasllarida tushadi va iqlimi, o'simlik, hayvonot dunyosining rivojlanishi va tarkibi jihatidan Old Osiyo va Shimoliy Afrika cho'llariga o'xshab ketadi. Shimoliy cho'llar o'simlik olamining 30-40% ini shuvoq tashkil etadi, qumli joylarda esa akasiyaning alohida turi- quyonsuyak, buldoyiq, chalov, shuvoq, qizilcha, qiyog keng tarqalgan. Janubiy qumli cho'llarda (Joraqum, Qizilqum) asosan qurloqchilikka chidamli, ildizlari uzun, barglari mayda o'simliklar ko'p o'sadi. Bularga: juz'lun, yantoq, quyonsuyak, qizilcha, astragul, qandim kabilar kiradi.

Cho'llar orasida, qadimgi va hozirgi allyuvial tekisliklarda vodiy o'tloqlari, to'qaylar, butazor, ko'kalamzor vohalar mavjud. Botqoqli qayirlarda qamishzorlar tarkib topgan.

Markaziy Osiyo Tog'li o'lkalarini o'z navbatida bir qancha tabiiy komplekslarga ajratish mumkin:

1. Tog'-cho'l tabiiy kompleks; dengiz sathidan 300-500 m. baland bo'lgan Tog' etaklaridagi adirlarni, daryo terrasalarini egallaydi. Bu yerlarning eng asosiy

o'simliklari qorabosh, qo'nirbosh, chuchmoma, lola, ayiqtovon, lolaqizlaldoq va boshqalardir.

2. Tog'-chalacho'l tabiiy kompleksi; 500-15000 m. balandlikkacha. Bu mintaqada efemerlardan buldoyiq ko'p o'sadi. Cho'l tipidagi o'tlar anchagina. Erta bahorda qo'nirbosh, gulsafsar, lola, yozda esa efemerlar qurib, qovjirab qoladi. O'simliklar Kopetdoli, Turkiston, Zarafshon, Hisor, Talas tizmasida birmuncha ko'p uchraydi.

3. Tog'-quruq dasht kompleksi; 1200-1500 m.dan 2200-3000 m.gacha balandda bo'lgan joylarni egallaydi. Bunga Kopetdolidan Torboitoygacha bo'lgan bo'lgan barcha Tog'lardagi tabiiy komplekslar kiradi. Bu mintaqada boshqolilar juda ko'p. Chalov va betaga yer yuzasini sidirlasiga qoplab olgan. Bahorda qo'nirbosh, lola, boychechak ko'plab uchraydi. Kopetdolidan to Issiqko'lningg'arbiga qadar bo'lgan yerlarda yovvoyi pistazor va bodomzorlar mavjud.

4. Tog' o'rmon-o'tloq dasht kompleksi. 1200-1500 metdan 3000-3500 m.gacha. Bu zonada yolingarchilik juda ko'p bo'ladi. Bu mintaqada joyning dengiz sathidan mutlaq balandligiga qarab quyoshga nisbatan joylashgan o'rniga qarab, yonbalirlarning tik yoki yotiqligiga qarab har xil o'simlik turlari vujudga kelgan.

O'tlardan: astragul, kavrak, arpalon, buldoyiq, bo'yi 1-2 metr bo'lgan butalar ko'p. Bargli o'rmonlar 1400-1500 m.dan 2000 m.gacha bo'lgan yerlarda zarang, olma, yonloq, archa, namatak ko'p o'sadi. Turkiston Tog'larining 3000 m.gacha bo'lgan qismida archa keng tarqalgan.

5. Subalp tipidagi o'tloqlar kompleksi. Bu mintaqaga Tog'larning geografik yo'nalishi, yolin miqdori va boshqa xususiyatlariga qarab har xil joylashgan. M.: Orqa Iee Olatovida 1500-1600 m.dan, Farg'ona tizmasida 2500-2700 m.dan, Oloy vodiysidagi Tog'larda esa 3100-3200 m.dan boshlanadi. Mintaqaning asosiy o'simlik dunyosi o'tloqlar, yel-pixta o'rmonlari, archazorlardan iborat. Subalp o'tloqlari yaylov sifatida katta ahamiyatga ega bo'lib, bu yerda asosan betaga, kavrak, qo'nirbosh, mushukquyruq, yorongul kabi o'ziga xos o'simliklar uchraydi. Subalp mintaqasining janubida archaning bir qancha turi mavjud. Archaning asl vatani Turkiston Tog'laridir, u 800-3000 metr balandlikkacha o'sadi.

6. Alp tipidagi kompleks. Bu mintaqaga 3000-35000 m.dan qorli Tog' tepalarigacha, ba'zan doimiy qor chegarasidan ham yuqori joylar kiradi. Namgarchilik ko'p yerlar alp tipidagi o'tloqlar, yolin oz yerlar esa Tog' dashtlari bilan qoplangan. Alp o'tloqlari o'simliklari subalp o'tloqlaridan bo'yining balandligi bilan ajralib turadi. Mintaqada har xil o'tlar, edelveys guli, turli rangdagi gullar - sariq ayiqtovon, ko'kgul, pushti qo'qongul, sarlish yovvoyi ko'knor ko'p uchraydi. Gulli o'simliklar Zarafshon tizmasida 3800 m.gacha jarbiy Pomirda esa 4500 m.gacha balandlikda uchraydi. Mintaqada butalar ham anchagina.

3. Markaziy Osiyo o'lkasining hayvonot dunyosi.

Markaziy Osiyo hayvonot dunyosi boy va rang-barang bo'lib, ular asosan dasht, chalacho'l va cho'l sharoitiga moslashgan. O'lka hayvonot dunyosining aksariyati quruq va issiq yozga, sovuq qishga, suvsizlikka bardosh bera oladi. Bu o'lkada hayvonot dunyosining Eron, O'rta Yer dengizi, O'rta Osiyoga xos bo'lgan vakillari bor.

Dasht hayvonlari. Dashtda asosan chalacho'l va mo'tadil iqlimga moslashgan hayvonlar tarqalgan. Har xil qushlar, kemiruvchilar, tuyoqli hayvonlar keng

tarqalgan. Qushlardan: to'rlay, oq kaklik, qutb boyqushi va boshqalar; kemiruvchilardan: har xil sichqonlar, kalamush, yumronqoziq va boshqalar; tuyoqlilardan: oqquyruq, jayron, tulki, tarpan (yovvoyi ot), qulon (yovvoyi eshak) va boshqalar; sudralib yuruvchilardan: ilonlarning bir qancha turlari mavjud.

Chalacho'l hayvonlari. Bu zonada yozning issiqligi va quruqligi hamda qishning juda sovuqligi hayvonlarni turli sharoitda yashashga moslashtirgan. Ko'pchilik hayvonlar qishda uyquga ketsa (qo'shoyoq), ba'zlari yoz va kuzda yiqqan ozuqalarini qish paytida inlarida iste'mol qiladilar (sichqon, kalamushlar).

Chalacho'lning asosiy hayvonlari bo'ri, tulki, sassiqko'zan, oq sichqon, yumronqoziq, qo'shoyoq, oqquyruq va hokazolar. Chalacho'lda eng ko'p uchraydigan hayvon yumronqoziqdir. Kemiruvchilardan har xil sichqonlar, kalamush, qo'shoyoq ko'p.

Orolbo'yi, Ustyurt, To'rlay, Balxash bo'yi qumlarida tuyoqlilardan oqqo'yruq, jayron ko'p uchraydi.

Parrandalardan oq va qora to'rlay, turnalar, bulduruqlar, tuvaloq, boyqush, lochin, burgut va boshqalar.

Sudralib yuruvchilardan toshbaqa va kaltakesaklar, har xil ilonlar ko'p. Zaharli chayon, tarantul (biy), faoanga, qoraqurtlar bor.

Cho'l hayvonlari. Cho'l hayvonlari nihoyatda xilma-xil; yuqori harorat, qumli, gilli, toshloq, sho'rhok sharoitlarda yashashga moslashgan. Cho'lning asosiy hayvonlariga yumronqoziqlar, qum sichqonlari, qo'shoyoqlar, tulki, chiyabo'ri, barxan mushugi va boshqalar.

Jushlardan to'rlay, xo'jasavdogar, yilqichi, tentakqush, so'fito'rlay, saksovul chumchuLi ko'p.

Cho'lda toshbaqa va kaltakesaklar juda ko'p. Bu yerda shuningdek Turkiston agamasi yashaydi. U jazirama issiqda saksovul ustiga chiqib jon sayqlaydi. Qumli cho'lda har xil zaharli ilonlar ham ko'p. (qum bulma iloni, charxilon (efa), kobra va boshqalar).

Yirtqichlardan bo'rsiq, bo'ri, yirtqich qushlardan tasqara, burgutlar mavjud.

Tog'li o'lkalar hayvonlari. Chalacho'llardagi Tog'larda ham cho'llarga xos bo'lgan hayvonlar yashaydi. Yirik hayvonlardan tulki, bo'ri, yovvoyi qo'y (arxar), jayron, sayloq yashaydi.

Kaltakesaklardan Turkiston agamasi, parrandalardan so'fito'rlay, bo'zdek, ko'k qarla, kaklik ko'p uchraydi.

Tog'li o'lkalarning bargli o'rmonlarida jayra, ayiq, to'nLiz, tyanshan bo'rsili ko'p uchraydi.

To'qay hayvonlari. Bu hayvonlar asosan Amudaryo, Sirdaryo, Iee, Chu, Sarisuv, Atrek daryolarining qayirlarida ko'p. To'qaylar uchun xos bo'lgan va eng ko'p uchraydigan hayvonlarga to'nLiz, to'qay mushugi, bo'rsiq, bo'ri, quyon, suv kalamushlarini ko'rsatish mumkin.

Parrandalardan o'rdak, g'oz, loyxo'rak, baliqchi, qorabuzov, flamingo, birqozon, qirg'ovul va boshqalar.

Tayanch so'zlar.

Tuproq hosil qiluvchi faktorlar. Tuproq gorizontal va vertikal zonalari. Azonal tuproqlar. Tuproq tiplari. Tuproqning chirindi tarkibi. O'simlik turlari. Efemer va efemeroidlar. Dasht. Chala cho'l. Cho'l. Qumli cho'l o'simliklari. O'simliklarni

geografik o'lkalarga ajratish. Tog'li o'lka o'simliklarining tabiiy komplekslari. Dasht hayvonlari. Chala cho'l va cho'l hayvonlari. Tog'li o'lkalar hayvonlari. To'qay hayvonlari.

5-MAVZU. MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI AHOLISI VA TRANSPORT GEOGRAFIYASI.

REJA.

1. MOD aholisining tabiiy o'sishi va zichligi.
2. MOD aholisining etnik kelib chiqishi va joylashishi.
3. MOD transport geografiyasiga umumiy ta'rif.

1. MOD aholisining tabiiy o'sishi va zichligi.

Iqtisodiy va sosial yoki umumjahon an'alariga mos ravishda ijtimoiy geografiya fani tizimida aholi nihoyatda muhim va markaziy o'rinni egallaydi. U ba'zi olimlar ta'biri bilan aytganda, ijtimoiy geografiya fanining ichki o'zak bo'lagi, qanoti sifatida xizmat qiladi. Shu bois iqtisodiy va sosial geografiyada aholiga e'tibor doimo kuchli bo'lgan. Ma'lumotlarga qaraganda, geografiyada bajarilayotgan jamiki ilmiy ishlarning choragidan ko'proli aynan ana shu aholi muammolariga to'li keladi. Chunki, mamlakat, uning iqtisodiy rayonlari, xalq xo'jaligini hududiy tashkil etish va rivojlantirishda aholining soni, tarkibi, takror barpo qilinishi rejimi, ishlab chiqarish malakalari, migrasion harakati, hududiy joylanishi xususiyatlari kabi ko'rsatkichlar katta ahamiyat kasb etadi.

1996 yil ma'lumotiga ko'ra Markaziy Osiyo hududida 55 million kishi yashaydi. Aholi soni davlatlararo bir-biridan keskin farq qiladi (buni quyidagi 1-jadvaldan ko'rishimiz mumkin)

№	Davlatlar	May-doni (ming kv.km.	Jami a'oli (mln. kishi 1996y.)	Shundan foiz bilan		20025 yilda kutilayotgan aholi sonining taxmini (mln.kishi juis.)
				Shaharda	Qishloqda	
1	Tojikiston	143,1	5,8	33	67	13,1
2	Turkmaniston	488,1	4,5	45	55	7,9
3	O'zbekiston	448,9	22,7	41	59	42,3
4	Qirg'iziston	198,5	4,4	38	62	7,0
5	Qozog'iston	2717,3	16,9	57	43	20,5
6	MOD bo'yicha	3994,4	54,3	45,5	54,5	90,8

Aholining son jihatidan o'sishi (dinamikasi) uning takror barpo qilinishi jarayoni (tulilish, o'lim va tabiiy o'sish), hamda mexanik harakati (migrasiya) bilan chambarchas bo'liqdir. Bu jarayonlarning kechishiga aholi o'rtasida shakllangan murakkab tarixiy-an'anaviy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlar ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Markaziy Osiyo davlatlarida yashovchi tub aholi ko'p jihatdan musulmonchilik udumlari (ya'ni ko'p bola ko'rish aqidalari)ga amal qiladi. Bu aqidalarning amal qilishida islom dinining ham ta'siri bor, albatta. Markaziy Osiyo tub aholisidagi farzandsevarlik "O'nta bo'lsa o'rni boshqa, qirqta bo'lsa qilg'i" maqolini keltirib chiqargan. Bu maqol shubhasiz turkiy xalqlar tomonidan asrlar osha to'qib chiqarilgan haqiqatdir.

Aholining tabiiy o'sishi bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari MDHga a'zo bo'lgan davlatlar ichida eng yuqori o'rinda turadi. Har ming kishiga hisoblanganda tabiiy o'sish va o'lim koeffitsiyenti Qirg'izistonda 26:8 kishini, Qozog'istonda 19:9, O'zbekistonda 31:7, Tojikistonda 33:9 va Turmanistonda 33:8 kishini tashkil etadi. Aholining bu xil ko'payishi ko'rsatkichi Rossiya va Ukrainaday yirik davlatlarda esa salbiydir, ya'ni har ming kishiga aholining o'sish koeffitsiyenti esa ularda 16 va 14 kishiga to'g'ri keladi.

Rossiya fanlar Akademiyasi Demografik Markazining bashorat qilishicha 2025 yilga borib MOD aholisi keskin ko'payadi va 91 mln. kishiga yetadi. Jumladan, O'zbekistonning aholisi 42,3 mln. kishiga, Qozog'istonniki-20,5; Tojikistonniki-13,1; Turkmanistonniki-7,9; Qirg'izistonniki - 7 mln. kishidan ortib ketadi. Aholining tabiiy o'sishi yuqori bo'lganligi uchun ham mazkur davlatlarda aholi soni tez o'sib bormoqda.

MOD aholisining ko'payishi 1995-2000 yillarda quyidagicha bo'lgan, O'zbekistonda 2561 ming kishiga ko'paygani holatda, Tojikistonda - 645, Turkmanistonda - 944, Qirg'izistonda - 160 ming kishiga va Qozog'istonda esa atigi 69 ming kishiga ko'paygan.

Markaziy Osiyoda aholi tabiiy ko'payishi ko'rsatkichlarining yuqori holda saqlanishi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan bolliqdir. Ularning asosiylari quyidagilardir:

1. Musulmonlar va boshqa mahalliy millatlar vakillari orasidagi an'anaviy ko'p bolalikning barqaror holdaligi;
2. Rivojlangan mamlakatlarga xos hozirgi zamon ilmiy va industrial ishlab chiqarish madaniyatining nisbatan pastligi;
3. Urbanizasiya darajasining pastligi tufayli aholi asosiy qismining qishloq xo'jaligi va u bilan bolliq ishlab chiqarish sohaslarida bandligi;
4. Oilada bolalar sonini oldindan belgilash va tutilishni cheklash choralarini qo'llashning keng tarqalmaganligi;
5. Mahalliy millat ayollari orasida ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar salmolinig anchagina ekanligi va boshqalar.

Markaziy Osiyo davlatlari aholisining bandlik darajasida kattagina o'xshashliklar bor, masalan, O'zbekiston aholisining 45,8 foizi qishloq xo'jaligida, 18,4 foizi sanoatda, 35,8 foizi xizmat ko'rsatish sohasida band bo'lgani holda, bu ko'rsatkichlar Tojikistonda 54,5; 1,8; 28,7; Turkmanistonda 44,2; 19,2; 36,6; Qirg'izistonda 42; 19,2; 38,7 foizni tashkil qiladi. Regionlar aholi soniga nisbatan mehnat qilish yoshidagi aholi MODning barcha davlatlari uchun deyarli bir xil (50% atrofida) ko'rsatkichga ega.

MOD hududidagi demografik vaziyat bir tomondan aholi tabiiy o'sishining yuqoriligi, ikkinchidan esa urbanizasiya darajasining pastligi bilan belgilanadi. Hozirgacha Markaziy Osiyoning ko'pgina davlatlarida aksariyat aholi

qishloqlarda yashaydi. Masalan, Turkmaniston davlatida aholining 55 foizi, O'zbekistonda-59 foiz,Qirg'izistonda - 62 foiz, Tojikistonda 67 foiz qishloqlarda yashaydi.

Markaziy Osiyoda aholi zichligi o'rtacha 1 kv.km.ga 13,8 kishini tashkil qiladi, bu ko'rsatkich davlatlararo keskin farq qiladi. Masalan,Qozog'istonda - 6 kishini, Turkmanistonda - 7,2 kishini,Qirg'izistonda - 21,5 kishini, Tojikistonda - 33 kishini va O'zbekistonda - 50,5 kishini tashkil qiladi. Aholi zichligidagi davlatlararo keskin farq aholining milliy tarkibi, hududlarning kattaligi, tabiiy o'sish darajasi va boshqa omillar bilan bog'langan.

2. MOD aholisining etnik kelib chiqishi va joylashishi.

Hozirgi vaqtda planetamiz aholisining miloddan oldingi davrdagi etnik holati haqidagi ma'lumotlarni faqat demograflar, arxeologlar, tarixchilar va fanning boshqa sohasidagi mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga tayangan holda haqiqatga ancha yaqin bo'lgan taxminlar bilan belgilanadi. Eramiz boshlariga kelib yer kurrasi aholisi taxminan 150-200 mln.kishiga, eramizning 1000 yiliga kelib qariyb 300 mln.ga yetdi. Bu davrda dunyoning ko'p joyida odamlar butunlay bo'lmagan yoki juda siyrak bo'lgan. Shu paytlarda planetamiz aholisining 2\3 qismi Osiyoda yashar edi.

Boysun tumanidagi "Teshik tosh" g'oridan topilgan Neolit davrida yashagan odam suyaklarining topilishi va boshqa ko'plab etnografik, arxeologik qazilmalar Markaziy Osiyo hududida qadimdan odamlar yashaganligini isbotlamoqda.

Markaziy Osiyoda hozirgi davrda yashovchi o'zbek, qoraqalpoq, qirliz, qozoq, turkman, tojik xalqlarining tarixi bir-biri bilan uzviy bog'langan. Ularning ajdodlari - baqtriyaliklar, sogdiylar, saklar, massagetlar Turkiston va qisman Eronning bir qismi bo'lgan Xuroson hamda Afg'onistonninnHindiqush rayoni hududida istiqomat qilishgan. Bu hududdagi Baqtriya o'rnida keyinchalik Toxariston davlati vujudga kelgan. Tez orada Toxariston Sogdiana davlati bilan qo'shilib, Turkiston hududida yirik Kushan imperiyasiga birlashadi.

VII-VIII asrlarda Turkistonga arblar bostirib kiradi df erli xalqqa islom dinini zo`rlab qabul qildiradi.

IX asrning oxiri (874yil)da Balodod xalifaligi yemiriladi. Samonidlar davlati barpo qilinadi. Samanidlar davlati hukmronligi davrida Turkiston hududida 100 yilcha tinchlik hukmron bo'ladi. O'sha davrning alloma olimlari Abu Rayhon Beruniy, fors-tojik poeziyasining asoschisi Rudakiy, o'lmas "Shohnoma" poemasiining muallifiG'irdavsiy, tibbiyot ilmining darlasi Abu Ali ibn Sino kabi o'nlab mutafakkirlar yetishib chiqadi va jahon fani taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shadi.

XII asrning o'rtalarida Markaziy Osiyo hududida Saljuqiylar davlati tarkib topadi. XIII asrning boshi (1219-1221 yillar)da Turkistonni Chingizxon boshliq mulullar ishlol qildi. 1370 yilda Turkiston davlatining tepasiga Amir Temurning kelishi feodal urushlarga chek qo'ydi.G'an va madanyat ravnaq topdi, ijodiy kuchlar birlashtirildi, fan olamida dunyoga donli ketgan buyuk siymolar yetishib chiqdi. Astronomiya, geografiya, tarix, matematika, adabiyot, san'at nihoyat darajada rivojlandi.

Mirzo Ululbek, Mir Alisher Navoiy, Zahriddin Bobur o'sha davrning buyuk siymolari edi.

Amir Temur hukmronligidan keyin Turkiston zaminida ko'chmanchi xalqlar o'rtasida tez-tezg'alayonlar bo'ldi. 1500-1507 yillarda ko'chmanchi qabilalarning dohiysi Muhammad Shaybonihon butun Turkistonni o'z qo'li ostiga oldi. Shaybonixon avlodlari 1598 yilgacha davlatni boshqardi. So'nra bu hududda Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olindi va bu zaminda Turkiston general-gubernatorligi joriy qilindi.

1917-1924 yillarda Turkiston Rossiya tomonidan qayta ishlol qilindi va "O'rta Osiyo" va "Jozolizston" deb atala boshlandi.

Bugungi Markaziy Osiyoning aholisi etnik kelib chiqishi jihatidan bir xil bo'lgan, asrlar osha (va tinimsiz janglar) mobaynida shakllangan turkiy zabon tilida va unga yaqin bo'lgan tilda gaplashuvchi xalqlardir.

Joylashishi. Markaziy Osiyoning mahalliy aholisi qadim-qadimdan daryo, soy bo'ylarida, Tog' yon balirlarida va vodiylarda yashashadi. Ular faqat so'nggi yillarda cho'llarni o'zlashtirish bilan, yangi-yangi shaharlar barpo qilish bilan yashash geografiyasini kengaytirishdi. Markaziy Osiyoning xo'jalik jihatidan yaxshi o'zlashtirilgan zonalarida, vodiylarida har bir kv.km.ga aholining zichligi 400-500 kishini tashkil qiladi. Dengiz sathidan 1500 metr balandlikkacha bo'lgan zonada ham aholi manzilgohlari ko'p va aholi lalmikor dehqonchilik, meva va uzumchilik bilan shuullanadi. Undan baland yerlarda aholi manzilgohlari siyrak uchraydi va yaylov chorvachiligi, o'rmon xo'jaligi bilan shuullanadi.

3. MOD transport geografiyasiga umumiy ta'rif.

Transport Markaziy Osiyo davlatlari ishlab chiqaruvchi kuchlarining rivojlanishi va joylanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Markaziy Osiyoda hozirgi zamon transportining deyarli barcha turlari - temir yo'l, avtomobil, havo, daryo, quvur va elektron transporti mavjuddir.

Yaqin o'tmishda (sobiq Ittifoq davrida) Markaziy Osiyoda yagona transport tizimi vujudga keltirilmagan edi. Bu esa hududlari yaxlit bo'lgan, xalq xo'jalik tarmoqlari bir-biri bilan uziy bog'lanib ketgan region uchun o'ta zarur edi.

Markaziy Osiyoning transport tarixiga bir nazar tashlaylik. Qadimda u Buyuk ipak yo'li (karvon yo'li)da bo'lgan. Yarbui Yevropaning Janubiy va Sharqiy Osiyo bilan iqtisodiy aloqasi karvon yo'li orqali bo'lgan. Bu hududdan o'tgan karvon yo'lining shaxobchalari esa qadimiy Turkistondagi hozirgi mustaqil davlatlarni bir-biri bilan bog'lagan. Biroq yaqin o'tmishda bu yo'l unut bo'lgan. Markaziy Osiyo o'zining chegaradosh, qondosh, jondosh, yaqin qo'shnilari Turkiya, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Xitoy davlatlari bilan ham faqat markaz (Moskva) orqali aloqa qilar edi xolos.

Endilikda Markaziy Osiyoda yagona transport tizimini vujudga keltirish tadbirlari amalga oshirilmoqda. Qadimgi Buyuk ipak yo'lini tiklashg'oyasi O'zbekiston hukumatining MOD transport kommunikasiyasini vujudga keltirish sohasida amalga oshirilayotgan qutlu ishidir. Ushbu turkiy zamin uzra o'tgan mazkur yo'lining (Buyuk ipak yo'li) tiklanishi MODning transport tizimida buyuk o'zgarishlar qiladi.

Hozirgi vaqtda Markaziy Osiyo davlatlari temir yo'l, avtomobil, suv yo'li, havo va quvur transportlari orqali bir-birlari bilan bog'langan. Bu narsa MOD yagona

transport tizimini barpo qilish uchun muhim asos. Ushbu omiliy asosdan regiondagi barcha davlatlar keng va unumli foydalanishmoqda.

Shuningdek, Markaziy Osiyoning har bir davlati xorijiy davlatlarga chiqishning o'ziga xos imkoniyatlariga egaki, bu imkoniyatlardan ham endilikda hamkorlikda foydalanishga kirishilmoqda. Masalan, Turkmanistondan Eronga, "Oadjan-Saraxs-Mashhad" temir yo'l magistrali 1996 yil 14 may kuni ishga tushirildi, uzunligi 305 km. yoki "Toshkent-Osh-Urumchi" marshruti bo'yicha xalqaro avtomagistral ishga tushirildi; shuningdek, "Turkmanboshi (Krasnovodsk) - Baku -Poti - Bolgariya" orqali va Dunay daryosi orqali y'arbiy Yevropa mamlakatlariga chiqadigan"Transkavkaz" kommunikasiyasi ishga tushirildi. Bu yo'llardan hozirgi paytda Markaziy Osiyodagi davlatlar birgalikda foydalanishmoqda.

1995 yilda rejalashtirilgan "Termiz-Hirot-Jobul-Karachi" avtomobil yo'lining qurilishi 2003 yilda boshlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari o'z transportini takomillashtirish va rivojlantirishda, ichki va tashqi aloqalarni kuchaytirishda yaratuvchanlik ishlarini amalga oshirmoqda. Yaqin kelajakda Markaziy Osiyo yagona temir yo'l, avtomobil yo'li, quvur, suv va havo transportining bir butun tizimi vujudga keladi. Bu narsa o'z-o'zidan Markaziy Osiyo davlatlarining tashqi iqtisodiy va madaniy aloqasini kuchaytirib regondagi ishlab chiqarish kuchlarini jadal rivojlantirishga xizmat qiladi. Keyingi paytlarda Markaziy Osiyodagi elektr stansiyalarining yagona tizimiga ulanishi bilan regiondagi transportning yangi turi - elektron transport vujudga keldi. MODning xalq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda bu transportning salmog'i tobora ortib boraveradi.

Tayanch so'zlar.

Aholining tabiiy o'sishi, aholi zichligi, shahar va qishloq aholisi. Regionning tub aholisi, etnik kelib chiqishi. Urbanizasiya darajasi. Aholi joylashuvi. Turkistondan yetishib chiqqan buyuk allomalar. Saljuqlar davlati. Baqtriya. Toxariston. Arablarning kelishi. Chingizxon davlati. Amir Temur hukmronligi. Buxoro amirligi. Qo'qon va Xiva xonliklari. Sobiq Ittifoqning tarkib topishi. Yagona transport tizimi. Temir yo'l, avtomobil yo'li, quvur va daryo transporti, havo va elektron transport. Buyuk ipak yo'li. Xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan transport kommunikasiyalari.

6-MAVZU. IQTISODIY RIVOJLANISHNING XUSUSIYATLARI, REGIONLARNING RIVOJLANISHDAGI FARQLARI. XALQ XO'JALIGINING YETAKCHI MAJMUALARI.

REJA:

1. MOD xalq xo'jaligining tarkib topishi.
2. MOD sanoati va qishloq xo'jaligi.
3. MOD xalq xo'jaligining yetakchi majmualari.

1. MOD xalq xo'jaligining tarkib topishi.

Markaziy Osiyo davlatlarining xalq xo'jaligi yaqin yaqinlargacha "SSSR iqtisodiyoti - yagona xalq xo'jalik tizimi"ga moslashtirilgan edi. U har jihatdan

Markazga tobe edi va shu “tizim”ga bog`lab tashlangan edi. Buning ma'nosi shu ediki, ular yuqori (markaz)ning ko'rsatmasi bilan o'zlarida xalq xo'jaligining ayrim turlarinigina rivojlantirish, ayrim turlarini esa har qancha qulay shart-sharoit bo'lsa ham rivojlantirmasliklari shart edi. Markaz bu borada aniq gektarni, aniq miqdorni ham belgilab berardi. Sotsializm va kommunizm quramiz shiori bilan o'tgan o'sha (1924-1991) yillarda Markaziy Osiyo hududidagi bugungi mustaqil davlatlar mamlakatning xom ashyo rayoniga aylantirilgan edi. Markaziy Osiyo xalq xo'jaligi bir tomonlama (faqat xom ashyo yetkazib beradigan tarzda) rivojlangan edi. U Sovet Ittifoqining yoqilli (ko'mir, neft, gaz) va metallurgiya sanoati (rangli metall rudalari, noyob va nodir metallar), qurilish materiallari (tabiiy tosh, marmar) va oziq-ovqat hamda yengil sanoat xomashyolari (paxta tolasi, tabiiy ipak tolasi, jun tolasi, teri, don, meva, vino materiallar) yetkazib beruvchi asosiy rayonga aylangan edi.

Markaziy Osiyodagi barcha davlatlar o'z iqtisodiyotini rivojlantirishning o'ziga xos markazga tobelik xususiyatlariga ega edi. Bu xususiyat “Rossiya imperiyasi”ning olib borgan siyosati natijasi edi. Markaziy Osiyoda xalq xo'jaligini rivojlantirish, yurgizish, uning asosiy sohalarida bir tomonlamalikka tayangan edi. Bugungi Markaziy Osiyo, ya'ni SSSR parchalanib ketgan, uning o'rnida mustaqil davlatlar vujudga kelgan bir palladagi Markaziy Osiyo iqtisodiyoti yaqin o'tmishning ushbu asoratidan kutilgan emas va bu asorat uning iqtisodiyotini rivojlantirishda uzoq vaqtlargacha o'z ta'sirini ko'rsatib turadi.

2. MOD sanoati. Markaziy Osiyo iqtisodiyotida sanoatning ulushi katta. Bu yerda yoqilg'i-energetika, rangli va qora metallurgiya sanoati, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, qurilish materiallari sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati tarkib topgan va ularning o'nlarcha yo'nalishlari rivojlantirilgan. O'lka sanoat ishlab chiqarishda kattagina regional farqlar bor. Masalan, Markaziy Osiyoning hududiy jihatdan yirik bo'lmish va sanoati ancha rivojlangan regioni Qozog'izston davlatida neft va ko'mir, har xil mashinasozlik, qurilish materiallari sanoati, oziq-ovqat va yengil sanoat rivojlangan. MODning iqtisodiy jihatdan rivojlangan regionlari - O'zbekistonda yoqilli-energetika va rangli metallurgiya sanoati, qishloq xo'jaligi va transport mashinasozligi, kimyo va neftokimyo sanoati, qurilish materiallari va farfor-oayns sanoati, yengil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlari. Qirg'izistonda ko'mir sanoati tarmoqlari, energetika sanoati, avtomobilsozlik, priborsozlik, oziq-ovqat sanoati tarmoqlari, Turkmanistonda neft qazib olish va neftni qayta ishlash hamda gaz sanoati, ximiya sanoati, neft sanoati mashinasozligi ayniqsa rivojlangan.

Markaziy Osiyo davlatlari o'z siyosiy mustaqilliklarini qo'lga kiritishlari bilan sanoat ishlab chiqarishdagi qoloqliklarini bartaraf qilish yo'lini izlamogda va bu borada salmoqli ishlar qilmoqda. Mazkur davlatlar oldidagi birinchi galdagi vazifa iqtisodiy qoloqlikdan chiqish yo'llarini izlab topish, azalda bo'lganidek, o'lkani xomashyo rayonidan sanoatning barcha tur mahsulotlarini murakkab vazifani bajarish Markaziy Osiyo davlatlaridan oqilona ish yuritishni, MODaro iqtisodiy integratsiyani rivojlantirib yaxlit iqtisodiyotni barpo qilishni, ilmiy va o'zaro (davlatlararo) ishonchga tayangan siyosat olib borishni taqozo qiladi.

Endilikda MOD rivojlanishning yangicha poydevorini quymoqdalar. Jumladan, birinchidan xalq xo'jaligining ko'p sohalarini rivojlantirishda umumiylik (bir-biriga bog'liqlik) asos qilib olinmoqda. Sanoatni, agrosanoat majmuini, xalqaro transport kommunikatsiyasini yaratish va transport aloqalarini rivojlantirishda rejalashtirish

ishlari umumiy asosda tashkil qilinmoqda. Orol dengizining taqdiri regionda vujudga kelgan keskin vaziyatni barqarorlashtirish ham MODda umumiylik asosida o'z yechimini topmoqda. MODning bir-birlari bilan yaqin qo'shnichilik, qon-qarindoshlikka tayangan diplomatik munosabatlar o'rnatish, iqtisodiy, savdo-sotiq, texnikaviy, madaniy aloqalarni yo'lga qo'yish, yirik sanoat va yo'l qurilishlarini amalga oshirishdagi hamkorligi davrimiz taqozosiga aylangan. Ikkinchidan esa, Markaziy Osiyo davlatlarining jahonning rivojlangan mamlakatlari bilan bevosita aloqa o'rnatish, ularning texnika vositalaridan, ishbilarmon mutaxassis kadrlaridan foydalanish MODda iqtisodiyotni rivojlantirishning yangi asoslarga qurilgan muhim poydevordir.

MOD qishloq xo'jaligi. MOD xalq xo'jaligida qishloq xo'jaligi muhim o'rin tutadi. Uning yetakchi tarmoqlari o'simlikshunoslikda: paxtachilik va paxta kompleksi, donchilik (ayniqsa, buldoy va sholi yetishtirish), mevacchilik va uzumchilik, polizchilik va sabzavotchilik; chorvachilikda: qoramolchilik va qo'ychilik, yilqichilik va tuyachilik, parrandachilik va baliqchilik. Qishloq xo'jaligida regional farqlar ham borligi ko'zga tashlanadi. O'zbekiston paxtachilik va donchilikda, Qozog'iziston dehqonchilikka, Turkmaniston va Tojikiston paxtachilikka, Qirg'iziston davlati esa mayin tolali jun yetishtirishga o'ta darajada ixtisoslashgan.

Markaziy Osiyo qishloq xo'jaligi ham bir tomondan tarmoq tuzilishini o'zgartirmoqda, ikkinchi tomondan esa agrosanoat integrasiyasi negizida rivojlanish yo'lga o'tmoqda. Endilikda Markaziy Osiyoning ko'pgina davlatlarga xos bo'lgan jarayon paxta "yakkahokimligi"ga barham berish, paxtadan bo'shagan yerlarga donli ekinlar ekish va shu bilan birga mahalliy xalqning don va don mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishdan iborat. Meva va uzum yetishtirish doirasi ham kengaytirilmoqda. Chorvachilik ham turk xalqlari ehtiyojidan kelib chiqib jiddiy o'zgarishlar qilinmoqda. Jumladan, barcha davlatlarda cho'chqachilik tugatilib, uning o'rniga qo'ychilik rivojlantirilmoqda. Yaylov chorvachiligining doirasi toraymoqda, chorva mollarini qo'lda boqishga e'tibor qaratilmoqda.

Jishloq xo'jaligi xom ashyosi rayoni bo'lmagan ushbu region qishloq xo'jalik mahsulotlarining xomashyo tarzida boshqa regionlarga chiqarishga chek qo'yilmoqda va ularni joy-joyida sanoat usulida qayta ishlash avj olmoqda. Shu asosda MOD agrosanoat majmui izchillik bilan rivojlanib boryapti. Iqtisodiyotda bunday ish tizimi ham region xalq xo'jaligida umumiylikni ta'minlamoqda. Markaziy Osiyoning alohida olingan davlatlari agrosanoat majmui mahsulotlari yetishtirish, ishlab chiqarish va xarid qilish bo'yicha keng hamkorlik qilmoqda. Masalan, yaqin kelajakda Qozog'iziston davlati MOD xalqlarining don va don mahsulotlariga, O'zbekiston va Tojikiston qozoq xalqining ho'l meva va uzum mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Turkmaniston turkiy xalqlarning sitrus mevalariga, Qirg'iziston shakar-qand va mayin tolali jun mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Shu tarzda Markaziy Osiyo iqtisodiyotida umumiylik boshlanadi, aste-sekin yagona xalq xo'jalik tizimi - MODaro yaxlit iqtisodiyoti qaror topadi. Iqtisodiy taraqqiyotdagi bu tizimning bosh yo'nalishi biron bir markazning, biron-bir alohida olingan xalqning manfaatiga emas, balki turkiy xalqlarning mushtarak manfaatlariga xizmat qiladi.

3. MOD xalq xo'jaligining yetakchi majmualari.

Yoqilli-energetika kompleksi. Kompleksning rivojlanishi MODning ko'pgina davlatlarida butunlay mahalliy xom ashyo - tabiiy resurs omiliga tayanadi. Uning asosini neft, ko'mir, gaz sanoati tashkil qiladi. Neft va gaz sanoati region sanoatining yetakchi tarmoqlaridan biridir. Sanoatning mazkur tarmoqlari ayniqsa O'zbekistonda tez o'sib bormoqda. Umuman Turkmaniston, Qozog'izston va O'zbekistonda yoqilli-energetika sanoati tarmoqlari salmoqli o'rin tutadi. Markaziy Osiyo davlatlari orasida Turkmanistonning Nebitdag' rayoni, Qozog'izstonning g'arbiy iqtisodiy rayoni, O'zbekistonning Farg'ona vodiysi va Muborak rayonida neft va tabiiy gaz konlari juda ko'p. Bu rayonda neftni qayta ishlaydigan zavodlar, issiqlik elektrostansiyalari (IES) ishlab turibdi. Shuningdek, mazkur rayonlardan MODning sanoatlashgan shaharlariga hamda xorijiy davlatlarga neft va gaz quvurlari o'tkazilgan. Jumladan, O'zbekistondan Qirg'iziston, Tojikiston va boshqa davlatlarga, Turkmaniston va Qozog'izstondan Rossiya, Ukraina va boshqa xorijiy davlatlarga neft va gaz quvurlari o'tkazilgan. Yaqin kelajakda esa Turkmanistondan Eron, Turkiya davlatlari va O'rta Dengiz mamlakatlariga neft, Qozog'izstondan Turkiyaga gaz quvurlari o'tkaziladi. MOD yoqilli-energetika kompleksida ko'mir sanoatining ham salmoqli ulushi bor. Ko'mir konlari MODning barchasida topilgan. Ayniqsa, Qozog'izston, O'zbekiston, Qirg'iziston hududlarida ko'mir ko'p. Birgina Qozog'izstonda ko'mirning geologik zahirasi 140 mlrd.t.ga teng. Qarag'anda, Eskibastuz, Obakan havzalari ayniqsa yirikdir. Mazkur havzalari (va birinchi navbatda Markaziy va Shimoliy Qozog'izston)da IESlari ishlab turibdi.

Regionda qudratli yoqilli-energetika sanoati kompleksiga va gidravlik stansiyalarda ishlab chiqarilayotgan elektroenergiyaga tayanib elektroenergetika sanoati rivojlangan. MODlarida yiliga 150-180 mlrd.kvt\soat elektroenergiya ishlab chiqarilmoqda.

Yaqin kelajakda MODlari yagona energetika sistemasiga ega bo'lishi kutilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining 1993 yil yanvar oyida Toshkentda bo'lgan uchrashuvlarida ana shu haqda aniq bir fikrga kelindi.

Metallurgiya kompleksi. Bu kompleks qora va rangli metallurgiyani o'z ichiga oladi. Kompleksni rivojlantirish uchun regiondagi davlatlar bir xil imkoniyatlarga ega emas. Chunonchi, qora metallurgiyaning xom-ashyosi chegaralangan. Temir ruda konlari faqat Qozog'izston Respublikasida sanoat ahamiyatiga ega. Markaziy va Shimoliy Qozog'izston iqtisodiy rayonlarida o'nlab temir ruda konlari topilgan va ishga tushirilgan. Shulardan eng muhimlari Qarag'anda va Kustanay viloyatlarida bo'lib, 30 kondagi temir ruda zahirasi 16 mlrd.tonnaga teng.

Markaziy Osiyo qora metallurgiyasi birinchi navbatda Markaziy Qozog'izstonda tarkib topgan va rivojlangan. "Qozoq magnitkasi" nomi bilan ataladigan to'liq sikldagi Qarag'anda metallurgiya zavodi cho'yan, po'lat, prokat ishlab chiqaradi. Mazkur metallurgiya korxonasi Qarag'anda ko'mir yoqilli xomashyosiga tayanib ishlaydi. Shuningdek, Markaziy Osiyoda O'zbekistonda ham Bekobod qora metallurgiya kombinati bor. Ushbu millioner metallurgiya korxonalari MODning qora metallga bo'lgan ehtiyojini qisman bo'lsa ham qondirib kelmoqda.

MOD metallurgiya kompleksida rangli metallurgiya sanoatining salmoqli katta. Kompleksning ushbu tarmog'i MOD hududida topilgan bir necha o'nlab rangli metall ruda xomashyolariga tayanadi. Rangli metall xomashyosi esa MODning Turkmanistondan tashqari barcha davlatlari hududida uchraydi. U

ayniqsa Qozog'izston, Qirg'izistonda ko'p. Mis, qo'rg'oshin, rux, surma va boshqa noyob va nodir metallar o'z sanoat korxonalariga ega. Jumladan, Balxash va Olmaliqda mis naralash fabrikalari, Qo'ytoshda qo'rloshin va rux, Haydarkentda surma, Pavlodar va Tojikistonning Tursunzoda shahrida alyumin zavodlari ishlab turibdi va boshqalar. Regionda keng quloch yoygan rangli metallurgiya sanoati mintaqaning barcha davlatlariga xizmat qiladi.

Mashinasozlik kompleksi.

Mazkur kompleks region mashinasozlik sanoatini o'z ichiga oladi va davlatlararo yo'nalishi bo'yicha farq qiladi. O'lkaning mashinasozlik sanoat korxonalari energetika sanoati uchun mashina, mexanizm, asbob-uskunalar ishlab chiqariladi. U metallurgiya sanoati, ximiya sanoati, qishloq xo'jaligi, transport uchun turli nom va markadagi mashina va mexanizmlar ishlab chiqaradi. Sanoatning bu tarmoqi tabiiy resurs omiliga bevosita bog'lanmaganligi uchun xom ashyo rayoniga ko'ra iste'molchi rayonlarda yaxshi rivojlangan. Jumladan, Turkmanistonda neft va gaz sanoati mashinasozligi, Qozog'izston va O'zbekistonda don va paxtachilik uchun xizmat qiladigan mashinasozlik; O'zbekiston va Qirg'izistonda yengil va yuk avtomobilsozligi; O'zbekistonda samolyotsozlik, Tojikistonda qishloq xo'jaligi mashinasozligi rivojlangan.

Kimyo sanovati majmui.

Regionda kimyo sanoati majmui u bilan bolliq sanoat tarmoqlarining rivojlanishi bilan keng quloch yoyioqda. Bu yerda neftokimyo, gazokimyo, ko'mirkimyo tarmoqlari ayniqsa rivojlangandir. Kimyo sanoatining zikr qilingan tarmoqlari Qozog'izston, O'zbekiston va Turkmanistonning xomashyo rayonlarida joylashgan va ancha yaxshi rivojlangan. Shuningdek, region kimyo sanoati mineral o'g'it uchun ishlatiladigan kaliy-fosforid konlari bazasida ham rivojlantirilgan.

Paxtachilik majmui. Markaziy Osiyoda paxtachilik majmui yaxshi rivojlangan. Mazkur paxtachilik majmui bir-biri bilan uzvey bog'lanib ketgan texnologik jarayon bo'lib, bir tomondan paxta yalpi hosilini yetishtirish, uni o'z vaqtida yilib-terib olish, yetishtirilgan yalpi hosilini paxta punktlariga keltirish, navlarga ajratish, bundlash, paxta yalpi hosildan paxta tolasini ajratib olish, toladan ip-gazlama ishlab chiqarish, kiyim-kechak bichish va tikish, paxtaning ikkilamchi mahsulotlaridan yo'l, sovun kabi ko'p xil sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish; ikkinchi tomondan esa paxta yetishtirish va uni yilib-terib olish uchun mashinalar, traktorlar, kombaynlar va boshqa o'nlab nomdagi asbob-uskuna va mexanizmlar ishlab chiqarish, mineral o'g'itlar, har xil ximikatlar, dori-darmonlar tayyorlash va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Markaziy Osiyo davlatlari jahondagi eng yirik paxta region. Uning barcha davlatlarida paxta ekiladi. MDHga a'zo bo'lgan davlatlarda yetishtirilgan paxtaning 90% dan ko'prolini Markaziy Osiyo davlatlari beradi. Biroq paxta yetishtirish bo'yicha MODlari bab-baravar tuproq-iqlim imkoniyatlariga ega emas. Paxta ekish va yetishtirishda ayniqsa O'zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonning tabiiy resurs omili katta. Bu davlatlarda nisbatan ?aiobiy julrofiy sharoiti: iqlimning iliqqligi, quyoshli kunlarning ko'pligi, havo harorati ijobiy va foydali darajasining balandligi, o'simlik o'suv davri uchun kerakli kunlarning ko'pligi, tuproqning o'ta madaniylashganligi, serunumligi, sulorish shaxabchalari: suv omborining ko'plab

barpo qilinganligi, magistral kanallarning ko'p qazilganligi issiqsevar dehqonchilik-paxtachilikni har jihatdan rivojlantirishni taqozo qilgan.

Donchilik majmui. Bu majmuaga don yetishtirishga ixtisoslashgan qishloq xo'jalik korxonalari, don mahsulotlarini saqlaydigan va qayta ishlaydigan donxonalar, elevatorlar, non zavodlari, shuningdek, don yetishtirish uchun xizmat qiladigan mashina va mexanizmlar kiradi.

Markaziy Osiyo donchilik majmui yaqin o'tmishda bir tomonlama rivojlangan edi. Unin asosiy ju'rofiy rayoni Qozog'izstonning "Qo'riq o'lka" nomini olgan Shimoliy Qozog'izston iqtisodiy rayoni edi. Bu rayonda 1954-1960 yillarda salkam 30 mln. gektar quruq va bo'z yerlar o'zlashtirildi. "Qo'riq Heka"da qisqa vaqt ichida yuzlab donchilik davlat xo'jaliklari, tuman va viloyatlar tashkil qilindi.

Kelajakda Markaziy Osiyoning barcha davlatlarida donchilik majmui jadal rivojlantiriladi. Chunki Markaziy Osiyoning har bir mustaqil davlati mahalliy aholining don, un va un mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini to'la qondirish uchun uzoq muddatlarga mo'ljallangan rejalarini tuzib chiqarmoqdalar va turmushga tadbiq qilmoqdalar. Bunday tadbir Qozog'izstonning yirik donkor regionini bo'lib qolishini aslo inkor etmaydi balki Markaziy Osiyo hududida mazkur donchilik majmuasining keng rivojlanishiga va ma'lum miqdordagi xorijiy davlatlarga chiqarish imkoniyatini beradi.

Tayanch so'zlar.

MODning xalq xo'jaligi tarixi, tarkib topishi. Xalq xo'jaligida sanoat turi. Qishloq xo'jaligi. Xo'lq xo'jaligi. Majmualari. Yoqilg'i, energetika, neft, gaz, ko'mir konlari. Metallurgiya majmuasi. Qora va rangli metallurgiya. Cho'yan, po'lat, prokat ishlab chiqarish. Mashinasozlik majmui. Ixtisoslashuv, mashina, mexanizm, asbob-uskunalar. Kimyo sanoati majmui, neft va gaz kimyosi. Paxtachilik majmui: tola, gazlama, kiyim-kechak, yo'l, sovun ishlab chiqarish. Donchilik majmui: "Qo'riq o'lka". Bug'doy, arpa, sholi, makkajo'xori yetishtirish.

7-MAVZU. QOZOG'ISTON VA QIRG'IZISTON RESPUBLIKALARIGA UMUMIY TA'RIF.

REJA:

1. Geografik o'mi.
2. Aholisi.
3. Xo'jaligi..
4. Iqtisodiy rayonlari.

Qozog'iston respublikasi MDH davlatlari orasida hududining kattaligi bilan ajralib turadi. Uning maydoni 2,7 mln km.kv. bo'lib, MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda, dunyoda esa to'qqizinchi o'rinda turadi (Rossiya, Kanada, Xitoy, AJSH, Braziliya, Avstraliya, Hindiston va Argentinadan keyin).

Aholisi 15,8 mln. (1997 y) kishi bo'lib, MDH davlatlarida to'rtinchi o'rinda turadi (Rossiya, Ukraina va O'zbekistondan keyin).

Qozog'iston respublikasig'arbdan sharqqa Kaspiy dengizidan Oltoy Tog'larigacha 3 ming km masofaga, Shimoldan janubga 1,5 ming km dan ortiq masofaga cho'zilgan.

Qozog'iston respublikasining geografik o'rni ancha qulaydir. Tabiiy sharoiti juda ham xilma—xil bo'lib, hududining $\frac{1}{3}$ qismi tekislikdan (dengiz sathidan 200-500 m baland), $\frac{1}{2}$ qismi yassi tekisliklardan, Qozog'iston past Tog'lari (dengiz sathidan 500-600 m baland) dan, qolgan qismi zea ($\frac{1}{6}$) Tog'lardan iboratdir.

Qozog'iston respublikasi foydali qazilmalarga boy bo'lib, bu yerda yonuvchi, rudali, rudasiz foydali qazilma konlarining ko'pligi ko'p tarmoqli sanoat korxonalarini rivojlantirishga imkon beradi. Respublika foydali qazilmalarning ko'pligi jihatidan dunyoda oldingi o'rinlarda turadi.

Foydali qazilmalardan ayniqsa, kimyo sanoati uchun xom ashyolar ko'pchilikni tashkil etadi. Hrganilgan Yirik fosforit konlari asosan Qoratov va Aktyubinsk viloyati hududiga to'ri keladi. Natriy sulfat konlari Janubiy va markaziy Qozog'istonda uchraydi, Yirik osh tuzi konlari Pavlodar va Qizilhrda viloyatlaridadir. Yirik kaliy tuzi koni Aktyubinsk yaqinida topilgan.

Aniqlangan neft—gaz rayonlarni Kaspiy bo'yi nast tekisligi Mang'ishloq, Ustyurt, Sharqiy Orolbo'yi, To'riay botili, Sharqiy va Janubiy Qozog'iston Tog'oralili botiqlariga to'ri keladi.

Ko'mirning umumiy geologik zahirasi (400 dan ortiq kon) 140 mlrd. tonna atrofida bo'lib, jumladan Qarag'anda havzasida—50 mlrd.t. To'riay havzasida 50 mlrd.t, Ekibastuzda-12 mlrd.t. Qarag'anda ko'mir havzasidan asosan toshko'mir qazib olinali, bu kokslanuvchi ko'mirdir.

Qozog'iston respublikasi xalqaro geografik mehnat taqsimotida yirik sanoat ishlab chiqaruvchi davlat bo'lib qatnashadi. Uning hisobiga MDH davlatlaridagi $\frac{1}{3}$ qism mis eritish, taxminan $\frac{1}{2}$ qism rux, $\frac{2}{3}$ qismdan ko'proq qalay to'ri keladi.

Qozog'iston qora metallar ishlab chiqarish, neft va ko'mir qazib olish, bundan tashqari oziq—ovqat sanoati, don yetishtirish, jumladan, go'sht va qorako'l terisi yetishtirish bo'yicha ham alohida o'rinda turadi.

Qozog'iston polimetall rudalari bo'yicha ham dunyoda oldingi o'rinlardan birida, MDHda esa 1-o'rinda turadi (Oltoy, Qoratov, Junqoriya Olatovidaga konlar). Bu yerda qalay, ruxdan tashqari oltii, kumush, qadimiy va boshqa 30 ga yaqin rangli va nodir metallar uchraydi.

Jozoiston respublikasi mis zahiralar bo'yicha MDH davlatlari orasida birinchi o'rinda turadi (Eng katta konlardan Jezqazlan, Balxash, markaziy Qozog'istonda, Bozshaqol shimoliy Qozog'istonda, Orlov, Nikolayev—sharqiy Qozog'istonda, Chotirko'l-janubda, Yubileniy -g'arbiy Qozog'istonda), kumush, volfram (Qozog'iston past Tog'larida), xrom (Aktyubinsk oblastida), vannadiy, borit va boshqalar ham ko'p.

Qozog'iston respublikasi neft zahiralar bo'yicha MDH davlatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchn o'rinda tursa, ko'mir zahiralar bo'yicha uchinchi o'rinda turadi.

Qozog'iston respublikasining shimoliyg'arbiy qismlarida Yirik temir rudasi konlari topilgan. Eng Yirik konlari Temirtov, Rudniy, Kustanay, Sokolov-Sarboy, Lisakovsk va boshqalardir. (MDH davlatlaridagi temir zahirasining 17% ni tashkil etadi).

Qozog'iston iqlimi keskin kontinental, quruq iqlimdir. Shuning uchun daryolar ayniqsa, respublikaning markaziy qismida juda kam. Suv tanqisligi har qanday qurilishni avval suv izlab topish va suv omborlari qurishdan boshlashga majbur etadi.

Suv muammosi hal etilmasa Qozog`istonda mineral boyliklaridan to`lik foydalanib bo`lmaydi.

Qozog`istonning umumiy qishloq xo`jaligiga yaroqli yerlar 225 mln. ga. ni tashkil etadi. Htloq va yaylovlar 190 mln. ga, shudgor qilinadigan yerlar 36 mln.ga.ga yaqindir. Aholi jon boshiga hisoblaganda 2,3 ga shudgor qilinadigan yer to`Iri kelsa, dunyo bo`yicha 0,23 ga, O`zbekistonda (4,4 mln ga) 0,18 ga to`Iri keladi. Shunga qaramasdan suv tanqisligi bu yerda qishloq xo`jaligidan yuqori hosil olishga imkon bermaydi.

AHOLISI

Qozog`iston—ko`p millatli mamlakatdir. Bu yerda 110 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Milliy tarkib bo`yicha MDH davlatlari orasida faqatgina Rossiya tenglashishi mumkin. Tub joy axolisi qozoqlar davlat nomi ham shu nom bilan ataladi.

Aholi soni bo`yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Ukraina va O`zbekistondan keyingi to`rtinchi o`rinda turadi. Axolisining zichligi bo`yicha MDH davlatlarida oxirgi o`rinlarda turadi. 1 km.kv.ga. 6kishi to`Iri keladi. Aholi hududlar bo`yicha notekis joylashgan. Shimolda va Janubda aholi zichroq,g`arbda va markaziy qismida siyrak o`rnashgan.Qozog`istonda sanoat rivojlanganligi sababli urbanizasiya darajasi Markaziy Osiyo davlatlarida eng yuqori hisoblanadi. hozirgi kunda aholisining 58% i shaxarlarda istiqomat qiladi. Ayniqsa bu ko`rsatkich Qarag`anda viloyatida yuqori. Eng yirik shaharlardan Olma-ota (1 mlndan ko`proq),Qarag`anda (600 ming), Chimkent, Ust-Kamenagorsk, Pavlodar, Jambul, Ostona va boshqalardir.

Aholi milliy tarkibida 1990 yili ruslar ko`pchilikni tashkil qilgan bo`lsa 1995 yildan boshlab tub aholi qozoqlar soni ortib bormoqda.

Qozoqlar 46% ni, ruslar 34.8, nemislar 3% ni, ukrainlar 4.9, tatarlar, o`zbeklar 2% dan va boshqalar.

Qozog`iston aholisining milliy tarkibi (1926-1995 yillar)

Millatlar	1926	1959	1930	1979	1989	1992	1995
Foiz hisobida							
Qozoqlar	57,1	30.0	32,5	36,0	"39,7	43,2	46,0
Ruslar	19,7	42.7	42,4	40,8	37,8	36,4	34.8
Ukrainlar	13,2	6,2	7,2	6,1	5,4	5,2	4,9
Nemislar	0,8	7,1	6,6	6,1	5,8	4,1	3,1
Boshqa millatlar	9,2	12,0	11,3	11,0	11,3	11,1	11,2
Aholining umumiy soni (mln. kishi)							
	6,5	9.3	13,0	14,7	16,5	16,9	16,6

Qozog'iston Respublikasi Goskomstat ma'lumotlari

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, so'nggi yillarda aholi soni ortib borish o'rniga kamayib bormoqda. Buning asosiy sababi tabiiy o'sishning pasayib borayotganidir (1987 yil har ming kishiga 18.1 kishi to'Iri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1994 yil 8.8 kishiga tushib qoldi).

Lekin tabiiy ko'payish millatlar orasida ham keskin farq qiladi. Eng yuqori tabiiy ko'payish o'zbeklarda 24,7 %, ozarbayjonlarda 24.3%, qozoqlarda 21.9% bo'lsa, eng past ko'rsatkich ruslarda 2.7%, ukrainlarda 10%, nemislar da 3 7 va xokazo.

Tabiiy o'sish kamaysa ham bu ko'rsatkich qishloq joylarda yuqoriligicha SAqlanib qolmoqda. Bu yerda xar 1000 kishiga tu'ilish O'rtacha 20.4 kishi to'Iri kelmoqda. So'nggi yillarda tabiiy resurslar asosida rivojlanayotgan shaharlarda aholi soni ortib bormoqda, yirik aglomerasiyalar vujudga kelmoqda. Masalan:Qarag`anda, Jezqazlan aglomerasiyalari, Balxash shahri va boshqalar.

Hozirgi vaqtda hududiy mehnat taqsimotida ixtisoslashgan tarmoqlar—rangdor metallurgiya, ko'mir. ximiya (o'Igit ishlab chiqarish), mashinasozlik (ko'p metall ishlatuvchi), chorvachilik, don xo'jaliklari bilan ishtirok etadi. Yangi ixtisoslashgan tarmoqlardan qora metallurgiya, neft, elektroenergetika tarmoqlari hisoblanadi.

Qozog'iston xo'jaligida sanoat yetakchi o'rinda turadi. Sanoat o'z navbatida ikkita yirik guruhga bo'linadi: qazib oluvchi va kayta ishlovchi tarmoqlar. Birinchi tarmoq qazib olish va boyitish bilan shu'llansa, ikkinchi tarmoq ulardan tayyor mahsulot ishlab chiqaradi.

Qozog'iston rangli metallurgiya sanoati 50 ga yaqin rangli va nodir metallar, rangli metallurgiya sanoati asosida esa 70 ga yaqin turli xil ximiyaviy mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Bu tarmoqning yarmiga yaqini (47 foiz) qo'rloshin rux sanoatiga, 30 foizi mis, 8 foiziga yaqini alyuminiy, qolgani esa oltin qazib olish, titan va magniy ishlab chiqarish, volfrom molibden tashkil etadi.

Qo'rg'oshin va rux sanoati, sharqiy, janubiy va markaziyQozog'istonda rivojlangan. Oltoyda asosiy rangli metallurgiya kombinat" ishlab turibdi. Ust Komenagorsk va Leninagorsk kombinatlarida rudalarni kompleks qayta ishlashni va undan 25 xilga yaqin rangdor metall eritib olishni ta'minlaydi. Kustanay oblastida boksitdan foydalanish asosida Pavladorda alyumin zavodi ishlab turibdi.

Mis qazib olish va eritish Qarag`anda oblastidagi Balxash va Jezqazgan Tog` metallurgiya kombinati hamda Karsakpay mis eritish zavodlaridir. Barcha zavodlar Balxashbo`yi va Jezqazg`an konlari asosida ish olib boradi. Irtish mis eritish zavodi mis konsentratlarini Oltoy ruda boyitish kombinatidan oladi.

Qora metallurgiya Qozog'iston xalq ho'jaligining ixtisoslashgan muhim tarmoqidir. U respublika og'ir sanoatining yosh tarmoqlari qatoriga kiradi. Aktyubinsk yaqinidagi ferro—xrom (temir—xrom) zavodi Qozog'iston metallurgiyasining yirik korxonasidir. Mu'lojardan shimoli—garbda joylashgan Xromtov konlari bu zavodning xom ashyo bazasi hisoblanadi.

Respublikaning yoqilgi sanoati ko'mir, neft va gaz sanoatlarini birlashtiradi. Kokoslanuvchi ko'mirni Qozog'istondan tashqari Ural metallurgiya zavodlarida ishlatiladi. Ekibastuz havzasida ochiq usul bilan qazib olingan arzon ko'mir yirik

GRESlarda yoqiladi. Neft sanoat muhim o'rinni egallaydi. Mang'ishloq yarim orolida (Uzen, Jetiboy), Emba havzasida, Qizil Orda viloyatidagi konlar hamda Atirau, Pavlodar, Chimkent neftni qayta ishlash zavodlari katta ahamiyatga egadir. Neft konlaridan neftni qayta ishlash zavodlariga quvurlar orqali neft yuboriladi. G'arbiy Qozog'iston—Fors qo'ltili neft' quvuri orqali xorijiy davlatlarga yuboriladi.

Qozog'istonda gaz sanoati eng yosh tarmoqlardan hisoblanadi. Tabiiy gaz asosan janubiy Mang'ishloq va Ustyurt platolaridan shuningdek Emba va Mang'ishloq neft konlaridagi yo'ldosh gazlardan iboratdir. Qazib olingan gazning bir qismi o'sha joyning o'zidagi gazni qayta ishlash zavodlarida — Yangi Uzen, Janajol va Tengizda qayta ishlansa, asosiy qismi O'rta Osiyo—Markaz, Buxoro—Ural magistral gaz quvurlari orkali jo'natiladi. Respublikamizning janubiy qismi esa Buxoro—Toshkent—Chimkent—Talaz-Bishkek—Olma—ota gaz quvurlaridan foydalaniladi.

Hozirgi kunda Qozog'istonda 8 mlrd. m.kub. gaz qazib olinadi. Ehtiyojni qondirish uchun esa 18 mlrd.m.kub. gaz kerak. Kelajakda gaz qazib olish 40—44 mlrd, m.kubga yetishi mo'ljallanmoqda.

Elektroenergetika sanoati respublika xalk xo'jaligining muhim tarmolidir. Asosan ko'mir va tabiiy gaz bilan ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalari elektroenergetikaning asosini tashkil etadi. hozirgi paytda 8 ta GRES, 50 ta issiqlik elektr markazlari, 20 ta GES hamda 1 ta AES ishlab turibdi.

Qozog'iston mashinasozlik kompleksi nisbatan kam rivojlangan. Ularning ba'zilari: Ostonadagi Qozoqselmash, Tselinogratselmash, Pavlodarda o'rmonlovchi kuchli traktorlar ishlab chiqaradigan zavodlar ishlaymoqda. Kustanay va Olma—otada turli qishloq xo'jalik mashinalari va ularning ehtiyot qismlari ishlab chiqariladi. Qaragandada Tog'—kon uskunalari zavodi, Olma—otada Tog'—metallurgiyasi va energetika uskunalari zavodlari, Ust—Kamenogorskda rangli metallurgiya uchun mashinalar ishlab chiqariladigan korxonalar, Atirauda neft sanoati uchun mashinalar ishlab chiqaradigan korxonalar bor. 1992 yilda Chimkent va Olma—ota avtomobil remonti korxonalarida Rossiya bilan hamkorlikda Liaz, PAZ avtobuslari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Ximiya sanoati MDH da katta ahamiyatga egadir. Asosan boy mahalliy xom—ashyo asosida ishlaydi. Aktyubinsk va Jambulda fosfarit o'g'itlari, Qarag'andada azot o'g'itlari ishlab chiqariladi. Chimkentda fosforli tuzlar, Temirtovda sintetik spirt, Atirauda polietilen ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

Qozog'istonda oziq—ovqat sanoati orasida go'sht ishlab chiqarish yaxshi rivojlangan. Qishloq xo'jalik xom ashyosi asosida yengil sanoatda qo'y terisi oshlash, charm—poyabzal, to'qimachilik rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi

Qozog'iston qishloq xo'jaligi ixtisoslashgan tarmoqlardan biridir. Asosan donli ekinlar yetishtiriladi. Donli ekinlardan buldoy, eng ko'p ekilib, u barcha donli ekin maydonining 2/3 qismini egallaydi. Bundan tashqari donli ekinlardan tariq, sholi, arpa ekiladi. Texnika ekinlaridan paxta, kungaboqar, qandlavlagi ko'proq ekiladi.

Chorvachilik qishloq xo'jaligining ixtisoslashgan tarmoqlaridan biri bo'lib, Ayniqsa qo'ychilik yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari qoramol, yilqichilik, tuyachilik bilan ham qadimdan shugullanib kelishadi.

Iqtisodiy geografik rayonlashtirish

Qozog`iston respublikasida 5 ta iqtisodiy rayon ajratiladi: Markaziy, Sharqiy, G`arbiy va Shimoliy iqtisodiy rayonlar.

1. Janubiy Qozog`iston (Olmaota, Jambul, Qizilo`rda, Toldiqo`rIon va Chimkent viloyatlari) respublika hududining 26.2%ini, aholining esa 37.9% istiqomat qiladi. Mamlakatdagi aholi eng zich yashaydigan hudud hisoblanadi (1 km.kv.ga 10 kishi) Aholisining 42%i shaharlarda yashaydi. Bu iqtisodiy rayonda alohida ajralib turadigan tarmoqlari yo`k Rivojlangan tarmoqlari rangli metallar va fosforit qazib olish, mashinasozlik, paxta va qand lavlagi yetishtirish, sholi, bo`ldorchilik, uzumchilik va boshqalardir.

Bu rayonda Olmaota sanoat uzeli, Chimkent va Qoratorv—Jambul TICHK lari rivojlangan.

2. Markaziy Qozog`iston. (Jezkazgan va Qarag`anda viloyatlari) respublika hududining 15,9% i aholisining esa 11,4%i to`Iri keladi. Aholisining 82% i shaharlarda yashaydi. Mamlakatning eng urbanizasiyalashgan qismi hisoblanadi Bu rayon nafaqat Qozog`istonda balki MDHdagi eng yirik ko`mir va temir rudasi havzasi hisoblanadi. Bu yerda rangli metallurgiya, mashinasozlik va ximiya sanoati xam yaxshi rivojlangan. Jezqazlan—Balxash TICHKsi sanoat mahsulotining 1\5 qismini beradi.

3. Shimoliy Qozog`iston (Ko`kchatov, Kustanay, Pavlodar, Shimoliy Qozog`iston, Ostona viloyatlari). Respublika hududining 20.9% i, aholisining 27.2 %i to`Iri keladi. Aholi zichligi 1 km.kv.ga 8 kishini tashkil etadi va 49%i shaharlarda istiqomat qiladi. Milliy tarkibida ruslar ko`pchilikni tashkil etadi. Iqtisodiy rayon elektroenergetika, qora va rangli metallar qazib olish va boyitish, don yetishtirish va chorvachilikka ixtisoslashgan. Bu rayonda Pavlodar —Ekibastuz TICHKsi rivojlangan.

4. Sharqiy Qozog`iston. (Sharqiy Qozog`iston—Semipalatinsk oblasti). Rayon respublika hududining 10.2%, aholisining esa 10.8%i to`Iri keladi. 1 km.kv.ra 7 kishi, aholisining 57% shaharlarda yashaydi. Ixtisoslashgan tarmoqlari rangli metallurgiya, gidroelektronika, don yetishtirish hamda rekreasion resurslaridir (Oltoy Tog` yonbaIri, ko`plab daryo va ko`l bo`ylari). Semipalatinsk—asosiy agrosanoat kompleksi markazi hisoblanadi. Bu yerda chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlari qayta ishlanadi.

5. G`arbiy Qozog`iston (Aktyubinsk, g`arbiy Qozog`iston, Mang`ishloq va Atirau viloyatlari). Respublika hududining 26%i, aholisining 12.7%ini tashkil etadi. Jami aholining 58%i shaharlarda yashaydi. Mamlakatning asosiy neft ggaz mintaqasi hisoblanadi. Bundan tashqari ximiya sanoati, xrom va nikel qazib chiqarish, chorvachilik, baliqchilik yaxshi rivojlangan.

Qirg`iziston Respublikasi

Respublika hududi 198.5 ming km. kv. bo`lib, Markazny Osiyo davlatlari orasida to`rtinchi o`rinda turadi. Aholisi 4.5 mln. kishi. Aholi zichligi 1 km. kv. ga 21 kishi to`Iri keladi. Respublika ma`muriy jihatdan oltita viloyatga bo`linadi: Chuy

(yaqin vaqtlargacha Bishkek atrofidagi respublikaga bo'ysunuvchi rayonlar guruhi edi), Issiqko'l, Norin, Hsh, Jalolobod va Talas viloyatlari.

Qirg'iziston respublikasi halqaro mehnat taqsimotida ko'pchilik (go'sht—jun yetishtirish), go'sht—sut chorvachiligi, yengil va oziq—ovqat sanoati, oltin qazib olish, rangli metallar, surma (MDH da I—o'rin), simob, gidroenergetika, qishloq xo'jaligi va elektroenergetika mashinasozliklari bilan ishtirok etadi.

Tabiiy sharoiti va boyliklari

Qirg'iziston respublikasi Tog'li respublika sifatida ajralib turadi. Bu yerda Tyan—shan va Pomir—Oloy sistemalarining Tog' tizmlari o'tgan. Tog'larning baland cho'qqilari—G'alaba (7439m) va Lenin cho'qqilari (7134) ham respublika hududida joylashgan. Yuksak Tog' zanjirlarining cho'qqilari abadiy qor va muzliklar bilan qoplangan. Respublika hududining 1G'3 qismi dengiz sathidan 3000 m va undan balandda joylashgan. Norin, Qoradaryo, Talas, Chuv va boshqa sersuv daryolar huddi shu Tog'lardan boshlanadi. hududining yarmiga yaqini 1000—3000 m balandda joylashgan. Tog' vodiylari va yaylovlar xalq xo'jaligi uchun katta ahamiyatga egadir. hududining 30% ga yaqin qismini o'rmonlar qoplagan.

Daryolarning asosiy qismi Tog' daryolari bo'lganligi sababli sulorish va gidroenergetika sifatida katta ahamiyatga ega. Gidroenergetika resurslari bo'yicha MDHda Rossiya va Tojikistondan keyingi o'rinda turadi. Daryolari orasida Norin kaskadlari katta ahamiyatga egadir. Qirg'iziston respublikasida Yirik oltin konlari (Issiq ko'l oblastida), surma va simob (O'sh viloyatidagi Qadamjoy va haydarkent) rudalari, Toshko'mir konlari va ko'ngir ko'mir konlari (Toshko'mir, Hangan, Ko'k yonloq), Farg'ona vodiysida qisman neft va gaz konlari topilgan. Rangdor metallurgiya Qirg'izistonning ixtisoslashgan tarmoliga aylandi.

Aholisi

Qirg'izistonda 80 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qilishadi. Jami aholisi 4.5 million kishi. Aholisining asosiy (70%) daryo vodiylari va Tog' etaklarida, hududining 15% ida yashashadi. Tog'lar bilan yaylovlarda doimiy yashaydigan aholi kam. Respublika aholisining 38 % i shaharlarda, 63% i esa qishloqlarda yashaydi. Aholisining milliy tarkibida qirg'izlar ko'pchilikni tashkil -etadi. Jami aholining 60% ga yaqini qirg'izlardir. Bundan tashqari o'zbeklar (asosan, O'sh va Jalolobod viloyatlarida yashashadi), ruslar, ukrainlar (shimolida), tatarlar, qozoqlar, tojiklar, dungan va boshqalar yashashadi.

Xo'jaligi

Qirg'iziston xo'jaligi Markaziy Osiyo davlatlari xo'jaligidan farq qiladi. Respublikada mashinasozlik sanoati, Ayniqsa ko'p mehnat talab qiladigan—elektronika, radiotexnika, priborsozlik hamda qishloq xo'jalik mashinasozligi yaxshi rivojlangan. Bishkekda avto—yig'uv va fizika priborlari zavodlari, Qirg'izkabel, Qirliz elektrodvigatel, Moylisoy lampa zavodi va boshqa yirik korxonalar hisoblanadi.

Qirg'izistonning yengil sanoat korxondlari shoyi va jun gazlamalar, trikotaj, tikuvchilik buyumlari, poyabzal va boshqa keng iste'mol buyumlari ishlab chiqaradi.

O'sh shahrida Markaziy Osiyoda yirik korxonalardan biri-shoyi to'quv kombinati va ip gazlama kombinati joylashgan.

Oziq-ovqat sanoatida shakar, go'sht, konserva va tamaki ishlab chiqarish muhim tarmoqlaridir. Qand-shakar sanoati respublikaning shimolidagi Chuy vodiysida rivojlangan.

Respublika qishloq xo'jaligi mayin junli va yarim mayin junli qo'ylar boqishga, sut-go'shg qoramolchiligi, yilqichilik, paxtachilik (O'sh viloyatida) qandlavlagi, meva va sabzavot, donli ekinlar yetishtirishga ixtisoslashgan.

Chorvachilik respublika qishloq xo'jaligining asosini tashkil etadi. Qirg'izistonning pichanzor va yaylovlari (8 mln. ga. dan ko'proq), qirg'iz xalqining chorvachilikdagi qadimiy katta tajribasi chorvachilikni intensiv rivojlantirishga imkon beradi. Chorvachilikda qo'ychilik yetakchi tarmoqdir. Qo'ylarning ko'pligi bo'yicha Markaziy Osiyoda Qozog'istondan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Chorvachilikning sut-go'sht qoramolchiligi uchun sharoit yetarlidir. Bular asosan, Chuy va Talas vodiylarida, Issiqko'l bo'yida, respublikaning janubig'arbida boqiladi.

Iqtisodiy geografiya rayonlari

Qirg'iziston respublikasida yetita iqtisodiy rayon ajratiladi. Ular o'z navbatida uchta yirik iqtisodiy zonaga birlashtirilgan: (Chuy, Issiqko'l, Talas) Markaziy (Norin), Janubiy (O'sh-Jalolobod, Quyi Norin va Qadamjoy—Haydarkent).

Shimoliy Qirg'iziston—Respublikasining xo'jaligi rivojlangan qismi bo'lib (hududning 2/5 qismi aholisining 50%), Qirg'iziston Olatovi etaklarida joylashgan. Chuy vodiysida aholi zichligi eng yuqori bo'lib 1 km.kv.ga 75 kishi to'iri keladi, sanoat mahsulotning 2/3 qismi, respublikada yetishtiriladigan donning 2/5 qismini, sabzavot va uzumning asosiy qismini yetkazib beradi. Bu yerda lalmikor yerlar ko'pchilikligi tashkil etadi. Bu mintaqa iqtisodiy zonaning rivojlangan qismi hisoblanadi. Mamlakat poytaxti Bishkek shahri ham shu yerda joylashgan. Shaharda yirik qishloq xo'jaligi mashinasozligi, avtomobil yilish, elektron hisoblash mashinasi, charm—poyabzal, trikataj va sanoat korxonalari ishlab turibdi.

Issiqko'l vodiysi pastki qismida dehqonchilik, baliqchilik, Tog' yonbalrida esa chorvachilik bilan shugullanishadi, shuningdek bo'dorchilik ham yaxshi rivojlangan. Bundan tashqari dorivor ko'knori va tamaki ekiladi. Asosiy tarmoqi Tog'—yaylov chorvachiligi va u bilan bolliq yilqichilikdir. Iqtisodiy rayon boshqa rayonlarga ham zotdor otlar yetkazib beradi. Issiqko'l nafaqat respublikada balki MDH dagi yirik dam olish maskani hisoblanadi.

Talas vodiysi Shimoliy Qirg'izistondagi eng kam rivojlangan. Bu yerda asosan Qirg'iziston uchun xos bo'lgan qo'ychilik bilan shugullanishadi. Shuningdek don yetishtirish, tamaki va ko'knori yetishtirish yo'lga kuyilgan.

Janubiy Qirg'iziston respublika hududining 33%ini aholisining esa 43% ini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km. kv. ga 27,5 kishi to'iri keladi. Xo'jaligining o'ziga xos tarmoqlari—gidroenergetika, Tog'—kon sanoati (ko'mir, rangli metallar), paxtachilik (Respublikadagi barcha paxta ekiladigan hududlar shu yerda)dir. Tog' yonbalirlarida lalmikor dehqonchilik rivojlangan. O'sh-O'rta Osiyodagi eng qadimiy shaharlardan biridir. O'rta asrlarda bu yerdan ipak yo'li o'tgan. hozir O'sh

Tojikistonning Tog`li Badaxshonga boradigan asosiy avtomobil yo`li o`rgan. Shaharda qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari ishlab turibdi.

Tog`—kon sanoatining rivojlanishi natijasida bir qancha ishchi pasyolkalari tashkil topdi. Bular Sulyukta, Qizil—qiya, Ko`k yonloq, Toshko`mir va boshqalardir. Rangli metallar qazib olish va boyitish asosida yirik sanoat markazlari—Moylisoy, Haydarkent, Qadamjoy tashkil topdi.

Markaziy Qurg`iziston—Respublika hududining 26% ini, aholisining esa 6% ini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km.kv. ga 5,5 kishi to`g`ri keladi, Iqtisodiy rayonning asosiy boyligi—Norin daryosi va uning irmoqlaridagi gidroenergiya resurslari, hamda bepayon yaylovlaridir.Foydali qazilmalari hali tuliq o`rganilmagan. Aholisi asosan chorvachilik bilan shuullanishadi. Chorvachilikda qo`ychilik yaxshi rivojlangan. Respublikada yetishtiriladigan junning 1\5 qismi tashkil etadi.

Norin—markaziy iqtisodiy rayonning sanoat va administrativ markazidir.

Tayanch so`zlar.

Geografik o`rni, tabiiy sharoit, tabiat, aholisi, aholisining kelib chiqishi, aholi soni, aholisi joylashishi. Xo`jaligi, xalq xo`jaligi tatmoqlari, sanoati, tog`-kon sanoati, undiruvchi, qayta ishlovchi.Qishloq xo`jaligi, paxtachilik, dehqonchilik, bog`dorchilik, chorvachilik, qo`ychilik, qoramolchilik. Tashqi iqtisodiy aloqalar, ichki rayonlar, iqtisodiy rayonlari.

8-MAVZU. TURKMANISTON DAVLATI VA TOJIKISTON RESPUBLIKASI UMUMIY TA`RIF

REJA:

1. Geografik o`rni.
2. Aholisi.
3. Xo`jaligi..
4. Iqtisodiy rayonlari.

Turkmaniston respublikasining maydoni 488.1 ming km.kv bulib, maydoni bo`yicha MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog`iston, Ukrainadan keyin 4—o`rinda, Markaziy Osiyoda esa ikkinchi o`rinda turadi.

Aholisi 4.5 mln. kishi. Aholi zichligi 1 km.kv.ga 92 kishi ga to`Iri keladi.

Turkmaniston respublikasi industrial—agrar mamlakat bo`lib, iqtisodiyotining asosini sanoat tashkil etadi. Xalqaro mehnat taqsimotida neft—gaz qazib chiqarish va paxta yetishtirish bilan ishtirok etadi. Turkmaniston respublikasi chetga asosan, neft va neft mahsulotlari, natriy sulfat, elektroenergiya, sement xom ashyosi, paxta yo`li, poliz ekinlari, qorako`l terisi eksport qiladi. Bundan tashqari Turkmanistondan neft sanoati uchun mashina va uskunarlar chetga sotiladi.

Tabiiy sharoiti va boyliklari

Turkmaniston respublikasi tabiiy sharoitining o`ziga xosligi bilan MDH davlatlaridan farq kiladi. Respublika hududining 80% qismi dengiz sathidan 200 m gacha bo`lgan tekisliklardan iborat. Kaspiy bo`yi past tekisligidan janub tomonga asta—sekin ko`tarilib boradi. 12% hududi Tog` oldi. 8% esa Tog`liklardan iborat

(Turkman —Xuroson Tog` sistemasi). Bu yerda dunyodagi eng katta cho'llardan biri Qoraqum cho'li joylashgan. Markaziy Osiyodagi eng qurloqchil respublika bo'lib hisoblanadi. Cho'llarda doimiy oqar suvlar yo'k. Yerni sug'orish maqsadida kanallar qazilgan.

Mineral resurslar

Turkmaniston respublikasi yirik gaz zahiralari bilan ajralib turadi. Gaz qazib olish bo'yicha Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Gaz zahiralari deyarli barcha viloyatlar hududidan qazib olinadi. Neft zaxiralari asosan Kaspiy buyida xamda dengiz relflarida joylashgan. Neft konlarida yulduz gazlar xam uchraydi.

Turkmaniston respublikasida temir rudasi va rangli metallar nixoyatda kam. Lekin respublika ximiyaviy xom—ashyolarga boyligi bilan xam ajralib turadi. Bundan tashqari qurilish materiallari xam kup. Bu yerda oltingugurt konlari (Chorjo'y viloyatining janubi—sharqidagi Gourdak koni) yodobromli suv (Cheleken yarim orolidagi va Nebit Dogda). Mineral tuzlar (Jora—buroz—kol qo'ltilida, Kaspiy bo'yida va boshqalar), sement xom—ashyosi (Bezmein), ozokerit va boshqalar topilgan. Respublikada Chorjo'y superfosfat zavodi, Mariy azot—tuk zavodi ishlab turibdi.

Yer resurslari. Respublikada yer resurslari ko'p bo'lib, sanoat qurilishi uchun qiyinchilik tuldirmaydi. 6—7 mln.ga yerda suv dehqonchilik qilinishi mumkin, lekin suv tanqisligi sababli 1 mln.ga yer suv beriladi xolos. Cho'llardan chorvachilikda yaylov sifatida foydalaniladi. Iqlimning issiqdigi bu yerda subtropik ekinlar yetishtirishga imkon beradi. (Respublikaning janubi va janubi-sharqi).

Suv resurslarining asosiy qismini Amudaryo tashkil etadi. (95%). Murg'ob, Tedjen, Atrek daryolari sug'orish uchun ishlatiladi. 1 km.kv.ga hisoblaganda MDH davlatlari orasida eng kam, 1 km² uchun 0,94 ming m³ (MDHda bu ko'rsatkich 190 ming m³).

Aholisi

Aholisi 4,5 mln. kishi. Milliy tarkibida turkmanlar ko'pchilikni tashkil etadi. (72%), bundan tashqari ruslar 9.5%, o'zbeklar 9%, qozoqlar 25%, tatarlar 1.1%, ukrainlar 1%, ozarbayjon, armanlar, yevreylar va boshqa millat vakillari istiqomat qiladi. Aholisining 45%i shaharda yashaydi. Yirik shaharlari Ashgabat, Tedjen, Chorjo'y, Mari, Turkmanboshi va boshqalar. Turkmaniston mustaqillikka erishgandan keyin kuplab Yevropa millatiga mansub kishilar ko'chib ketishdi. Turkmaniston aholisi asosan mamlakatning janubi, sharqi va g'arbii qismlarida joylashgan. Aholi voha tipida va lentasimon joylashgan. O'zbeklar asosan, Toshovuz viloyatida istiqomat qiladi.

Xo'jaligi

Respublika xalq xo'jaligida yoqilgi energetika majmuasi, yengil sanoat va agrosanoat majmuasi tarmoqlari katta ahamiyatga ega, Yirik energetika kompleks i, Neft asosan Kaspiy bo'yidagi konlardan neft kuvurlari orkali Turkmanboshiga (sobiq Krasnovodsk) keltiriladi. Keltirilgan neftning bir qismi dengiz yo'li orqali eksportga jo'natilsa, bir qismi mahalliy neftni qayta ishlash zavodlarida qayta ishlanadi. Zavoddan chiqqan mazut va yulduz gaz mahalliy IESlarda yoqilgi sifatida

ishlatiladi. Neft mahsulotlarining bir qismi yana eksportga ketadi. Chorjo'y yaqinidagi Seydi (sobiq Neftezavodsk) shahrida 80—yillardan beri yirik neftni qayta ishlash zavodi ishlab turibdi.

Gaz deyarli barcha viloyatlarda bir necha o'nlab konlardan qazib olinadi. (Toshovuzdan boshqa). Gazning asosiy qismi O'rta Osiyo -Markaz magistral gaz quvurlari orqali eksport qilinadi. Bir qismi esa IESlarida yonilli sifatida ishlatiladi. Masalan: Mariy GRESi. Bundan tashqari Mari shahrida tabiiy gaz asosida azotli o'g'itlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Neft va gaz konlari asosida respublikada neft—gaz—ximiya energiya ishlab chiqarish sikli shakllangan. Lekin neft va gazning asosiy qismi eksportga ketganligi sababli energiya ishlab chiqarish siklining boshlanilich qismi yaxshi rivojlangan. Bu yerda yuqori texnologiyaga ega bo'lgan plastmassa ishlab chiqarish va polimerlar ximiyasi kam rivojlangan.

Respublikada ximiyaviy xom ashyolarni — mirobilit, yod, brom, oltingugurt qazib olish hamda superfosfat zavodi asosida tor—ximiya energiya ishlab chiqarish sikli rivojlandi. Gaurdak oltingugurti Chorjo'y ximiya kombinatiga keltiriladi va bu yerda superfosfat va oltingugurt kislotasi ishlab chiqariladi.

Turkmaniston respublikasida metallurgiya sanoati (kora va rangli) deyarli rivojlanmagan. Mashinasozlik sanoati kam taraqqiy etgan. Bor mashinasozlik korxonalarida ham asosan neft va neft sanoati uchun (Ashlabatdagi neft mashinasozligi, Mariy mashinasozlik zavodi) hamda oziq—ovqat sanoati uchun mashina va dastgohlar ishlab chiqariladi. Bundan tashqari elektrotexnika mashinasozligi (Ashlabad) hamda maishiy xizmat ko'rsatish mashinasozligi (gaz plitalari ishlab chiqarish), metalni qayta ishlash, hamda qishloq xo'jalik texnikalariga xizmat ko'rsatish korxonalari ishlab turibdi. To'qimachilik sanoati deyarli barcha viloyatlarda yaxshi rivojlangan (Turkmanboshidan tashqari). Turkmaniston respublikasi paxta yetishtirish bo'yicha Markaziy Osiyoda O'zbekistondan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Respublikada 1 mln. tonna paxta hosili olinadi. Paxta tolasining bir qismi respublikada qayta ishlanadi, qolgani xorijiy mamlakatlarga eksport qilinadi. Chorjo'ydan janubda asosan ingichka tolali paxta ekiladi. Shuningdek, respublikada ipak qurti boqish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bundan tashqari tabiiy jun asosida to'qimachilik na tikuvchilik korxonalari ishlab turibdi. Turkmaniston respublikasi to'qimachilik sanoatida gilam to'qish yaxshi rivojlangan. Turkman gilamlari jahon bozorida katta obro'ga egadir. To'qimachilik va gilam to'kish markazlari Ashlabad, Mari, Chorjo'y, Nebitdor hisoblanadi.

Oziq—ovqat sanoati mahalliy xom ashyo asosida ishlaydi va paxta moyi hamda turli (go'sht, baliq, sabzavot) konservalar ishlab chiqariladi. KopetdoI etaklaridagi vohalarda bog'lar, uzumzorlar, sabzavot va poliz ekinlari yetishtiriladi. Bular asosan mahalliy ahamiyatga egadir.

Mamlakatdan tashqariga ko'proq poliz ekinlari, jumladan, qovun eksport qilinadi.

Iqtisodiy geografik rayonlari

Turkmaniston respublikasida beshta iqtisodiy rayon ajratiladi. Bular asosan viloyatlar bo'linishiga ham to'liq keladi: Kaspiy KopetdoI, etokdori, Ashgabad viloyati, (Ashgabad viloyati O'rta Amudaryo Chorjo'y viloyati, Turkmaniston Toshovuz viloyati.

Sharqiy Turkmaniston (Kaspiy bo'yi) respublika hududining katta qismini (28%), ya'ni 136.5 ming km. kv ni tashkil etadi. Bu hududda Turkmanistonning asosiy neft va gaz zahiralarini joylashgan. Shuningdek, Kaspiy shelflaridan ham neft qazib olinadi. hududida oqar suvlar deyarli yo'q. Shuning uchun aholi soni ham kam. Mamlakat aholisining 1\10 qismi shu yerda yashashadi. Lekin sanoat rivojlanganligi sababli aholining asosiy qismi (4\5) shaharlarda istiqomat qiladi. Mamlakatda, eng urbanizatsiya darajasi yuqori mintaqadir. Aholining milliy tarkibida Yevropa millatlariga mansub kishilar (ruslar, ukrainlar, yevreylar, armanlar, ozarbayjon va boshqalar) ko'pchilikni tashkil etadi.

Xo'jalikda neft, gaz qazib chiqarish, neftni qayta ishlash sanoat tarmoqlari hamda baliqchilik va qo'ychilik yaxshi rivojlangan Bundan tashqari bu mintaqada rekreasion resurslarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar va sharoitlar yetarlidir.

Kanetdog' etaklari—Ashgabad viloyati. Bu mintaqa respublika hududining 1\5 qismini (ya'ni 19.6 %) egallagan. Maydoni 95,4 ming km.kv. Respublikaning asosiy aholisi shu yerda istiqomat qilishadi. (25%). Aqoli zichligi 1 km.kv.ga 10 kishi to'Iri keladi. Aholisining 3\5 qismi shaharlarda yashashadi. Rayon hududida yirik gaz konlari, sement xom ashyolari topilgan. KapetdOI etaklarida go'zal dam olish maskanlari joylashgan (Feruza).Qoraqum kanali asosida paxtachilik, boIdorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik rivojlangan, cho'l yaylovlarida zsa qo'y chilik bilan shuIullanishadi. Sanoat tarmoqlaridan to'qimachilik, oziq—ovqat sanoati, qurilish materiallari, hamda oyna ishlab chiqarish rivojlangan (Ashgabad).

Bu yerda mamlakatning ilm—fan, madaniy, siyosiy markazi AshIabad shahri joylashgan.

Janubiy Turkmaniston—Mari viloyatini o'z ichiga oladi. Uning hududi respublika hududining 18% ini, aholisining esa 23 % ini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km.kv. ga 9 kishi to'Iri keladi.Qoraqum kanalining o'tishi va ko'plab tabiiy gaz konlarining topilishi (Shorapli, Kara Chop, Shatliq) keng yaylovlar, (?orako'l qo'ylari boqiladi) rayonning xo'jaligini rivojlantirishga imkon berdi. hozirgi paytda Turkmanistonning asosiy ingichka tolali paxtasini (2\5), qorako'lini (1G'2), yilqisini (axoltekin) yetkazib beradi. Mari shahrida yengil va oziq ovqat sanoati, azot o'g'itlar zavodi ishlab turibdi. Mahalliy tabiiy gaz asosida Turkmanistondagi yirik GRES ishga tushirilgan. Bayram—Alida paxta tozalash va yor ekstraksiya zavodi joylashgan. Bundan tashqari boshqa sanoat markazlari Iolotan, Tedjen, Kushka shaharlari bor.

O'rta Amudaryo iqtisodiy rayoni — Chordjo'y viloyati. Respublika hududining 20 % ga yaqin qismini, aholisining 21 % ni tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km 2 ga 8 kishi to'Iri keladi. Rayon Amudaryoning har ikki qirIorida joylashgan. Asosan suIorib dehkonzilik qilinadi. Cho'l zonasidaQorako'l qo'ylari boqiladi. (Sandikli cho'li). Respublikada yetishtiriladigan paxtaning 20 % ini, poliz ekinlarining 25 % ini (Chorjo'y qovunlari) yetkazib beradi. Rayonning janubiy qismida yuqori sifatli oltingugurt konlari (Gourdak), borit, mineral tuzlar (kaliy) konlari topilgan. Rangli metallar konlari topilgan bo'lib, rux qazib olinadi. Chordjo'y shahri temir yo'l va daryo yo'li bo'yida joylashgan. Shuning uchun bu yerda kema va ekskavator remonti zavodi, neftni qayta ishlash, superfosfat zavodi va boshqalar joylashgan.

Shimoliy Turkmoniston—Toshovuz viloyati. Respublika hududiyining 13 % ini (73,6 ming km 3) aholisining esa 20 % ini tashkil etadi. Aholi zichligi 1 km. kub. ga

9 kishi to'Iri keladi. Rayon respublikaning asosiy paxtasini (1G'3) yetkazib beradi. Asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgai. Poliz ekinlari, pillakashlik, jo'xori yetishtirish va qora ko'l qo'ylari boqish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Sanoati asosan qishloq—xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydi.Foydali qazilmalari deyarli yo'q.

Tojikiston Respublikasi

Tojikiston Respublikasi maydoni 143.1 ming km.kv. bo'lib. Markaziy Osiyo davlatlari orasida so'nggi beshinchi o'rinni egallaydi Aholisi 6 mln kishi. Aholi zichligi 1 km. kv. ga 35 kishi to'Iri keladi.

Respublika ma'muriy jihatdan 4 ta viloyatga bo'linadi. Leninobod viloyati (Markazn Xo'jand shahri), Garm viloyati (yaqin paytgacha Respublikaga bo'ysinuvchi rayonlar), Xatlon viloyati (Ko'rlontepa na Ko'lob viloyati) hamda Tog'li Badaxshon avtanom oblasti (Markazi —Xarog shahri).

Keyishgi un yilliklardagi ijtimoiy—iqtisodiy qiyinchiliklar natijasida respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish kamayib bormoqda. Ba'zi bir sanoat korxonalari iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli o'z faoliyatini to'xtatdi. Yirik Ragun GES qurilishi ham to'xtab qoldi. Tojikiston respublikasi xalqaro mehnat taqsimotida paxtachilik kompleksi va rangli metallurgiya sanoati bilan ishtirok etib kelmoqda.

Tabiiy sharoiti va boyliklari

Respublika MDH davlatlarining eng janubida, asosan Pomir-Oloy va Tyan-Shan tor sistemasida (Jurama Tog'lari) joylashgan. hududining atigi 10% qismi dengiz sathidan 1000dan pastda, yarmi esa 3000 m dan balandda joylashgan Respublika hududida nafaqat Markaziy Osiyo, balki MDHdagi eng baland nuqta Kommunizm chuqqisi joylashgan (7495 m). Bu Tog'liklarda Markaziy Osiyodagi yirik Tog' muzliklari joylashgan bo'lib, ko'plab yirik daryolar shu yerlardan boshlanadi. Respublika qo'shni respublikalarga nisbatan suv resurslari bilan yaxshi ta'minlangan. Hidroenergetika resurslari bo'yicha MDH da Rossiyadan keyingi o'rinda turadi.

Xo'jaligi asosan Hisor, Vaxsh,Farg'ona vodiylarida hamda Dar voz va Ulug'Pyotr Tog'lari etaklarida yaxshi rivojlangan.

Qishloq xo'jaligi uchun qulay yerlar 44% (6300 ming ga ni tashkil qilsa, shudgor qilinadigan yerlar atigi 19%ga (1,2 mln.ga) yetadi.

Respublika hududida foydali qazilmalardan rangli metallar (surma, simob), shuningdek osh tuzi (Xo'ja Mo'min koni), ohaktosh, polimetal rudalari (Oltin topgan) vismut, dala shpati va boshqalar topilgan. Tojikistonning shimoliy qismida (Leninobod viloyati) mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan neft (Nefteobod), ko'mir (Sho'rob) gaz va volfram konlari topilgan.

Aholisi

Respublika aholisi 6 mln. kishi bo'lib milliy tarkibida tojiklar ko'pchilikni tashkil etadi. Tojiklar 62% , o'zbeklar 23% , ruslar YU,5%, tatarlar 2 foiz va boshqalardir. Respublikada urbanizasiya darajasi eng past bo'lib (Markaziy Osiyoda) jami aholisining 34%i shaharlarda yashaydi. Yirik shaharlari Dushanbe, Xo'jand, Kulob,Qo'rlontepa va boshqalar Respublika aholisining tabiiy ko'payishi yuqori

bo'lgan payt asosan 1979 —1980 yillarga to'iri keladi. Bu paytda MDH da birinchi o'rinda bo'lgan. Keyingi yillarda mamlakatdagi o'zaro kelishmovchiliklar natijasida aholining o'sishida ham salbiy oqibatlar kuzatilmoqda.

Aholisining asosi qismi hisor, Vaxsh va Farg'ona vodiylarida joylashgan. Leninobod viloyatida o'zbeklar 40% ga yaqinini tashkil etadi.

Tojiklar deyarli barcha viloyatlarda, ruslar asosan shaxarlarda, qirizlar esa asosan Tog' yaylovlarda istiqomat qilishadi.

Respublika iqtisodiyotida yetakchi o'rinni qishloq— xo'jaligi egallaydi. Milliy daromadning asosiy qismi, xalq xo'jaligida band aholining 45% ni qishloq xo'jaligiga to'iri keladi. Sanoat maxsulotlari milliy daromadning 1--3 qismini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi asosan paxtachilikka ixtisoslashgan. Markaziy Osiyoda yetishtiriladigan ingichka tolali paxtaning 50% i Tojikistonga to'iri keladi. Bundan tashqari bog'dorchilik, uzumchilik, ipak qurti boqish va go'sht yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgan. Agar suloriladigan yerlarda paxta, makkajo'xori, poliz ekinlari, boIdorchilik va uzumchilik rivojlangan bo'lsa, Tog'li rayonlarda (lalmikor yerlarda) donchilik hamda boIdorchilik bilan shullullaniladi. Sanoatda yetakchi tarmoqni yengil sanoat egallaydi Asosan to'kimachilik, tikuvchilik, oyoq kiyim fabrikalari, ozik — ovqat sanoatida mevalardan konserva tayyorlash, vinochilik, paxta yo'li ishlab chiqarish yaxshi yo'lga ko'yilgan.

Respublika xalq xo'jaligining rivojlanishi mahalliy elektr — energetika bazasiga tayanadi. Norak GES ining arzon elektr energiyasi va mahalliy xom ashyo asosida janubiy Tojikiston TICHKsi barpo etilgan. Respublika rangli metallurgiyasi qo'rloshin, rux, boyitish, volfram, molibden rudalari, simob, surma korxonalaridan iboratdir. Keyingi yillarda arzon gidroenergetika asosida ximiya sanoati va alyumin sanoati ancha o'sdi.

Iqtisodiy geografik rayonlari

Uncha katta bo'lmagan Respublika hududida 8 ta iqtisodiy rayon ajratiladi, bular o'z navbatida uchta iqtisodiy eonaga birlashtiriladi: Janubiy-g'arbiy Tojikiston, Shimoliy Tojikiston va Janubiy-sharqiy Tojikiston.

1. Janubi-g'arbiy Tojikiston. Respublika hududining 37%ni, aholisining 66% ini tashkil etadi. Aholi zichligi 1km. kv ga 40 kishi to'iri keladi. hisor va Vaxsh vodiylari asosiy paxta yetishtiriladigan yerlar hisoblanadi. Bu yerda asosan ingichka tolali paxta, uzumchilik va boIdorchilik, shuningdek yeryonloq, sitrus mevalari yetishtiriladi.

Yaylovlarda Qorako'l qo'ylari boqiladi. Asosiy sanoat markazi Dushanbe shahri (584 ming kishi)— mamlakat poytaxtidir. Bu yerda. yirik qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalari (to'qimachilik kombinati, go'sht kombinati) hamda to'qimachilik mashinasozligi yaxshi rivojlangan. Bu yerda Janubiy Tojikiston TICHKsi tashkil topgan, uning tarkibida Norak GESi hamda Tursunzoda alyumin zavodi, Vaxsh azotli o'g'itlar ishlab chiqarish zavodi, Yavon elektroximiya zavodlari bor. Qo'riontepa va Kulob shaharlari oziq— ovqat sanoati markazlari hisoblanadi, Qo'riontepada transformator zavodi ishlab turibdi.

2. Shimoliy Tojikiston. Respublika hududining 19% ni, aholisining 31% ni tashkil etadi. Aholi zichligi 1km. kv. ga 57 kishi to'iri keladi. Shimoliy Tojikiston qishloq xo'jaligi rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Dehqonchilik suloriladigan yerlarda ham rivojlangan.

Bundan tashqari Tog` kon sanoati yaxshi rivojlangan. Bu rayonda rangli metallar, ko`mir (Sho`rob) hamda mahalliy ahamiyatga ega bo`lgan neft (Nefteobod) qazib olinadi. Rayonning yirik sanoat markazi Xo`jand shahri bo`lib— bu yerda shoyi to`qish (to`liq siklli), paxta tozalash, konserva zavodi, go`sht kombinati, hamda gilam to`qish yaxshi yo`lga qo`yilgan. Rangli metall konlarining yaqinligi asosida ruda boyitish kombinati ishga tushirilgan. Bundan tashqari boshqa shaharlaridan Isfara (konserva va elektromexanika zavodi), Konibodom (paxta tozalash, yoI—moy ishlab chiqarish) Moxrom (Tojikselmash) va boshqalarni ko`rsatish mumkin. Rayon xo`jaligini rivojlaitirishda Qayroqum GES ining ahamiyati kattadir (126 ming kvk) Xo`jand yaqinidagi Chkalovskda uran qazib olish va boyitish yo`lga qo`yilgan.

Z. Janubiy sharqiy Tojikiston (Tog`li Badaxshon avtanom oblasti), Respublika hududining 44% ini, aholisining esa atiga 3% ini tashkil etadi. Mintaqa asosan sharqiy Pomirni o`z ichiga oladi. Markaziy Osiyodagi eng baland va aholisi eng kam mintaqa hisoblanadi. Rayon uchun Tog` yaylov chorvachiligi xosdir. Bu yerda asosan qo`toslar boqiladi. Rayonningg`arbida uncha katta bo`lmagan hududlarda dehqonchilik bilan shuIullanishadi. Asosan, buIdoy, tariq, no`xat yetishtiriladi. Aholisining ko`pchiligi Pomir tojiklari va Qirlizlaridir. Asosiy markazi Xorog shahri. Bu yerda MDU professori I.V.Shukin tomonidan asos solingan botanika bo`li bor. Rayon gidroenergiya resurslariga boy.

Tayanch so`zlar.

Geografik o`rni, tabiiy sharoit, tabiat, aholisi, aholisining kelib chiqishi, aholi soni, aholisi joylashishi. Xo`jaligi, xalq xo`jaligi tatmoqlari, sanoati, tog`-kon sanoati, undiruvchi, qayta ishlovchi. Qishloq xo`jaligi, paxtachilik, dehqonchilik, bog`dorchilik, chorvachilik, qo`ychilik, qoramolchilik. Tashqi iqtisodiy aloqalar, ichki rayonlar, iqtisodiy rayonlari.

9-MAVZU: O`ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MAYDONI, CHEGARALARI VA GEOGRAFIK O`RNIGA UMUMIY TA'RIF REJA:

1. Maydoni
2. Chegaralari
3. Geografik o`rni

1.Maydoni.

O`zbekiston Turkistonning markaziy qismida joylashgan. Uning hududining asosiy qismi Amudaryo bilan Sirdaryo orasida bo`lib, mo``tadil va subtropik iqlim mintaqalarida joylashgan. O`zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli -sharqida, Orol dengizi qirIolida bo`lib, 450 361 shimoliy kenglikdadir. Eng janubiy nuqtasi esa Termiz shahri yonida, Amudaryo qirIolida bo`lib, 370 111 shimoliy kenglikka to`Iri keladi.

Respublikamizning engg`arbiy nuqtasi Ustyurt platosida 560 001 sharqiy uzoqlikda, eng sharqiy nuqtasi esa O`zbekiston bilan Qirg`iziston chegarasida, Uzman shahri yaqinida bo`lib, 730 101 sharqiy uzoqlikdadir.

O'zbekistonning eng shimoliy nuqtasi bilan eng janubiy nuqtalari orasidagi masofa 930 km, eng g'arbiy nuqtasi bilan eng sharqiy nuqtasi orasidagi masofa esa 1425 km.

O'zbekiston maydoni 448,9 ming kv. km. bo'lib, Norvegiya, G'iniyandiya, Buyuk Britaniya va Italiya kabi davlatlar hududidan katta. O'zbekiston Belgiya, Gollandiya va Daniya kabi davlatlarning yer maydonlarini qo'shib hisoblasak ham ulardan 4marta kattadir. Respublikamiz hududi Shveysariya davlati hududidan 10 marta ziyoddir.

O'zbekiston maydonining kattaligi jihatidan MOD. da uchinchi, MDH. da esa beshinchi o'rinda turadi.

MDH. ga a'zo bo'lgan Belorusiya maydonidan 239,8 ming kv. km., Ozarbayjonnikidan esa 360,8 ming kv. km. ga ziyoddir.

2. Chegaralari. O'zbekiston Respublikasi shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, sharq va shimoli-sharqda Qirg'iziston, sharq va janubi-sharqda Tojikiston, g'arb va janubi-g'arbda Turkmaniston, janubda esa Afg'oniston bilan chegaralanadi. Chegaralarning umumiy uzunligi 5300 km. dan ortiq.

Respublika chegaralari siyosiy va iqtisodiy jihatdan ancha qulayliklarga ega. An'anaviy yaxshi qo'shnichilik tufayli O'zbekiston-Afg'oniston chegarasi chegaralarning eng tinch qismlaridan bo'lib kelgan.

Bu chegara orqali o'z mustaqilligiga erishgan O'zbekiston Afg'oniston bilan va u orqali unga yaqin bo'lgan Hind okeani xavzasi mamlakatlari, birinchi navbatda Pokiston va Hindiston bilan har taraflama keng o'zaro aloqalarni rivojlantirish istiqbollari tobora kengaymoqda.

O'zbekistonning ishlab chiqarish ixtisosi o'xshash bo'lib, bitta yirik iqtisodiy mintaqaga birlashgan Markaziy Osiyo davlatlari bilan tutashligi ayniqsa muhim ahamiyatga egadir.

Keng ishlab chiqarish kooperasiyasini yo'lga qo'yish, xilma-xil va boy tabiiy resurslardan (ayniqsa, mamlakatlarning tutashgan qo'shni hududlarida) birgalikda foydalanish orqali mamlakatlararo hududiy ishlab chiqarish majmualarini tashkil qilish va boshqalar bunday chegaradoshlikning muhim ijobiy yakunlaridandir.

O'zbekiston chegaralarining muhim xususiyatlaridan biri ularning aksariyat qismi tekisliklardan o'tishidir.

Hatto uning bilan ulkan Tog'lar o'lkalari-Qirg'iziston va Tojikiston respublikalari o'rtasidagi chegaralar ham asosan qulay Tog' orali va vodiylari yoki u qadar baland bo'lmagan Tog' tizmalari orqali o'tgan. Ularni bog'lab turadigan transport yo'llari shu sababli iqtisodiy jihatdan qadimdan yaxshi o'zlashtirilgan hududlar orqali tashkil etilgan. Umumiy bu holat, tabiiyki qo'shni davlatlar bilan xilma-xil iqtisodiy aloqalarni tashkil qilishda yanada qo'shimcha qulayliklar tuzdiradi.

3. Geografik o'rni.

O'zbekiston geografik o'rniga ko'ra juda qulay. Chunki uning hududi Turkistonning markazidagi tabiiy sharoiti qulay va tabiiy boyliklarga serob bo'lgan yerlarni o'z ichiga oladi. O'zbekistonning ko'p qismining tekislikdan iborat bo'lishi hamda serunum vohalarning Chirchiq-Ohangaron, Farg'ona, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo, Quyi Amudaryoning mavjudligi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga qulay sharoit yaratib bergan.

O'zbekiston O'rta Dengiz atrofidagi mamlakatlar bilan deyarli bir geografik kenglikda joylashgan. O'rta Dengiz atrofidagi mamlakatlar subtropikka xos landshaft bilan tavsiflanadi.

Lekin O'zbekiston iliq okean va dengizlardan uzoqda, materik ichkarisida joylashganligi tufayli tabiiy sharoiti jihatidan O'rta Dengiz atrofidagi davlatlardan butunlay farq qiladi.

Chunki O'zbekiston hududining shimoliy qismi ochiq bo'lib, qishda shimoldan va shimoli-sharqdan esuvchi sovuq, quruq havo oqimi bimalol ichki qismlarigacha yetib keladi.

Aksincha, janubda baland Tog'larning mavjudligi esa Hind okeanidan esadigan nam va iliq havo massalarini O'zbekiston hududiga o'tishga to'siqlik qiladi. Oqibat natijada O'zbekistonda subtropikka xos bo'lmagan landshaft vujudga kelib, yoz bulutsiz, seroftob bo'lib, jazirama issiq, quruq, qish esa shu geografik kenglik uchun ancha sovuq bo'ladi.

O'zbekiston subtropik iqlim mintaqasida joylashsada, asosan cho'lga xos bo'lgan landshaft bilan tavsiflanadi. G'arat atrofi Tog'lar bilan o'ralgan Surxon-Sherobod vodiysidagina quruq subtropik landshaft mavjud, xolos.

Mamlakatimiz yer usti tuzilishi jihatidan Tojikiston va Qirg'izistondan keskin farq qiladi. O'zbekiston hududining ko'p qismi (71%) dehqonchilik uchun qulay vodiylar, tekisliklar va Tog' oldi tekisliklaridan iborat, bu esa dehqonchilikning barcha tarmoqlarini rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Ma'lumki, O'zbekiston Yevroosiyo materigining deyarli qoq markazida va dunyo okeanlaridan ancha uzoqda joylashgan. Shu sababli dengizga tutash regionlarga xos bo'lgan barcha qulayliklardan respublikamiz mahrumdir. Demak, O'zbekistonning mavjud iqtisodiy-geografik o'rnining barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari ko'p jihatdan ana shu holatdan, shuningdek uni qo'shnichilik xususiyatlaridan kelib chiqadi (qanday davlatlar, iqtisodiy rayonlar, dunyo davlatlari mintaqaviy guruhlariga tutash-yaqinligi, ularning bir-birlariga iqtisodiy ta'sir etish imkoniyatlari). Davlatlarning iqtisodiy-geografik o'rniga atroflicha baho berish Markaziy Osiyo mamlakatlarining hozirgi mustaqil rivojlanishi pallasida alohida ahamiyat kasb etadi.

Joylarning iqtisodiy-geografik o'ni xususiyatlariga muhim ichki va tashqi siyosiy muhitning o'zgarishi, yirik tabiiy boylik manbalarining topilishi va o'zlashtirilishi, muhim transport yo'llarining yoki irrigasiya inshootlarining qurilishi kabilar katta ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonning iqtisodiy -geografik o'ni xususiyatlarini uch jihatdan qarash maqsadga muvofiqdir:

1. Mikrogeografik o'ni:
2. Mezogeografik o'ni:
3. Makrogeografik o'ni:

O'zbekiston hududining mikrogeografik o'ni uning Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan tutgan o'rnidir. O'zbekistonning mezogeografik o'ni uning birmuncha kengroq miqyosdagi mavqei bilan belgilanadi. Bunda MOD. dan tashqari Kavkazorti davlatlari, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Pokiston va Hindistonga, shuningdek Eron, Turkiya orqali Yevropaga chiqish uqlari ochilmoqda.

O'zbekistonning makrogeografik o'rni Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) bilan olib borilayotgan aloqalarda belgilanadi.

O'zbekiston ushbu makrodarajadagi aloqalarini MDH. ning aksariyat davlatlari bilan rivojlantirmoqda. O'zbekistonning hozirgi (2001 y) tashqi iqtisodiy aloqalarining 15,5 foizi Rossiyaga to'liq kelayapti. Yevroosiyo davlatlari Rossiya G'ederasiyasi bilan muntazam aloqada bo'lish O'zbekistonning manfaatlariga mos keladi.

Tayanch so'zlar.

Subtropik iqlim mintaqasi, janubdan-shimolga, sharqdan-jarbga, tabiiy-geografik xususiyatlari. Yer usti tuzilishi. Yevroosiyo materigi markazida. Iqtisodiy-geografik holati. Materik ichkarisi. Okeanlardan uzoqda. Mikrogeografik o'rni. Mezogeografik o'rni. Makrogeografik o'rni. Markaziy Osiyo davlatlari bilan aloqalari. Kavkazorti davlatlari bilan aloqalari. Rossiya bilan aloqalari. Yaqin Sharq mamlakatlari bilan aloqalari.

10-MAVZU. O'ZBEKISTONNING XO'JALIGIGA UMUMIY TA'RIF

REJA:

1. Xalq xo'jaligiga umumiy ta'rif.
2. Sanoati va uning yetakchi tarmoqlari.
3. Qishloq xo'jaligi, uning yetakchi tarmoqlari.

1. Xalq xo'jaligi, uning umumiy ta'rifi.

Tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida O'zbekiston xalq xo'jaligi, uning iqtisodiy rivojlanish darajasi zigzaksimon yo'lni bosib o'tgan. Tarixiy manbalarda keltirilishicha, O'zbekiston o'tmishda Yer kurrasidagi aholi xo'jalik faoliyatig'oyat qizilgan kechgan eng qadimiy o'lkalardan biri bo'lgan. Mamlakatimizning jarb bilan Sharq o'rtasidagi iqtisodiy taraqqiyoti uchun qulay bo'lgan jo'ltrofiy o'rni, saxiy tabiati, boy va rang-barang tabiiy resurslari, mehnatkash va dono xalqi umumbashariy taraqqiyotga asrlar osha o'z ulushini qo'shimcha ob'yektiv sharoit yaratgan. Bundan ming yil burun Sharqning buyuk allomasi Abu Rayhon Beruniy tomonidan Ma'mun akademiyasining ochilishi, hamda o'sha davrda tibbiyot ilmining dahosi bo'lgan Abu Ali ibn Sinoning jahonshumul kashfiyotlari va boshqalar xalqimizning boy madaniy merosidan guvohlik beradi. Binobarin, O'zbekistonda uzoq o'tmishda ilm-fan rivojlangan emas, uning zamirida qudratli davlat va iqtisod bo'lmasligi shubhasiz, mamlakatimiz xalq xo'jaligi XX asrda rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Biroq mamlakat xalq xo'jaligi va uning tarmoqlar taraqqiyoti yo'nalishlarini belgilash o'zgalar qo'lida edi. Negaki, 1860 yillarning o'rtalarida ruslar tomonidan mamlakatimizning birinchi marta va 1917-1920 yillarda esa ikkinchi marta bosib olinishini va yurtimizda o'ziga xos mustamlakachilikning qaror topishi xalq xo'jaligining o'zgalar ehtiyojiga muvofiqlashtirib rivojlantirishga olib keldi.

Mustamlakachilik yillarida O'zbekistonning xalq xo'jaligi bir tomonlama rivojlantirildi. Ya'ni qishloq xo'jaligida paxta yetishtirishga, sanoatda esa paxta yalpi hosilini birlamchi qayta ishlash (ya'ni Rossiya to'qimachlik sanoati uchun xomashyo - paxta tolasi ishlab chiqarish)ga asosiy e'tibor qaratildi. Respublika sanoatining qolgan muhim tarmoqlari ham paxta majmuini rivojlantirishga muvofiq ravishda

taraqqiy qildirildi. 1913 yilda mamlakatimiz hududida 425 ta sanoat korxonasi mavjud edi. Mamlakatimiz xalq xo'jaligi mustaqillik yillarida yangi bosqichga qadam qo'ydi. Bozor iqtisodiyotining birinchi bosqichidayoq (1991-1994) iqtisodiy islohotlarga oid qonunlar qabul qilindi, uning huquqiy negizi yaratildi. Islohotlar hayotning barcha jabhalarini qamrab oldi. 1995 yildan boshlab O'zbekiston jamiyatni isloh qilishning ikkinchi bosqichiga qadam qo'ydi. Ushbu bosqich bozor munosabatlariga o'tish tuzilmalarini shakllantirishni yakunlashni, mamlakat xalq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirishni, milliy valyutani barqarorlashtirishni va uning ichki konvertasiyasini ta'minlash bilan bolliq davlat mulkini xususiylashtirishni yakunlash hamda iqtisodiyotni xomashyo yetishtirib berishdan tayyor mahsulot chiqarishga yo'naltirishni ko'zda tutilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning yuqorida zikr qilingan ikkinchi bosqichida iqtisodiyotni barqarorlashtirish va xalq xo'jaligi uzoq tarmoqlari o'sishini ta'minlash, ishlab chiqarishda aholi keng iste'mol mollariga ko'ra ularning ehtiyojini nazarda tutib o'zgarishlar qilish va boshqa hayotiy masalalar xalq xo'jaligida qator tarkibiy o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, mamlakat xalq xo'jaligining yetakchi sohasi - sanoatda importning o'rnini bosa oladigan tovarlar ishlab chiqarish: neft mahsulotlari, g'alla ishlab chiqarishni ko'paytirish bilan neft mahsulotlari vag'alla mustaqilligini ta'minlash; eksportbop tovarlar ishlab chiqarish miqdorini ko'paytirishga qaratilgan yo'nalishlarga iqtisodiy siyosatda ustuvorlik beradi.

2. Sanoat va uning yetakchi tarmoqlari.

O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari mavjud. Geografik omillar jumlasiga yer sirti tuzilishining holati, iqlimning nisbatan yumshoqligi, tabiiy resurslar (M.: foydali qazilma: ma'dan mineral va yoqilli resurslari), suv resurslari va ular bilan ta'minlash darajasi kiradi. Iqtisodiy resurslarga mehnat resurslari, transport va uning rivojlanish holati kiradi. Shuningdek, uni rivojlantirishda ishlab chiqarishning moddiy-texnika bazasi muhim rol o'ynaydi.

Mamlakatning sanoati rivojlantirishda shu nuqtai nazardan qaraydigan bo'lsak uning istiqbolini ko'rish qiyin emas. Mamlakatimiz yer usti va yer osti boyliklari zahiralarining ko'p va xilma-xilligi, mehnat resursining kattaligi, transport tarmoqlarining yaxshi rivojlanganligi, shuningdek, mamlakatda yagona temir yo'l tizimini yaratish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, xorijiy davlatlar bilan hamkorlikda barpo qilinayotgan yuzlab qo'shma korxonalar ana shu istiqboldan darak beradi.

Ayrim tabiiy resurslarga nazar tashladik. Sanoatni rivojlantirishda tabiiy resurslar (va ayniqsa foydali qazilmalar) bilan ta'minlanganlik alohida o'rin tutadi. Chunki yoqilli-energetika va metallurgiya sanoatining xomashyo (neft, gaz, ko'mir rudasi)larsiz sanoatning undurivchi tarmoqlarini rivojlantirib bo'lmaydi. Ishlab beruvchi sanoatning ko'pchilik tarmoqlari uchun ham xomashyoni asosan ana shu undiruvchi sanoat yetkazib beradi.

Suv resurslari ham sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishda alohida omil hisoblanadi. U sanoatni hududiy joylashtirish va rivojlantirishda qatnashadi. Har qanday sanoat tarmoli (va hattoki, alohida olingan sanoat korxonasi) ozmi ko'pmi suv iste'mol qiladi. Ayni bir paytda mamlakatimizda suv zahirolari chegaralangan. Buning respublika qihloq xo'jaligi asosan su'lorishga tayanadi. Shuning uchun ham

mamlakatda sanoatni uning markazlarini barpo qilayotganda mazkur hududlarning suv resurslarini hisobga olish zarur. Sanoatni joylashtirish va rivojlantirishga suv zahiralari hisobga olish “Orol inqirozi” vujudga kelgan O‘zbekiston rangli metallurgiya sanoatining ko‘rki oltindir. Mamlakatimiz hududidan 30 ta oltin koni topilgan. “Oltinning asosiy zahiralari oltin konlarining o‘zida Markaziy Qizilqumda joylashgan bo‘lib, tasdiqlangan zahiralari bo‘yicha respublikani dunyoda to‘rtinchi o‘ringa olib chiqdi”. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston oltin qazib olish bo‘yicha jahonda yettinchi o‘rinda chiqib oldi. Ushbu nodir va sifati jihatidan jahonda tengi yo‘q oltin sanoatini tashkil qilish va rivojlantirish orqali O‘zbekiston iqtisodiy taraqqiyotining kamol topishlarini yana bir polona balandga ko‘taradi.

O‘zbekiston sanoat ishlab chiqarishida yengil va oziq-ovqat sanoatining ham ulushi katta. Ayniqsa mamlakat sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar tarixan yetakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, pillani qayta ishlashi va shoyi (atlas) to‘qish vino materiallari konserva mahsulotlari, o‘simlik yo‘li va boshqa sanoat turlaridir. Jumladan, yoqilli va elektr-energetika sanoati birlikda yoqilli energetika majmuini, mashinasozlik sanoat tarmoqlari mashinasozlik majmuini, qora va rangli metallurgiya majmuini, yengil va oziq-ovqat sanoatlari aholi keng istemol qiladigan mollar ishlab chiqarish majmuini tashkil qiladi.

3.Qishloq xo‘jaligi va uning yetakchi tarmoqlari.

Respublika xo‘jaligining muhim tarmoli bo‘lib, u aholini oziq-ovqat bilan taminlaydi, moddiy farovonligini oshirishda juda katta ahamiyat kasb etadi. Mamlakat qishloq xo‘jaligi intensiv rivojlangan, texnikalashgan dehqonchilik madaniyatini yuksak darajada ko‘targan ixtisoslashtirishni ichki geografik rayonlararo yo‘lga qo‘ygan va chuqurlashtirgandi. Biroq O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi “O‘zbekiston mamlakatining asosiy paxta bazasi” shiori amalda edi. Ya‘ni qishloq xo‘jaligida bittagina uzoq soha bor edi. U ham bo‘lsa paxta edi.

Endilikda mustaqil O‘zbekiston xalq xo‘jaligining muhim sohasi qishloq xo‘jaligidagi bir tomonlama ish tutishning olir asoratini boshidan kechirmoqda. Ziroatchilik qilinadigan yerlar tuproqning teng yarimining sho‘rlanib ketganligi, ziroatchilik qilish madaniyatida, yani paxtadan boshqa soxalar bo‘yicha agrotexnika tadbirlarining unum bo‘lganligi aholini birlamchi qishloq xo‘jalik mahsulotlari (birinchi navbatda don va un) bilan taminlashdagi qiyinchiliklar paxta yakkahokimligining asoratidir. Zikr qilingan ob‘yektiv holatlar Respublika hukumati tomonidan chuqur tahlil qilinadi, qishloq xo‘jaligi, uning tarmoq tuzilishi qayta ko‘rib chiqiladi. Paxta yakkahokimchiligiga nuqta qo‘yildi, aholini birlamchi ehtiyojini qondirishga xizmat qiladigan tarmoq (va birinchi navbatda buldoy yetishtirish)ga asosiy e‘tibor qaratildi.

Ayni paytda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ko‘p tarmoqli bo‘lib, unga paxtachilik bilan birga g‘allachilik, kanopchilik, mevachilik, uzumchilik, sabzavot va polizchilik, qoramolchilik, qo‘ychilik, parrandachilik, yilqichilik, asalarichilik, pillachilik sohalari kiradi. Mazkur tarmoq ham bug‘doychilik, arpachilik, makkajo‘xorichilik, chorvachilikning qo‘ychiligida qoramolchilik, hitori qo‘ychilik va ho.

Respublika aholisining 60 foizidan ortig‘i (uning ayrim viloyatlarida esa 80 foizi) qishloqlarda yashaydi. Mamlakatda ishlab chiqariladigan yalpi ijtimoiy mahsulotni 26-27 foizi milliy daromadining esa 45 foizi qishloq xo‘jaligida

yaratildi. Qishloq xo'jalik ilmiy ishlab chiqarish markaziga aylantirildi. Yuqorida zikr qilingan holatlar mamlakat qishloq xo'jaligida boshqaruv tizimining murakkab ekanligini ko'rsatadi. Biroq respublikaning qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy ishlar va umumiy siyosatni faqat qishloq va suv xo'jaligi vazirligi amalga oshiradi. Ayrim sohalarda chuqur ixtisoslashuvga ko'ra esa qishloq xo'jaligidagi bir qator korxonalar. "O'zmevasabzavotuzumsanoat", "Jorako'l", "Pilla", "O'zparrandasanoat", "Asal" kabi uyushma va respublika ishlab chiqarish birlashmalariga qaraydi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi turli xil geografik imkoniyatlarga ega bo'lgan mintaqalarda yuritiladi. Shu jihatdan geograf olimlar tomonidan mamlakat xuddi uchta zonaga bo'lingan. Ular: 1. Tog' va Tog'oldi zonasi. Zona respublikaning 21,5%ini ishlatiladi. Uning baland qismida archazorlar va yoz yaylovi uchun o'tloqzorlar bor. Uning Tog'oldi qismi bahorikor yerlar bo'lib, undag'alla xashaki ekinlar ekish, bo'dorchilik, uzumchilikni rivojlantirish mumkin. 2. Suiloriladigan zona. U mamlakat hududining 18%ini qamrab oladi. Mazkur zona Farg'ona vodiysi, Chirchiq, Ohangaron, Zarafshon, Qashqadaryo vohalari, Surxon-Sherobod vodiysi, Quyi Amudaryoni o'z ichiga oladi. 3. Cho'l-yaylov zonasi. Uning maydoni mamlakat hududining 60%idan ko'proqdir. Bu zona mamlakatning qorako'l qo'ylari boqiladigan istiqbolli zonasidir.

O'zbekistonning Yer fondi. U 45 mln.ga yaqin. Shundan 28 mln.gektarni qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlardir. Yer fondining asosiy qismi suilorishga yaroqli bo'lgan yerlar hisoblanadi va uning umumiy maydoni 5 mln.ga atrofida, ya'ni umumiy yer fondining atigi 11,11 foiziga teng.

Mamlakat yer maydoni va uning taqsimoti (ming, ga)

	Umumiy yer maydoni	Barcha qishloq xo'jalik yerlari	Shundan		
			Haydal magan yer	Pichan-zorlar	Yaylov yer
Jami yer	44797,7	27987,1	4474,5	109,4	2288,6
Qishloq xo'jalik korxonalari yerlari	31970,0	259225,2	4458,8	107,4	20824,6
Shundan: Dehqon (fermer) xo'jaliklari yerlari	82,2	76,8	32,9	93	42,1
Fuqoralar yerlari	571,3	477,5	282,5	-	-

Zahiradagi va o`rmon xo`jaligi yerlari	10203,9	1975,3	9,0	2,0	1954,1
Boshqa toifadagi yerlar	2623,8	86,6	6,7	-	76,9

Respublika yer fondining 62 foizi qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer turlariga kiradi. Hozirgi vaqtda sulorilib ziroat qilinadigan yerlar 9,2 foizga teng. Biroq u qishloq xo'jaligidan yetishtiriladigan yalpi mahsulotning 90 foizidan ortilini beradi.

Tayanch so'zlar.

Xalq xo'jaligi tushunchasi. Xalq xo'jaligining tarkibiy qismlari. O'zbekiston xalq xo'jaligining yaqin tarixi va uning muhim qirralari. Mamlakat xalq xo'jaligini isloq qilish va unda bozor munosabatlarining shakllanish jarayoni.

Sanoatning mamlakat xalq xo'jaligida ahamiyati. Uning tarmoqlar tizimi. Tasniflanishi. Ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish. Iste'mol buyumlar chiqarish. Ularning nisbati va mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni. O'zbekiston sanoatida mustaqillik yillarida yuz bergan muhim o'zgarishlar.

Jishloq xo'jaligi xalq xo'jaligining muhim tarmoqi. Qishloq xo'jaligining sanoat ishlab chiqarishdan farqi jihatlar.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston xalq xo'jaligi boshqaruv tizimining o'zgarishi va uning muhim qirralari. O'zbekiston xalq xo'jaligi tarmoq tuzilishida yuz bergan tub o'zgarishlar.

11-MAVZU. O'ZBEKISTONNING MA'MURIY-HUDUDIIY BO'LINISHI VA IQTISODIIY RAYONLARI.

REJA:

1. O'zbekistonning ma'muriy- hududiy bo'linishi.
2. O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari.

1. O'zbekistonning ma'muriy hududiy bo'linishi.

Ko'hna tarixga ega bo'lgan O'zbekiston uzoq va yaqin o'tmishda bir necha marta qayta tashkil qilingan bo'ldi, turli nomlar bilan ataldi. Qadimda u Turon, Turkiston, Movorounnahr nomlari bilan dunyoga ma'lum va mashhur edi. Ayniqsa, buyuk sohibqiron Amir Temur zamonasida O'zbekistonning, uning Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarining nomi “ yetti iqlim” ga ketgan edi.

Oktabr to'ntarishidan avval O'zbekistonning hozirgi hududi ma'muriy jihatdan Turkiston general-gubernatorligi, Buxoro amirligi va Xiva xonligiga qarar edi. Xiva xonligi 20 ta beklik va boshqa ma'muriy birliklarga, Buxoro amirligi 28 ta beklik, Turkiston general-gubernatorligi esa viloyat, uyezd, volost va qishloq jamoalariga bo'lingan edi. 1918 yil 30 aprelda bo'lib o'tgan O'lka Sovetlarining V

s'yezdi "Rossiya G'ederasiyasining Turkiston Sovet Respublikasi haqidagi Nizom" ni tasdiqladi. Turkiston Muxtor Sovet Sosialistik Respublikasi 6 ta viloyatga: Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Zakaspiy, Yettisuv, Amudaryo viloyatlariga bo'lingan edi. Viloyatlar, o'z navbatida, 30 ta uyezdga va 473 ta volostga ajratilgan edi.

1920 yil aprelida Butun Xorazm qurultoyi bo'lib o'tdi: unda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e'lon qilinib, uning hududi 28 ta rayonga ajratildi, 1924 yilga kelib esa uchta viloyatga Qozoq-Joraqalpoq, Yangi Urganch, Toshovuz viloyatlariga va Xiva rayoniga bo'lindi. Viloyatlar, o'z navbatida, sho'ro (volost) larga ajratildi.

1920 yil oktabrida xalq vakillarining Butun Buxoro qurultoyi bo'lib o'tdi: unda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tuzilganligi e'lon qilinib, uning hududi 15 ta viloyat, 58 ta tuman va 197 ta kentga bo'lindi.

Ma'lumki, 1924 yilda O'rta Osiyoda milliy davlat-chegaralanishlari o'tkazilib, O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi tashkil qilindi.

1925 yil 29 yanvarda Respublikada yangi ma'muriy bo'linish joriy etildi. Bu bo'linishga ko'ra Respublika hududi 7 ta viloyatga: Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Zarafshon, Surxondaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlariga ajratildi. Samarqand shaxri Respublika markazi etib (poytaxti) tasdiqlandi.

1930 yilda Respublika poytaxti Samarqanddan Toshkentga ko'chirildi. 1936 yilda Qoraqalpiston MSSR O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi. 1937 yilda O'zbekiston SSR konstitusiyasi qabul qilingach, Respublikaning ma'muriy-hududiy bo'linishi ma'muriy birliklarni yiriklashtirish va yangi viloyatlar tuzish yo'lidan bordi.

1938 yilda Respublika tarkibida 5 ta viloyat Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona, Xorazm viloyatlari tashkil qilindi;

1941 yilda Andijon, Namangan va Surxondaryo viloyatlari, 1943 yilda Qashqadaryo viloyati, 1963 yilda Sirdaryo viloyati, 1973 yilda Jizzax viloyati va 1982 yilda Navoiy viloyati tashkil etildi.

Shunday qilib hozirgi kunda (2003 yilda) O'zbekiston davlati hududida ma'muriy jihatdan bitta respublika 12 ta viloyat, 163 ta rayon mavjud.

2. O'zbekistonning iqtisodiy rayonlari.

Mamlakatimizni ma'muriy-hududiy birliklarga ajratish bilan birga uni iqtisodiy rayonlarga ajratish ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir. Odatda, respublikaning ichki iqtisodiy rayonlari (hududiy ishlab chiqarish majmualari) chegarasi asosan viloyatlar chegaralariga mos keladi. Chunki ishlab chiqaruvchi kuchlarni majmui, ya'ni xo'jalik tarmoqlari korxonalarini bir-biriga bolliq xolda rejalashtirish, joylashtirish va rivojlantirish yirik ma'muriy birliklar (respublika, viloyatlar) doirasida amalga oshiriladi.

Lekin ayrim hollarda turli ko'rsatkichlarga, masalan, tarixiy rivojlanish xususiyatlari, mustahkam iqtisodiy aloqalar, yagona resurslar va infratuzilma, ishlab chiqarish aloqalari, rivojlanish istiqbollari qarang mamlakat ichidagi iqtisodiy rayonlar bitta emas, balki bir nechta viloyatni o'z ichiga olishi xam mumkin. (m: Farg'ona iqtisodiy-geografik rayoni va h.k.)

Shuningdek, bundan boshqa sabablar ham bo'lishi mumkin. Jumladan, ba'zi viloyatlar sanoat jixatidan yuqori darajada rivojlanmagan bo'lsa, uni alohida rayon (hududiy ishlab chiqarish majmui) sifatida ajratmay, xo'jalik ixtisosi o'xshash

bo'lgan qo'shni viloyatlar bilan birlashtirish mumkin (m: Mirzacho'l, Qo'yi Amudaryo).

Umuman rejalashtirish, xususan, ishlab chiqaruvchi kuchlarni rejalashtirish, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va rivojlantirishning samaradorligini oshirish uchun ma'muriy birliklar bilan hududiy ishlab chiqarish majmualari chegarasining mos kelishi eg maqbul holat hisoblanadi.

O'zbekistonni rivojlantirish masalalari bilan respublikamiz olimlaridan Z.M. Akramov, K.N. Berdinsev, N.G. Sapenko va boshqalar samarali shuJullanganlar. Z. M. Akramov taklif etgan bo'linish bo'yicha 8 ta iqtisodiy rayon (hududiy ishlab chiqarish majmui) ajratiladi. Bular:

1. Toshkent iqtisodiy-geografik rayoni (Toshkent viloyati va Toshkent shaxri);
2. Mirzacho'l iqtisodiy-geografik rayoni (Sirdaryo va Jizzax viloyatlari);
3. Farg'ona iqtisodiy-geografik rayoni (Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlari);
4. Samarqand iqtisodiy-geografik rayoni (Samarqand viloyati);
5. Buxoro-Navoiy iqtisodiy-geografik rayoni (Buxoro, Navoiy viloyatlari);
6. Qashqadaryo iqtisodiy-geografik rayoni (Jashqadaryo viloyati);
7. Surxondaryo iqtisodiy-geografik rayoni (Surxondaryo viloyati);
8. Quyi Amudaryo iqtisodiy-geografik rayoni (Xorazm viloyati va Qoraqalpiston respublikasi).

quyida ana shu iqtisodiy-geografik rayonlar (hududiy ishlab chiqarish majmualari)ning iqtisodiy-geografik o'rni, tabiiy va mehnat resurslari hamda xo'jalik xususiyatlari bilan qisqacha tanishamiz.

Toshkent iqtisodiy-geografik rayoni.

Toshkent iqtisodiy-geografik rayoni ma'muriy jihatdan Toshkent viloyatidan iborat bo'lib, uning maydoni 15,6 ming km², aholisi 4 mln. 482 ming kishi (1999 y.). Toshkent iqtisodiy-geografik rayoni O'zbekistonimizning eng taraqqiy etgan sanoat rayoni hisoblanadi. O'zbekiston sanoati asosiy ishlab chiqarish fondlarining va sanoat ishlab chiqarishida band bo'lgan aholining deyarli yarmisi, yalpi sanoat mahsulotining 40% idan ortili, keyingi yillarda tez rivojlanayotgan kooperativ, hamkorlikdagi korxonalarning 40%igacha yaqini Toshkent iqtisodiy rayoniga to'li keladi. Sanoatning negizini olir sanoat tarmoqlari (mashinasozlik, elektroenergiya, metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari) sanoati tashkil qiladi, yengil va oziq-ovqat sanoatlari ham ancha yaxshi taraqqiy etgan.

Toshkent iqtisodiy rayonida qishloq xo'jaligi yaxshi rivojlangan. Respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 11,3% ini shu iqtisodiy rayon beradi. Ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlari (kartoshka, sabzavot, kanop) yetishtirishda iqtisodiy rayon respublikada birinchi o'rinni egallaydi.

Mirzacho'l iqtisodiy-geografik rayoni.

Mirzacho'l iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan ikkita viloyat - Jizzax va Sirdaryo viloyatlaridan iborat bo'lib, maydoni 25,6 ming km², aholisi 1 mln 591,6 ming kishi (1999y.). Mirzacho'l iqtisodiy rayoni yangi yerlarni o'zlashtirish asosida tarkib topgan bo'lib, respublika maydonining 5,7% ini va aholisining 6,5% ini tashkil qiladi. U asosan qishloq xo'jalik ishlab chiqarish ixtisosiga ega, sanoat jihatdan ham tez rivojlanayotgan iqtisodiy rayondir.

Bu iqtisodiy rayon xo'jaligining negizini gidromeliorativ -industrial-agrar sikl tarkibiga kiruvchi ishlab chiqarish tarmoqlari tashkil etadi. Mirzacho'l yaxshi tarmoqlangan irrigasiya-sulorish tizimiga ega. Suloriladigan yerlar va kelajakda sulorish mumkin bo'lgan maydonlar ham ko'p. Iqtisodiy rayon hozirning o'zida respublikamizda yetishtiriladigan paxtaning 14,2%ini, g'allaning 17,5 %ini beradi. Ayrim sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ham uning salmo'li oshib bormoqda. Jumladan, respublikada hosil qilinadigan elektr quvvatining 30,8%i, tayyorlanadigan paxta tolasining 13,2%ini Mirzacho'l iqtisodiy rayoni bermoqda. Kelajakda yangi yerlarni o'zlashtirish, boy tabiiy resurslarni ishga solish natijasida iqtisodiy rayonning qishloq xo'jalik va sanoat mahsulotlaridagi salmo'li yana ortadi.

Fargona iqtisodiy-geografik rayoni.

Farg'ona iqtisodiy rayoni ma'muriy jihatdan Andijon, Namangan, Farg'ona viloyatlarini birlashtiradi, maydoni 19,2 ming km², aholisi 6 mln. 641,3 ming kishi. (1999y.).

Respublika hududining atigi 4,3%ini egallagan bu iqtisodiy rayonda O'zbekiston aholisining 26,9%i yashaydi. U xo'jalik jihatdan respublikaning eng rivojlangan hududiy ishlab chiqarish majmualari qatoriga kiradi. O'zbekistonda ishlab chiqariladigan yalpi sanoat mahsulotining 4G'l qismi, qishloq xo'jalik mahsulotining 24,9%, shu jumladan, paxtaning 27,0%, xom ipakning 44,5%, ana shu rayon hissasiga to'li keladi.

Fargona iqtisodiy rayonining xo'jiligi, transport va infratuzilma tarmoqlari Tojikiston (Xo'jand viloyati) va Qirg'iziston (O'sh viloyati) respublikalari bilan bolliqdir. Farg'ona iqtisodiy rayonining bu respublikalarga tutashgan qismini bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilib va rivojlantirib bo'lmaydi. Iqtisodiy rayon hissasiga respublikada hosil qilingan elektr quvvatining atigi 5% i to'li keladi. Iqtisodiy rayon zarur elektr quvvatini qo'shni respublikalardan oladi.

Samarqand iqtisodiy-geografik rayoni.

Samarqand iqtisodiy rayoni shu nomli viloyatni o'z ichiga olgan bo'lib, maydoni 13,9 ming km², ya'ni jumhuriyat hududining 3% ga yaqinini tashkil qiladi. U kattaligi jihatidan Qo'yi Amudaryo, Buxoro-Navoiy va Mirzacho'l iqtisodiy rayonlaridan keyin to'rtinchi o'rinda turadi. Aholisi 2 mln. 615,3 ming kishini tashkil qiladi (1999 y), respublika aholisining 11,6% ini tashkil qiladi. Aholisi soniga ko'ra Farg'ona va Toshkent iqtisodiy rayonlaridan keyin turadi.

Bu iqtisodiy rayon respublikaning yirik sanoat-agrar hududiy ishlab chiqarish majmualaridan biridir. U respublika yalpi sanoat mahsulotining 9% ini yetkazib beradi. Bu jihatdan u Toshkent va Farg'ona iqtisodiy rayonlaridan keyin uchinchi o'rinda turadi. Iqtisodiy rayon respublika konserva mahsulotlarining 30% ga yaqinini, shoyi gazlamaning 11,7% ini, paxtaning 8% dan ortiqro'lini, pillaning 10% ini, g'allaning 12% ga yaqinini, kartoshkaning 20% ini, uzumning 30% ini, tamakining 96% ini yetkazib beradi.

Navoiy-Buxoro iqtisodiy-geografik rayoni.

Bu iqtisodiy rayonga Buxoro va Navoiy viloyatlari kiradi. Uning maydoni 153,8 ming km² bo'lib, respublika hududining 34% ini tashkil qiladi. Kattaligi jihatidan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonidan keyin turadi.

Aholisi 2 mln. 169,4 ming kishi (1999 y), respublika aholisining 8,1% ini tashkil qiladi.

Buxoro-Navoiy hududiy ishlab chiqarish majmui respublika mehnat taqsimotida sanoat-agrar iqtisodiy rayonlardan biri bo'lib, O'zbekiston yalpi sanoat mahsulotining 8% ini, paxtasining 12% ini, pillasining 15% ini, qorakul terilarining 44,5% ini yetkazib beradi. Hududining 90% tekislikdan iborat. Iqtisodiy rayon respublika elektr quvvatining 17,7% ini ishlab chiqaradi. (asosan Navoiy G.R.E.S.I. da). Qorako'lchilik yildan-yilga rivojlanib bormoqda. M: 2000 yilda 660 mingdan ziyod qorako'l terilari tayyorlandi.

Qashqadaryo iqtisodiy-geografik rayoni.

Bu iqtisodiy rayon faqat Qashqadaryo viloyatidan iborat bo'lib, respublikaning janubida joylashgan, maydoni 28,4 ming km², respublika hududining 6,3% ini tashkil qiladi. Aholisi 2 mln. 100,4 ming kishi. Iqtisodiy rayon respublika yalpi sanoat mahsulotining 14,2% ini, paxtasining 11,1% ini, pillasining 7% ini, qorako'lining 27,5% ini, g'allasining 14,3% ini yetkazib beradi.

Sanoat tuzulmasida yengil sanoat yetakchi bo'lib, sanoat yalpi mahsulotining 51% ini beradi.

Iqtisodiy rayon respublikada tayyorlanadigan qorako'l terilarining 27,5% ini, junning 16,3% ini yetkazib beradi. Bu sohada u respublikada Buxoro-Navoiy iqtisodiy rayonidan keyin, ikkinchi o'rinda turadi.

Surxondaryo iqtisodiy-geografik rayoni.

Bu iqtisodiy rayon Surxondaryo viloyatidan iborat bo'lib, O'zbekistonning eng janubida joylashgan, shimoli-sharqda Tojikiston respublikasi, shimoli-iarbda Qashqadaryo iqtisodiy rayoni, g'arbda Turkmaniston davlati, janubda Amudaryo orqali Afg'oniston Islom respublikasi bilan chegaralanadi. Iqtisodiy rayon maydoni 20,8 ming km² bo'lib, respublika hududining 4,7% ini tashkil qiladi. Aholisi 1 mln. 687,9 ming kishi (1999 y).

Iqtisodiy rayon ingichka tolali paxta, subtropik mevalar, erta pishadigan sabzavot yetishtirish, ko'mir, neft, osh tuzi, qurilish materiallari, yod ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Respublika mehnat taqsimotida Surxondaryo iqtisodiy rayoni o'zining intensiv qishloq xo'jaligi bilan ajralib turadi. Iqtisodiy rayon xissasiga respublika qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yerlarning 4,5% i, haydaladigan yerlarning 7% i, yaylovlarning 3,9% i to'iri keladi.

Respublika paxtasining 10% ini, shu jumladan ingichka tolali paxtaning 75% ga yaqinini, pillasining 3% ini beradi; qo'y-echkilarning 10,5 % i, qoramollarning 8,9% i shu iqtisodiy rayondadir.

Quyi Amudaryo iqtisodiy-geografik rayoni.

Bu iqtisodiy rayon Qoraqalpogiston respublikasi va Xorazm viloyatini o'z ichiga oladi. Maydoni 170,1 ming km². Iqtisodiy rayon respublikaning shimoli-iarbiy chekkasida joylashgan. U o'z maydoni jihatidan eng katta bo'lib, respublika hududining 38% ini tashkil qiladi. Aholisi 2 mln. 561,8 ming kishi (1999 y).

Qoraqalpogiston respublikasi va Xorazm viloyatlarining bir iqtisodiy rayonga birlashishiga ularning umumiy iqtisodiy-geografik o'rni, xo'jalik ixtisosi, rivojlanish

istiqbollari kabi omillar sabab bo'lgan. Bu iqtisodiy rayon O'zbekistonning shimolidagi paxtachilik, sholikorlik va chorvachilikka ixtisoslashgan mintaqadir. Bu iqtisodiy rayon O'zbekiston paxtasining 14% ini, pillasining 11% ini, sholisining 72% ini, qoramollarining 15% ini, qo'y-echkilarining 10% iga yaqinini, sanoat mahsulotining 5,9% ini yetkazib beradi.

Tayanch so'zlar.

Ko'hna tarixga ega bo'lgan O'zbekiston uzoq va yaqin o'tmishda. Xiva xonligi, Buxoro amirligi, Chor Rossiyasi. Ma'muriy-hududiy bo'linish. Viloyatlar va ularning tashkil qilinishi. Hududiy ishlab chiqarish majmualari. Iqtisodiy aloqalar. Ishlab chiqarish kuchlari va ularning joylashishi. Tabiiy resurslar. Iqtisodiy-geografik rayonlar, ularning tabiiy va mehnat resurslari, xo'jaligi.

1-Mavzu. Markaziy osiyo davlatlarining tarkib topishi, hududi, chegaralari va geografik o'rni (2 soat)

Markaziy Osiyoning Osiyo qit'asining tarkibiy qismi ekanligi, sarhad chiziqlarining shakllanishi va ahamiyati, geografik o'rnining region tabiiy sharoitiga ta'siri, hududining g'arbdan sharqqa (uzoqlik bo'ylab) cho'zilganligining ahamiyati va shimoldan janubga cho'zilganligining tabiat zonalari shakllanishidagi geografik oqibatlari ochib beriladi.

2-mavzu. Markaziy Osiyo hududining geografik tuzilishi, rel'yefi va foydali qazilmalari (2 soat)

Regionning geologik jihatdan bir butunligi. Bu yerda yuz bergan Tog` hosil qilish jarayonlari. Rel'yefi. Yer sirti tuzilishidagi hududiy (davlatlararo) farqlar. Tog` hosil qilish jarayonlari cho'zilishi. Yoqilli energetika resurslari. Madan konlari va ularning zahirasi, tarqalish geografiyasi.

3-mavzu. Iqlimi va ichki suvlari (2 soat).

Regionning geografik o'rniga ko'ra, iqlim xususiyatlari va ulardagi farqlar, o'xshash jihatlar. Iqlim hosil qiluvchi omillar. Iqlim elementlari, havo harorati, yolin-sochin va ularning ko'rsatkichlari, taqsimlanishi.

Daryolari, ularning gidrografik ta'rifi. Tabiiy va sun'iy ko'llari. Ichki suvlarining xo'jalik ahamiyati.

4-mavzu. Tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi (2 soat).

Tabiatni muhofaza qilish masalalari. Tuproli. Uning ona jinsi. Tarqalish xususiyatlari va qonuniyatlari. S.S.Neustriyevning "O'rta Osiyo bo'z tuproqlari" asari asosida tuproq talqini.

O'simliklari. Ularning turlari va tarqalish qonuniyatlari va xususiyatlari. Hayvonot dunyosi, hayvon turlari va tarqalish xususiyatlari.

Tabiatni muhofaza qilish masalalari. O'simlik va hayvonot olamini, tuprogi va suv manbalarini muhofaza qilish. Orol dengizi va "Orol inqirozi"ning oldini olish.

5-mavzu. MODning aholisi va transport geografiyasi (2 soat).

MOD aholisi, uning joylashishi, aholi soni. Aholi sonining davlatlararo keskin farqi, zichligi. Etnik kelib chiqishi. Markaziy Osiyo davlatlarida tabiiy o'sish va o'lim ko'rsatkichlari. Markaziy Osiyo davlatlarining aholisining bandlik darajasi, mehnat resursi bilan ta'minlanish darajasi.

Markaziy Osiyo davlatlari aholisining jinsiy va yosh tarkibi. Milliy masalalar. Shahar va qishloq aholisining nisbati.

6-mavzu. MOD iqtisodiy rivojlanishning xususiyatlari, regionlarning rivojlanishdagi farqlari va xo'lq xo'jaligining yetakchi majmualari (2 soat).

MODning xalq xo'jaligiga umumiy ta'rif va tarixiy ta'rif. MOD xalq xo'jaligi mustamlakachilik va mustaqillik yillarida. Regional davlatlararo iqtisodiy taraqqiyotning xususiyatlari. Sanoatni rivojlantirish asoslari. Yoqilli energetika kompleksi, elektro energiya ishlab chiqarish hajmi. Metallurgiya kompleksi va uning joylashishi. Mashinasozlik kompleksi kimyo sanoati majmui. Paxtachilik majmui. Jahondagi yirik paxtakor region. Donchilik majmui.

7-mavzu. MODning ichki rayonlariga ta'rif. Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston davlatiga umumiy ta'rif (2 soat).

Tojikiston Respublikasining geografik o'rni, tabiati, tabiiy resurslari. Respublikaning aholisi va mehnat resurslari bilan ta'minlanishi darajasi.

Xo'lq xo'jaligi tarmoqlari. Mashinasozlik, yoqilli energetika majmualari qishloq xo'jaligi, paxtachilik va boIdorchilik. Trasport va tashqi iqtisodiy aloqalari. Turkmaniston davlatining geografik o'rni, tabiati, tabiiy resurslari, aholisi va mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi. Xo'lq xo'jaligi tarmoqlari, mashinasozlik, yoqilg'i-energetika majmualari, qishloq xo'jaligi, paxtachilik, chorvachilik, transport va tashqi iqtisodiy aloqalar.

8-mavzu. Qirg'iziston va Qozog'iston Respublikalariga umumiy ta'rif (2 soat).

Qirg'iziston Respublikasining geografik o'rni, tabiati, tabiiy resurslari. Aholisi, soni, etnik kelib chiqishi, joylashishi. Xo'lq xo'jaligiga umumiy ta'rif. Sanoat tarmoqlari, Tog'-kon sanoati. Elektro-energetika sanoati. Mashinasozlik, yengil sanoat tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, boIdorchilik, chorvachilik, qo'ychilik va qoramolchilik. Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Qozog'iston Respublikasining geografik o'rni, tabiati, tabiiy resurslari. Aholisi, soni, zichligi, etnik kelib chiqishi, joylashishi. Xalq xo'jaligiga umumiy ta'rif. Sanoat tarmoqlari. Tog' kon sanoati, elektro-energetika sanoati, mashinasozlik, kimyo, yengil sanoat tarmoqlari. Qishloq xo'jaligi ziroatchilik, boIdorchilik. Transport va tashqi iqtisodiy tarmoqlari.

9-mavzu. O'zbekiston Respublikasining geografik o'rni, sarhad chiziqlari, maydoniga umumiy ta'rif (2 soat).

O'zbekiston Turkistonning markaziy qismida joylashganligi va bu yerda mo'tadil va subtropik iqlimning tarkib topganligi.

Serunum vohalarning tarkib topganligi va buning respublika iqtisodiyotini rivojlanishiga ta'siri. Hududning Tog'li, tekislik, qumliklardan tarkib topganligi. Respublikaning iqtisodiy geografik o'rni. MODga nisbatan tutgan iqtisodiy geografik o'rni. O'zbekistonning MDHga nisbatan va boshqa xorijiy davlatlarga nisbatan tutgan iqtisodiy-geografik o'rni (makrogeografik).

10-mavzu. O'zbekistonning xo'jaligiga umumiy ta'rif. (2 soat).

O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rni, tabiati, aholisi, soni, zichligi, etnik tarkibi, joylashishi. Xalq xo'jaligiga umumiy ta'rif. Sanoat tarmoqlari, Tog'-kon sanoati, yoqilli-energetika, mashinasozlik, Qishloq xo'jalik: dehqonchilik,

paxtachilik, donchilik, sabzavot va polizchilik. Chorvachilik: qoramolchilik va qo'ychilik, parradanchilik.

Transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari. Kimyo sanoati, metallurgiya, to'qimachilik, yengil va oziq-ovqat sanoati, binokorlik materiallari ishlab chiqarish.

11-mavzu. O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi va iqtisodiy rayonlari (1 soat).

Respublikaning ma'muriy tarkibi 1 ta respublika va 12 ta viloyatdan iboratligi.

O'zbekiston hududini iqtisodiy rayonlarga bo'lishda Z.M.Akramov, K.N.Berdinsev, N.G.Sapekolarning xizmatlari.

Iqtisodiy rayonlar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ro'ziyev A.N. Markaziy Osiyo davlatlari iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Termiz, 2001 y.
2. Ro'ziyev A.N., Abirqulov Q. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. Toshkent, 2001
3. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent, 1996 y.
4. Asanov G., Nabixonov M., Safarov I. O'zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi. Toshkent, 1994 y.
5. Qurbonniyozov R. Umumiy tabiiy geografiya. Toshkent, 1999 y.
6. Shuls L.V., Mashramov R., O'rta Osiyo gidrogeografiyasi. Toshkent, 1989 y.
7. Hikmatov G., Sirliboyeva S., Aytboyev P. Ko'llar va suv omborlari. Toshkent, 2000 y.
8. To'xliyev N. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti. Toshkent, 1998 y.
9. Baratov P. Tabiatni muhofaza qilish.. Toshkent, 1991 y.
10. Abdullayev M., Maqsudov A. Tuproqshunoslik va tuproqlar geografiyasi. Toshkent, 1988 y.
11. Ergashev SH. Landshafto' Surxandarinskoy oblasti. Toshkent, 1984 y.
12. Soliyev A. Iqtisodiy geografiya asoslari. Toshkent, 1996 y.
13. Soliyev A., Qarshiboyeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari, 1999 y.
14. Hasanov I.A., G'ulomov P.N. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. Toshkent, 2002 y.

MUNDARIJA

1	Markaziy Osiyo davlatlarining tarkib topishi, hududi, chegaralari va geografik o'ri.....
2	Markaziy Osiyo hududining geologik tuzilishi, rel'yefi va foydali qazilmalari.....
3	Markaziy Osiyo hududining iqlimi va ichki suvlari.....
4	Markaziy Osiyo hududining tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi.....
5	Markaziy Osiyo davlatlari aholisi va transport geografiyasi.....
6	MOD iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlari, regionlar rivojlanishidagi farqlari va xalq xo'jaligining yetakchi majmualari.....
7	Qozog'iston vaQirg'iziston Respublikalariga umumiy ta'rif.....
8	Turkmaniston davlati va Tojikiston Respublikalari umumiy ta'rifi.....
9	O'zbekiston Respublikasining maydoni, chegaralir va geografik o'rniga umumiy ta'rif.....
10	O'zbekiston Respublikasi xo'jaligiga umumiy ta'rif.....
11	O'zbekistonning ma'muriy-hududiy bo'linishi va iqtisodiy-geografik rayonlari.....
12	O'quv dasturi.....
13	Adabiyotlar ro'yxati.....

